

S. FUZAILOV, M. XUDOYBERGANOVA,
SH. YO'LDOSHEVA

ONA TILI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING
3-SINFI UCHUN DARSLIK

15- nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan*



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2019

UO'K: 811.512.133 (075.2)
KBK 81.2 O'zb
O-58

Taqrizchilar:

- Umida Masharipova** — Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, pedagogika fani bo'yicha PhD;
- Matluba Shodiyeva** — QarDU huzuridagi XTQTMOHM maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini mudiri;
- Mohira Xasanova** — Toshkent viloyati Zangiota tumani 43-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR



— mavzu



— qoida



— multimedia ilovasi



— o'ylab ko'ring



• — tushirib qoldirilgan harf



.. — tushirib qoldirilgan qo'shimcha



... — tushirib qoldirilgan so'z



— uyga vazifa



— darsning tugashi

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-22-348-6

© S. Fuzailov va b.
© „O'qituvchi“ NMIU, 2019

TAKRORLASH



NUTQ. GAP. SO‘Z

1-mashq. Rasmni kuzating.



Rasm asosida og‘zaki hikoya tuzing. Hikoyangizga sarlavha toping.

? Nutq nima?


2-mashq. O‘qing.

Qishlog‘imizda katta maktab bor. Men shu maktabda o‘qiyman. Maktabimiz bog‘ yaqinida joylashgan. Biz o‘qishdan bo‘sh paytlarimizda bog‘bonlarga yordam beramiz.

Gaplar bir-biridan qanday ajratilgan? Gaplar nimalardan tuzilgan?

Oxirgi gapni ko‘chiring. Yozganningizni kitobdan tekshiring.

? Nutq nimalardan tuziladi?


 **Nutq** – gaplar orqali bildirilgan fikr. Nutq gaplardan, **gap** esa soʻzlardan tuziladi.

3- mashq. Yozgi taʼtilda eng qiziq oʻtgan kuningiz haqida soʻzlab bering. Fikringizni 3–4 ta gap bilan yozma ifodalang.

 **4- mashq.** Oʻqing. Matnda nechta gap bor?

Kishilar soʻzlaydilar. Soʻzlash orqali bir-birlari bilan munosabatda boʻladilar. Bola soʻzlashni atrofdagi kishilardan oʻrganadi. Soʻzlash orqali u atrofdagi kishilarga oʻz fikrini bildiradi.


Faqat insonlarga soʻzlashishni biladilar.

Matnga sarlavha toping va koʻchirib yozing. 

5- mashq. Oʻqing. Matnda nechta gap borligini aniqlang. Matn nima haqida ekanini ayting.

Oʻlkamizda yalpiz, isiriq, kiyikoʻt va boshqa oʻsimliklar oʻsadi bu oʻsimliklarni dorivor oʻsimliklar deyishadi dorivor oʻsimliklar inson hayotida katta ahamiyatga ega ular yigʻib olinib, dori-darmon tayyorlash korxonasiga topshiriladi.

Koʻchiring. Gaplarni bosh harf bilan boshlab, oxiriga nuqta qoʻyishni unutmang.

 Gap qanday belgilarga ega?


6- mashq. Oʻqing.

Maktabimizda bir nechta sport toʻgaraklari bor men shaxmat toʻgaragiga qatnashaman toʻgarakda biz shaxmat sirlarini oʻrganyapmiz sen qanday toʻgarakka qatnashyapsan unda nimalar oʻrgatiladi

Har bir gapning tinish belgisini qo'yib, ko'chiring.
Matnga sarlavha toping.

 **7-mashq.** Topishmoqlarni o'qing, javoblarini ayting.

Har bir ishni besh o'rtoq,
Bajarar ahil, inoq.



Yer tagida oltin qoziq,
U hammaga bo'lar oziq.

Har bir topishmoq nechta so'zdan tuzilgan?
Topishmoqlarni javobi bilan yozing. Javobingizni lug'atdan
tekshiring. Imlosini yodda tuting.

 Matn nima?

8-mashq. Chap va o'ng tomondagi gaplarni qiyos-
lang. Qaysi ustunda alohida-alohida gaplar, qaysi ustunda
matn berilgan?

1. O'quvchilar sayohatga boradilar. 2. Biz kitobni sevamiz. 3. Men yozgi ta'tilda qishloqqa bordim. 4. Mirzo Ulug'bek buyuk astronom bo'lgan.

Osmonda oq, qora bulutlar ko'rinadi. Daraxtlarning barglari sariq va qizg'ish rangda tovlanadi. Shoxdan shoxga uchib yurgan sayroqi qushlar ko'rinmaydi.

Matnga sarlavha toping va ko'chiring.




Matn

— nutqning yozma shakli.
— mazmun jihatdan bog'langan gaplar.
— gaplardan tuziladi.



9- mashq. Rasmni kuzating. Bolalar nima ish qilayotganlari haqida mazmunan bir-biriga bogʻlangan gaplar tuzing va yozing.

 **10- mashq.** „Matematika darsida“ mavzusida 5–6 ta gapdan iborat matn tuzing.

 **11- mashq.** Oʻqing. Matndagi gaplarning oʻzaro bogʻlanishiga diqqat qiling.

Bir ayol savatda olma koʻtarib borardi. Savatdagi olmalardan biri yerga tushib qoldi. Ayol buni sezmedi. Ayolning orqasidan kelayotgan bola olmani sekingina olib, choʻntagiga soldi.

Bola ayolning yonidan oʻtib ketayotganida, ayol uni toʻxtatib, savatdagi olmalardan birini unga uzatdi. Bola olmani olmadi. Choʻntagidagi olma olov boʻlib tanasini kuydirayotgandek boʻldi. U choʻntagidagi olmani olib, savatga tashladi va yugurib ketdi.

Ayol hayron boʻlib, uning orqasidan qarab qoldi. Bola uyiga kelib, rosa yigʻladi.

Bola uyiga kelib nega yigʻladi? Fikringizni 2–3 ta gap bilan yozma ifodalang.



Matnda gaplar mazmun jihatdan bog'lanadi.

12- mashq. O'qing. Matndagi gaplarni o'zaro mazmun jihatdan bog'lanishiga diqqat qiling.

Sinfimizdagi o'quvchilar bir-birlari bilan juda ahil. Ular juda yaxshi o'qiydilar. Tanaffus vaqtida qiziqarli o'yinlar o'ynaydilar.

Sinfimiz o'g'il-qizlari – yoqimtoy bolalar. Ular maktabni sevishadi, kattalarni hurmat qilishadi.

Sarlavha qo'yib, matnni ko'chiring. *Ahil, aytishadi, ashula, sevishadi* so'zlariga ma'nodosh so'zlar toping.



Matnga sarlavha topish mumkin.



13- mashq. O'qing.

KUZ

Havo **mayin**, **osmon** tip-tiniq,

Ochilibdi gullar rang-barang.

Ariqlarning tubi ko'rinar,

Daraxtlarning **bargi quyoshrang.**

Shukrullo

She'rni yoddan yozing.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.



So'zlar kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?, nima qilmoqchi? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

14- mashq. Rasmni kuzating. Unda yilning qaysi fasli tasvirlanganini yozing. Hikoyangizda ma'nosiga ko'ra qanday so'zlardan foydalandingiz?



15- mashq. So'zlarni o'qing va ularning har biriga so'roq bering. Har bir so'z nimani ifodalayotganini ayting.

Maktab, yashil, boshlayapti, tadbirkor, yozdi, qog'oz, keng, vazifa, oppoq, o'qiyapti, soat, chizadi, kichik, xirmon, ishlaydi, fermer, chiroyli.

1- ustunga shaxs-narsa nomini bildirgan so'zlarni, 2- ustunga shaxs-narsa belgisini ifodalagan so'zlarni, 3- ustunga shaxs-narsaning harakatini bildirgan so'zlarni yozing.



Gaplar so'zlardan tuziladi.

Kim?, nima? so'roqlari shaxs-narsa nomini bildiruvchi so'zlarga beriladi. Shaxs-narsa belgisini ifodalaydigan so'zlar *qanday?, qanaqa?* so'roqlariga javob bo'ladi. *Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?* so'roqlari shaxs-narsaning harakatini bildiradigan so'zlarga beriladi.

 **16- mashq.** So'roq so'zlarning o'rniga berilgan so'zlar-
dan mosini qo'yib o'qing. Ular nimani ifodalashini ayting.

(*Kim?*) o'qidi, (*nima?*) gumburladi, (*qanday?*)
shahar, (*qanaqa?*) yo'l, kitobni (*nima qilmoqchi?*),
xatni (*nima qilyapti?*), musobaqaga (*nima qildi?*).

Foydalanish uchun so'zlar: *kuchli, o'quvchi, qatnashdi,*
o'qimoqchi, sho'x, yozyapti, katta, momaqaldiroq, tekis.

17- mashq. O'qing. Matnga sarlavha toping. 

Osmonda **oq, qora bulutlar ko'rinadi. Da-**
raxtlarning barglari yashil, sariq va qizg'ish
rangda **tovlanadi.** Shoxdan shoxga uchib yurgan
sayroqi qushlar ko'rinmaydi. Dehqonlar kuzgi
hosilni tezroq yig'ib olishga **shoshilyaptilar.**

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ular nimani
bildirayotganini ayting. Matnni ko'chirib yozing.

18- mashq. She'riy parchani o'qing.

Savol tushdi o'rtaga:
„Kimga nima yoqadi?“
O'yga cho'mib bolalar
Bir-biriga boqadi.

Erkin Qambar

Sizga nima yoqadi? Fikringizni yozma bayon qiling.
Tuzgan matningizga mos sarlavha qo'ying.

 **19- mashq.** Topishmoqlarni o'qing, javobini toping.

Qora parda ochildi,
Shildirab suv sochildi.





G'it-g'it deydi, ishlaydi,
Yerga kukun tashlaydi.

Topishmoqlarning javobini topishda qaysi so'zlar yordam berdi? Bir xil so'roqqa javob bo'lgan so'zlarni yozing.



Bilimingizni tekshiring.

1. Matn nima? U nimalardan tuziladi?
2. Gap nima? Gap nimalardan tuziladi?
3. So'zlar nimalarni bildiradi? Ular qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
4. *Kim?*, *nima?* so'roqlari qanday so'zlarga beriladi? Misollar yozing.
5. Qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar nimani ifodalaydi? Misollar yozing.
6. *Nima qildi?*, *nima qilyapti?*, *nima qiladi?* *nima qilmoqchi?* so'roqlari qanday so'zlarga beriladi?



TOVUSHLAR VA HARFLAR. BO'G'IN. ALIFBO

20- mashq. So'zlarni o'qing, ularning talaffuziga e'tibor bering. Har bir so'zda nechta tovush va nechta harf borligini ayting. So'zlardan gaplar tuzing va yozing.

1. Bilim, belgisidir, baxt.
2. Ishi, va'daga, vafo, mardning.

Maqollarning mazmunini tushuntiring.



Tovush harfdan nimasi bilan farq qiladi?



Tovushlar yozuvda **harflar** bilan ifodalanadi.

21- mashq. Soʻzlarni koʻchiring. Soʻzlardagi tovushlar va harflar sonini aniqlang. Har bir soʻzdan soʻng tovushlar va harflar sonini namunadagidek koʻrsating.

Bayroq, ilm, anhor, mehr, rasm, oʻyladi, zang, vatan, olxoʻri, sariq, javon, nordon, arqon, poda.

Namuna: Bayroq (6 ta tovush, 6 ta harf).



22- mashq. Oʻqing.

Sogʻlom, **quvnoq** bolaman,
Mehnatdan zavq olaman.
Agarda ish qilmasam,
Tez zerikib qolaman.

Kattalarga dastyorman,
Xizmatiga tayyorman.
Foydam tegsa birovga,
Men **tengsiz** baxtiyorman.

Qambar Ota

Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni koʻchiring. Shu soʻzlardagi tovushlarni chizmada koʻrsating.

Namuna: quvnoq – □□□□□□



Unli tovushlarni talaffuz qilganimizda havo ogʻizdan erkin oʻtadi: **[a], [e], [i], [o], [u], [oʻ]**. Unli tovushlar ovozdan tashkil topadi. Unli tovush boʻgʻin hosil qiladi.

23- mashq. Soʻzlarni oʻqing. Unli va undosh bilan boshlanuvchi soʻzlarni aniqlang. Ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Osmon, baxt, vergul, anor, oʻrmon, qishloq, choʻyan, oltin, **shabada**, ulugʻ, eʻlon, **tadbirkor**.

Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni tovush-harf yuzasidan tahlil qiling.



Undosh tovushlarni talaffuz qilganimizda havo ogʻizda toʻsiqqa uchraydi: **[b], [m], [l]**.

24- mashq. Topishmoqni oʻqing, javobini ayting.

Marjon-marjon yumaloq,
Yaproqlari shapaloq.
Qora, qizil, sariq, oq,
Yeb koʻrmasdan, oʻylab boq.



Koʻchiring. Har bir soʻzda nechta boʻgʻin borligini sanab koʻring. Soʻzda nechta boʻgʻin borligini qanday bilish mumkin?



25- mashq. Berilgan harflardan soʻzlar hosil qiling va yozing. Har bir soʻzdagi unli va undosh tovushlarni aniqlang.

D, I, B, M, O, L, N



26- mashq. Alifboni yod oling va harflarni nomi bilan talaffuz qilishni oʻrganing. Alifboni husnixat asosida koʻchirib yozing.



Alifbo nima? Unda nechta harf bor?




Tartib bilan berilgan barcha harflar **alifbodir**. Alifboda 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasi bor.



O'ZBEK ALIFBOSI

Bosma harf	Yozma harf	Nomi	Bosma harf	Yozma harf	Nomi
Ab	<i>Aa</i>	a	Qq	<i>Qq</i>	qe
Bb	<i>Bb</i>	be	Rr	<i>Rr</i>	er
Dd	<i>Dd</i>	de	Ss	<i>Ss</i>	es
Ee	<i>Ee</i>	e	Tt	<i>Tt</i>	te
Ff	<i>Ff</i>	ef	Uu	<i>Uu</i>	u
Gg	<i>Gg</i>	ge	Vv	<i>Vv</i>	ve
Hh	<i>Hh</i>	he	Xx	<i>Xx</i>	xe
Ii	<i>Ii</i>	i	Yy	<i>Yy</i>	ye
Jj	<i>Jj</i>	je	Zz	<i>Zz</i>	ze
Kk	<i>Kk</i>	ke	O'o'	<i>O'o'</i>	o'
Ll	<i>Ll</i>	el	G'g'	<i>G'g'</i>	g'e
Mm	<i>Mm</i>	em	Sh sh	<i>Sh sh</i>	she
Nn	<i>Nn</i>	en	Ch ch	<i>Ch ch</i>	che
Oo	<i>Oo</i>	o	Ng ng	<i>Ng ng</i>	nge
Pp	<i>Pp</i>	pe			

27-mashq. Sharlar ichidagi raqamlar o'rniga mos harflarni qo'yib yozing.



28-mashq. O'qing. Alifbodagi qaysi harflar tushib qolganini aniqlang va ularni o'z o'rniga qo'yib yozing.

a, b, ., e, f, g, ., i, j, k, ., m, n, ., p, ., ., s, t, ., ., x, y, ., ., g', ., ., ng.



29- mashq. O'qing. Berilgan harflardan mosini qo'yib, so'zlar hosil qiling. So'zlarning ma'nosini izohlang.

tog'	a	ayyor	t	erta	k
osh	b	yelka	n	qish	o'
ayiq	q	o'roq	s	ish	q

Hosil bo'lgan so'zlarni alifbo tartibida yozing.

30- mashq. She'ni ifodali o'qing.

Dilda **orzum** to'lug'dir,

Bir-biridan **ulug'dir.**

O'qib-o'qib bir kuni

Dadamlarga o'xshasam,

Odamlarga o'xshasam.

Yaxshilarga **do'st** bo'lsam,

Doim shirinso'z bo'lsam.

Ahil bo'lib yurishda

Dadamlarga o'xshasam,

Odamlarga o'xshasam.

Po'lat Mo'min

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni alifbo tartibida yozing. Ularga yaqin ma'noli so'zlar toping. Topgan so'zlaringizni she'rdagi so'zlar o'rniga qo'yib o'qib ko'ring.

 **31- mashq.** O'zbekistondagi qadimiy shaharlardan qaysilarini bilasiz? Ularning nomini alifbo tartibida yozing.

32- mashq. So'zlarni o'qing, ma'nosini tushuntiring.

Ayiq-qayiq, sovuq-tovuq, qovun-sovun, tutun-butun, archa-barcha, zirak-ziyrak, amma-hamma.

Ko'chiring. So'z ma'nolarini o'zgartirayotgan harflarning tagiga chizing.

33- mashq. O'qing. Matni qismlarga bo'ling.

KITOB



O'tgan zamonda bir podsho vazir-u ulamolarini yoniga chaqirib: „Dunyoda eng kerakli va hamma narsadan xabardor qiluvchi nima?“ deb savol beribdi. Hamma bu savolga javob izlabdi. Lekin hech kimning javobi podshoga ma'qul bo'lmabdi.

Qo'shni podsholikda olamga dong'i ketgan donishmand yashar ekan. Vazir uning oldiga boribdi. Unga podshoning savolini aytibdi. Donishmand hech ikkilanmay:

– Kitob. Chunki kitob bilim beradi. Dunyodagi eng qudratli narsa esa bilimdir, – debdi. Bu javob podshoga ham ma'qul tushibdi.

Mahmud Murodov

Matndan donishmandning javobini toping va o'qing. Podshoning savoliga siz nima deb javob qilgan bo'lar-dingiz? Fikringizni 3–4 ta gap bilan ifodalang.

 **34- mashq.** Kitob haqida 2 ta maqol yozing. So'zlardagi bo'g'inlarni aniqlang. 



TUTUQ (') BELGISI

35- mashq. O'qing. Matni ko'chirib yozing. Tutuq belgili so'zlarning tagiga chizing.

Ma'murjon yosh qalamkashlar to'garagiga a'zo. Uning yozgan she'rlari maktab devoriy gazetasida chiqib turadi. Yaqinda ustozlar kuni nishonlanadi. Jur'at ustozlar haqida maqola yozmoqchi. U va'dasini albatta bajaradi.




Tutuq belgisi tovush bildirmaydi.

Tutuq belgisi unidan keyin kelganda shu unlining cho'ziqroq aytilishini bildiradi: *sa'va, e'lon.*

Tutuq belgisi undosh tovushdan keyin kelganda uning keyingi unidan ajratib talaffuz qilinishini bildiradi: *san'at, mash'al, Tal'at.*

36- mashq. O'qing. O'qilishi va ohangiga e'tibor bering.



Tutuq belgisi nima uchun qo'llaniladi?



37- mashq. O'qing.

Alisher Navoiy

Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida tug'ildi. U bolaligidanoq ziyrakligi, o'tkir zehni, she'r o'qish va yodlash qobiliyati bilan ko'pchilikning e'tiborini qozondi. Alisher 10–12 yoshidanoq ilk she'rlari bilan shoir va olimlarni hayratga soldi. U davlat arbobi sifatida mamlakat va xalq farovonligi uchun kurashdi. Maktab, madrasa, shifoxona, kutubxonalar qurdirdi. Ariq va kanallar qazdirdi. Ilm va san'at ahliga rahnamolik qildi. 1476-yilda vazirlik vazifasidan iste'fo bergach, o'zining o'lmas asar-


larini yaratdi. Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida Hirotda vafot etdi.

Tutuq belgisi qaysi soʻzlarda qoʻllanilgan? Shu soʻzlarni koʻchirib yozing.

38- mashq. Soʻzlarni boʻgʻinlab oʻqing.

Anʼana, aʼzo, maʼrifat, eʼtirof, maʼqul, taʼna, taʼziya, maʼlumot, eʼlon, daʼvo.


Koʻchiring, tutuq belgili boʻgʻinlarning tagiga chizing. *Taʼna* — *tana*, *daʼvo* — *davo* soʻzlarining maʼnosini izohlang.

 Tutuq belgili soʻzlarni boʻgʻinga boʻlib koʻchirishda tutuq belgisi oldingi yoʻlda qoldiriladi: *inʼom*, *taʼsir*, *taʼlim*, *surʼat*.

39- mashq. Oʻqing. Soʻzlarni boʻgʻinga boʻlib koʻchiring.

Maʼnaviyat, maʼrifat, daʼvogʻar, taʼsirchan, maʼmurchilik, masʼuliyat, taʼminot, eʼtiqod, maʼnoli, maʼyuslanmoq, maʼlumotnoma, sanʼatkor, saʼva.

Shu soʻzlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing va yozing.

 **40- mashq.** Oʻqing. Tutuq belgisidan oldin kelgan unli harfni choʻziqroq talaffuz qilib, soʻzlarni oʻqing.

Neʼmat darsga baʼzan kechikib keladigan odat chiqardi. Oʻrtoqlari undan xafa boʻlishdi. Yigʻilishda Talʼat ular nomidan soʻzladi. Uning soʻzi Neʼmatga qattiq taʼsir qildi. U darsga kechikmaslikka qatʼiy vaʼda berdi. Shundan keyin u darsga kechikmaydigan boʻldi.

Tutuq belgili soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib yozing.

41- mashq. O'qing. So'zlarda [o'] va [g'] tovushlarining bosma harf shaklida ifodalanishiga hamda tutuq (') belgisining shakliga e'tibor bering.

Qur'on, qo'rg'on, ma'no, mo'jiza, chang'i, da'vat, qo'ng'iz, ta'lim, o'g'il, so'na, mas'ul, mo'g'ul, me'mor, qo'shiq, qit'a, g'o'la, sa'va.

[o'] va [g'] tovushlarining yozma ifodalanishini izohlang. o' va g' harflari ishtirok etgan so'zlarni alohida, tutuq (') belgili so'zlarni alohida yozing.

42- mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning yozilishiga e'tibor bering, ularning imlosini esda saqlang.

BUYUK IPAK YO'LI

Buyuk ipak **yo'li** asrlar davomida **qit'alarni** bir-biri bilan bog'lagan. Yo'l **o'tgan o'lkalarda** savdo-sotiq rivojlangan, ma'rifat-madaniyat ravnaq topgan. Bu muqaddas yo'l O'zbekistonning shaharlari va talay salobatli **qal'alari** orqali o'tar edi.

Buyuk ipak yo'li elatlarga to'kin-sochin hayot baxsh etgan. Bozorlarni noz-ne'matlar bilan **to'ldirgan**. Xalqlar bir-birlari bilan do'stlikda, tinchlikda barqaror hayot kechirishga intilganlar.

Hozir ham ajdodlar asos solgan bu tabarruk yo'l **o'z** ahamiyatini **yo'qotgani** yo'q.

(o') harfi ishtirok etgan so'zlarni alohida, tutuq belgili (') so'zlarni alohida ko'chirib yozing.

Matn necha qismdan tuzilgan?

 **43- mashq.** Tutuq belgisi ishtirok etgan 5 ta so'z toping va yozing.





SH, CH, NG HARFLAR BIRIKMASI

44- mashq. Soʻzlarni boʻgʻinlab oʻqing, ularning boʻgʻinga boʻlinish holatiga eʼtibor bering.

Koʻngil, si-ngil, ha-shar, ha-sha-rot, koʻ-cha, shosh-qa-loq, kuch-li, Dil-shod, to-ngi, qo-shiq, yax-shi, toy-choq.

Koʻchiring, **sh, ch, ng** harflar birikmasining keyingi yoʻlga qanday koʻchirilishini esda tuting.



Bir tovushni ifodalovchi **sh, ch, ng** harflar birikmasi boʻgʻinga quyidagicha koʻchiriladi: oldingi satrda qoladi: *chuch-vara, teng-dosh*; keyingi yoʻlga birgalikda koʻchiriladi: *shar-shara, koʻ-ngil, de-ngiz*.

45- mashq. Oʻqing. Soʻzlarni boʻgʻinga boʻlib koʻchiring.

Choyshab, chorshanba, ishchan, shaharcha, shamchiroq, achchiq, shaxmatchi, chashma, childir-makash, qoʻshnichilik, gulchambar, hasharchi.

Sh, ch harflar birikmasining yozilishini esda saqlang.



46- mashq. Oʻqing.

TURNALAR

Turnalar, hoy, turnalar,
Pastlab **uchingiz**.
Bizning koʻl va daryolar
Bagʻrin **quchingiz**.
Bizlarni xursand qilib,
Keldingiz shu chogʻ.



Ko'kimizda tizilib,
Soling arg'imchoq...

Ilyos Muslim

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inga bo'lib yozing. 

47- mashq. Nuqtalar o'rniga **sh, ch, ng** harflar birikmasidan mosini qo'yib o'qing va yozing.


Doni.mand, .oli, po.ta, .ivin, **be.ik,** .umoli,
.oynak, ku.li, .elak, **.ar.ara,** .ir.oy, si.il, to.gi.


Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gap tuzib yozing.

48- mashq. O'qing. Matnga sarlavha toping.

Istiqlol davrida Toshkentning serqatnov chorrahasida ko'k gumbazli ulkan muzey qurildi. Bu hashamatli go'zal bino Vatanimizning ming yillik tarixi va temuriylar sulolasi haqida so'zlaydi. Muzeyni tomosha qilar ekanmiz, ko'z o'ngimizda bobolarimiz Amir Temur, Ulug'bek va Boburlar hayoti namoyon bo'ladi.

Siz qaysi muzeyda bo'lgansiz? Taassurotingiz bilan o'rtoqlashing.

 **49- mashq.** O'qing. **sh, ch, ng** harflar birikmasining o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering.

Serquyosh, shaxsiy, charos, shabnam, shar-simon, sochiq, sichqon, qo'shiqchi, Shohista, Shohsanam, kenglik, shohanshoh, suhbatdosh, shudring, choshgoh, hasharchi. 

Ko'chiring, **s, h** harflarining tagiga bir chiziq, **sh, ch, ng** harflar birikmasining tagiga ikki chiziq chizing.



JARANGLI VA JARANGSIZ UNDOSHLAR

50- mashq. Juftlab berilgan soʻzlarni oʻqing.

mard – mart

jim – chim

gul – kul

dil – til

darz – dars

choy – joy

dogʻ – togʻ

barcha – parcha

Bu soʻzlar qaysi harflarga koʻra bir-biridan farq qilyapti? Ularni juftlab ayting va talaffuziga eʼtibor bering.



Undosh tovushlar ovoz va shovqinning ishtirok etishiga koʻra **jarangli** va **jarangsiz** boʻladi.

[b], [d], [g], [j], [l], [m], [n], [r], [v], [y], [z], [gʻ], [ng] – jarangli undoshlar.

[f], [h], [k], [p], [q], [s], [t], [x], [sh], [ch] – jarangsiz undoshlar.

51- mashq. Soʻzlarni juftlab oʻqing va koʻchiring. Aytilishi va yozilishida farq qiladigan undoshlarni aniqlab, tagiga chizing.

Maktab – maktabi, maqsad – maqsadi, ijod – ijodi, javob – javobi, zarb – zarbi, atrof – atrofi.



Talaffuzda ayrim soʻzlarning oxirida kelgan jarangli undosh oʻrniga uning jarangsiz jufti eshitiladi: *kitob, avlod, ozod, mayiz, yalpiz*.

Bunday soʻzlar oxirida qaysi harf yozilishini aniqlash uchun shu soʻzdan soʻng unli qoʻshib aytiladi: *kitob – kitobi, mard – mardi, yalpiz – yalpizi*.

Ko‘z-u **qorachiqlar**, kipriklarday jam,
Vatan **e‘zozlangay**, asralgay Vatan!

Sirojiddin Sayyid

So‘zlarni tovush tomondan tahlil qilish tartibi:

1. So‘zdagi tovush va harflar.
2. Unli va undosh tovushlar.
3. Jarangli va jarangsiz undoshlar.
4. Bo‘g‘inlar.

55- mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni aniqlang.

USTOZ VA MURABBIY

Bizni o‘qishga, yozishga o‘rgatgan, aqlimizni raso, tilimizni burro etgan, olam sirlarini tanitgan **ustoz** muallimdir.

Bizni mehnatsevar, halol, to‘g‘riso‘z, yaxshi xulqli, yoqimtoy bo‘lishga undagan va **chiroyli** kiyinishga, ozoda yurish-turishga o‘rgatgan tarbiyachi murabbiydir. Bu **oliyjanob** kasb sohiblari bolalarning baxtli, saodatli, kelajagi porloq bo‘lishi uchun **g‘amxo‘rlik** qiladilar. **Zahmatkash** ustozlar va murabbiylar iftixorimizdir.

Oliyjanob, zahmatkash so‘zlarining ma‘nosini izohlang.

 **56- mashq.** So‘zlarni o‘qing.

Avlo., hiso., tarki., kito., saba., limona., javo., poli., ay., bunyo., umi., yo..

Har bir so‘zdan so‘ng ularning yozilishini tekshiruvchi shaklini –jarangli undoshdan so‘ng unli qo‘shilgan shaklini yozing.

Namuna: *avlod – avlodi.*




TALAFFUZDA TUSHIB QOLADIGAN UNDOSHLAR


57- mashq. Nuqtalar o'rniga **d** va **t** undoshidan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

Payvan., do's., dilban., sus., balan., poytax.,
g'ish., pas., darax., Samarqan., go'sh..


So'zlarning talaffuzi va yozilishini qiyoslang.

 Ayrim so'zlar oxirida kelgan **d** va **t** undoshlari aytilmay qoladi, lekin yoziladi: *payvand, baland, rost.*

58- mashq. Katakchalarga mos so'zlarni topib yozing. Shu so'zlarning talaffuzi va yozilishini qiyoslang.



1. *O'rtoq* so'ziga yaqin ma'noli so'z.
2. Vatanimiz poytaxti.
3. *Jasur* so'ziga yaqin ma'noli so'z.
4. Oziq-ovqat mahsuloti.

 **59- mashq.** O'qing. Ko'chiring. Oxirgi undosh aytilmay qoladigan so'zlarning tagiga chizing.

Farzand bo'lib maqtayman,
Xursand bo'lib maqtayman.
Shu o'lka suvin ichdim,
Dilband bo'lib maqtayman.
Onajon O'zbekiston,
Mehribon O'zbekiston.

Po'lat Mo'min





YONMA-YON KELGAN BIR XIL UNDOSHLAR

60- mashq. O'qing. Yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarni aniqlab, ko'chirib yozing.

BOLARI MARVARIDGULNI QANDAY TOPADI?

Bolari inidan chiqib, atrofga quloq soladi.

Qo'ng'iroqchalar ovozi marvaridguldanda taraladi. Shoda-shoda gulning har bittasi xuddi kumush qo'ng'iroqchalarga o'xshaydi. O'rtasida tilla bolg'achalari ham bor. Bolg'achalar silkinib, gulbargga uriladi, natijada bolarilar yashaydigan joygacha mayin ovoz taraladi.

Marvaridgul ana shunday qilib bolarini chaqiradi. Bolari uchib kelib, uning sharbatini ichadi.

Matnning boshlanishi va tugallanishini aniqlang.
Matnni qismlarga bo'ling.

Ba'zi so'zlarda ikkita bir xil undosh yonma-yon keladi: *g'alla, telegramma, kassa, pilla.*

Bo'g'in ko'chirishda so'zlardagi yonma-yon kelgan bir xil undoshning biri oldingi yo'lda qoldirilib, ikkinchisi keyingi yo'lga o'tkaziladi: *do'p-pi, yak-ka, kat-ta, ar-ra, ta-bas-sum.*

61- mashq. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qing.

Bitta, dovuchcha, issiq, oppoq, labbay, marra, qattiq, hamma, jizza, varrak, ittifoq, mahalla.


So'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'lib yozing.
Shu so'zlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing.

 **62- mashq.** O'qing. So'zlarning yozilishini yodda saqlang.

Hammom, ukki, tonna, xokkey, kilogramm, murakkab, tennis, antenna, ikki, hamma.

So'zlarni quyidagi tartibda ko'chiring.

Namuna: kk: ukki

Har bir so'zdagi tovushlar va harflar sonini ayting. 

63- mashq. O'qing, so'zlarning yozilishini yodda saqlang.

Achchiq, balli, barakalla, gripp, tashabbus, **tabarruk**, metallurgiya, gramm, **tabassum**, yalla, jizza, **alla**, dovuchcha, muddat, minnatdor, **mahalla**.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni qatnashtirib, gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozing.

64- mashq. Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib o'qing.

muka..al	mi..atdor	tana..us
taa..ub	mi..ioner	tasha..ur
maha..a	chi..i	chi..ak
gra..	ji..a,	shi..at

So'zlarni yozing, imlosini yodda tuting.


 **65- mashq.** O'qing. Topishmoqlarning javobini ayting.

O'zi oppoq, qor emas,
Shirin, ammo bol emas.



Tilla sandiq ochildi,
Ichidan zar sochildi.



Yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarni bo'g'inga bo'lib yozing. 

66- mashq. Tez, to'g'ri va ravon o'qing. Yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarni bo'g'inga bo'lib yozing.

Yetti to'ti, mitti to'ti,
Yetmishtaga yetdi to'ti.

Ikki ukki – aka-uka ukki.

Qog'ozning qattiq qirrasini qo'limni qirdi.

67- mashq. O'qing, mazmunini so'zlab bering.

Musobaqa


Bir kuni Quyon o'zining chopqirligini namoyish qilish uchun Toshbaqaga yugurish bo'yicha musobaqalashishni taklif qilibdi. Toshbaqa rozi bo'libdi. Marra uchun o'rmon chetidagi bir daraxtni belgilashibdi.

Musobaqa boshlanibdi. Toshbaqa shoshilmay yo'lga tushibdi. Uni ko'rgan Quyon kulib:

– Men biroz mizg'ib olsam bo'ladi, – deb daraxt tagiga yonboshlabdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tibdi. Quyon uyg'olib qarasa, Toshbaqa marraga yetay deb qolibdi. Bor kuchini yig'ib yuguribdi, lekin toshbaqa undan oldin marraga yetib boribdi. Quyon qilgan ishidan pushaymon bo'libdi.

Matnni qismlarga bo'ling. Har bir qismga sarlavha toping.

 **68- mashq.** Quyidagi undoshlar yonma-yon kelgan so'zlardan topib yozing.

ll:

rr:

tt:



GAP



GAPNING MAQSADIGA KO'RA TURLARI

69- mashq. Har bir gapni fikr tugashiga qarab, ovoz bilan ajratib o'qing va ko'chirib yozing.

ERKSEVAR XALQLAR SO'ZI

Dunyodagi erksevar xalqlar bir so'zni sevinib aytadilar. Bu tinchlik so'zidir! Bu so'z turli tillarda turlicha yangraydi. Odamlar bu so'zni baralla aytadilar. Xalqlar tinch, baxtiyor yashashni istaydilar!



Gap tugallangan fikrni bildiradi. Yozuvda har bir gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi, oxiriga tinish belgisi qo'yiladi.

70- mashq. O'qing. Gaplarning fikr ifodasiga e'tibor bering. Matnni ko'chiring.

Onasi ishdan qaytdi. Qizi tayyorlagan karam sho'rvadan ichdi va: „Voy, qizim-ey, biram mazali ovqat tayyorlabsan!“ – dedi. Sho'ra unchalik mazali emasdi.

Qiziq, onasi uni nega buncha maqtadi?

Har bir gap qanday mazmun bildiriyapti?



71- mashq. Har bir qatorda berilgan so'zlardan alohida gap tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozing.


mevazor, akam, bilan, bordik, bog'ga
shaftoli, olma, bog'da, olxo'ri, pishgan
to'yib, yedik, biz, oq, shaftolidan



72- mashq. O'qing. Kerakli o'rinlarga tinish belgisini qo'yib, matni ko'chiring.

Daraxtlar nega barg to'kadi siz buning sababini bilasizmi kuzda daraxtlarning barglari sarg'ayib yerga to'kiladi qishda muzlagan yerdan daraxt kerakli miqdorda suvni ola olmaydi shu sababli kuzda barglarini to'kadi.

„Dunyoni anglayman“ kitobidan

 Nima uchun gaplar turli mazmuni bildiradi?

73- mashq. O'qing. Unda kimlarning suhbatini aks ettirilgan? She'rni ko'chiring.

– Nega bug'doy bosh egar? –

Savol berdim dadamga.

– Mehnatini olqishlab,

Ta'zim qilar odamga.

– Tilla rangga ularni

Kimlar bo'yab ketishgan?


– Elni sevgan dehqonlar

Terlar to'kib ekishgan.

Shuning uchun har boshqoq

Oltin bo'lib yetilgan.

Tursunboy Adashboyev

 **74- mashq.** O'qing. Matni ko'chiring. Har bir gapning oxiriga tinish belgisini qo'ying.

Odamlar ter to'kib mehnat qildilar qirda ol-
tindek boshqoqlar yetildi kombaynlar ishga tushdi
mo'l hosil yig'ib olindi omborlar donga liq to'ldi





DARAK GAP

75- mashq. Maktabga kelguncha uyda va ko'chada ko'rgan-kechirganlaringiz haqida so'zlang.

Yo'lda kimlarni uchratdingiz?

Tabiatdagi o'zgarishlarni sezdingizmi?

Qanday voqealarni ko'rdingiz va qanday xulosaga keldingiz?

Tuzgan hikoyangizdan 2–3 ta xabar bildiruvchi gapni tanlang va yozing.



Biror narsa-voqea haqida xabarni bildirgan gap **darak gap** deyiladi.

Darak gap oxirida ovoz pasayadi.

Darak gapning oxiriga **nuqta (.)** qo'yiladi.

76- mashq. O'qing. Matnda ifoda maqsadiga ko'ra qanday gaplardan foydalanilganini ayting.

Siz kamalakni ko'rganmisiz?

Yomg'irdan so'ng havoda uzoq muddat suv tomchilari, ya'ni zarralari mavjud bo'ladi. Bu tomchilar quyosh nur sochishi bilan turli ranglarda tovlanadi. Shunda biz kamalakni ko'ramiz. Kamalak ranglari hamisha bir tartibda bo'ladi. Bular qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorang, ko'k va binafsharanglardir.

Matnga sarlavha toping. Kamalak ranglarini bildiruvchi so'zlarni yozing. Kamalak rasmini chizing.



77- mashq. Matnni o'qing, har bir gapning boshlanishi va oxirini ovoz bilan ajratib o'qing.

Biz do'stlikni ulug'laymiz do'stlikda katta hikmat bor do'stlik kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi Vatan obodligi, tinchlikning barqarorligi do'stlik bilan bog'liqdir

Ko'chiring. Har bir gapning oxiriga nuqta qo'ying. Gapning birinchi so'zini bosh harf bilan boshlang.

78- mashq. O'qing. Har bir gapning boshlanishi va oxirini aniqlab ko'chiring. Ular ifoda maqsadiga ko'ra qanday gaplar?

Maktabimiz o'quvchilari yaxshi ish boshladilar ular hozirdanoq noyob gul urug'larini yig'yaptilar fevral oyida urug'ni tuproqli yashikda undiradilar bahor kelishi bilan ko'chatlarni maktab gulzoriga o'tqazadilar

Kerakli tinish belgilarini qo'yib, matnni ko'chiring.


Siz ham sinfingizda ibratli ishlar qilasizmi?

Sinfingizda qanday gullar o'sadi? Ularni qanday parvarish qilyapsiz?

79- mashq. O'qing. O'qiganingizda har bir gapning boshlanishi va oxirini ohang bilan ajrating. Ko'chiring.

Shokirjonlarning bog'ida bir tup yong'oq o'sadi yong'oqning tanasiga quloch yetmaydi har yili talay hosil beradi yong'oq pishdi Shokirjonning o'rtoqlari hasharga kelishdi otasi Ro'zimat aka yong'oq qoqdi bolalar yong'oqlarni terishdi Ro'zimat aka bolalardan mamnun bo'lib tashakkur aytdi

Har bir gapning oxiriga qaysi belgi qo'yilishiga va gapning qanday harf bilan boshlanishiga rioya qiling.

 **80- mashq.** Matni o'qing, mazmuniga e'tibor bering.

BOZOR

Bozor – **tabarruk** joy. U yer yil bo'yi gavjum. El-yurtning rizq-ro'zi bozorda. Barakali dasturxonimiz fayzi ham bozor tufayli.

Sohibkorlar, g'allakorlar, chorvadorlar, hunarmand-u savdogarlar o'z **mahsulotlarini**, uy-ro'zg'or buyumlarini, kiyim-kechaklarini bozorga olib keladilar. Kelishib **narx-navoni** belgilaydilar, o'zaro oldi-sotdi qiladilar.

Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini bilib oling va ko'chirib yozing. Ular qanday gaplar tarkibida qo'llangan?



SO'ROQ GAP

81- mashq. Bir-biringizdan biror narsa haqida so'rang. Bunda siz qanday gaplardan foydalandingiz? Savollarga javob bering. Javobingizda qanday gaplardan foydalandingiz?

Savol berish va shu savollarga javob qaytarish maqsadida tuzgan gaplaringizni yozing. Har bir gapning oxiriga kerakli tinish belgisini qo'ying.



Biror narsa haqida so'rash maqsadini bildirgan gap **so'roq gap** deyiladi. So'roq gapning oxiriga **so'roq (?) belgisi** qo'yiladi.

82- mashq. O'qing. Suhbat mazmunini aytib bering.

Laylo buvisining yoniga xomush kirib keldi.

– Buvijon, gulim kasal bo'lib qoldi.


– Qayerdan bilding?

- Ana, bargi soʻligan. Endi nima qilamiz?
- Oʻzing tuzata qol, qizim.
- Dori quti qayerda, buvijon?
- Dori qutini nima qilasan? Bu gulga dori kerak emas.
- Unda nima qilay?
- Tagini yumshat, suv quy. Guling tuzalib ketadi.

„Gʻuncha“dan

Suhbatda ifoda maqsadiga koʻra qanday gaplar qoʻllanilgan? Soʻroq gaplarni koʻchirib yozing.

Oʻzingiz bilgan gul nomlaridan beshta yozing. Ularni qatnashtirib, darak va soʻroq gaplar tuzing.

 **83- mashq.** Oʻqing. Har bir gap oxiridagi ohangga diqqat qiling. Bular qanday gaplar?

Kuz qaysi oydan boshlanadi?

Kuzda qaysi qushlar issiq oʻlkalarga uchib ketadi?

Kuzdan keyin qaysi fasl boshlanadi?

Qaysi qushlar qishlash uchun biz tomonga uchib keladi?

Soʻroq gaplar mazmuniga mos darak gaplar tuzing va yozing.



84- mashq. Matnni oʻqing.

Men dugonam Lola bilan kitob oʻqishni juda sevamiz. Biz kitoblardan turli xalqlar hayotiga oid yangiliklarni, qiziqarli maʼlumotlarni bilib olamiz. Kitob kishining bilimni oshiradi, oʻylashga oʻrgatadi.

Berilgan savollarga matndan javob topib yozing.

1. Kitoblardan nimalarni bilib olasiz?
2. Kitob nimalarga oʻrgatadi?

85- mashq. O'qing. Matnda nechta gap bor, ular qanday gaplar?

Irodaning o'z darsxonasi bor u dugonasi **Malohat bilan** shu yerda dars tayyorlaydi **Malohat** Irodaga so'zlarning ma'nosini o'rgatadi Iroda esa unga **ifodali o'qishni** o'rgatadi ikki dugona uy vazifalarini o'z vaqtida puxta **bajaradilar**

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Shu so'zlar o'rniga so'roq ifodalovchi so'zlarni qo'yib, gaplarni qayta o'qing. Yozing, tegishli tinish belgilarini qo'ying.



86- mashq. Matnni o'qing.

- Buva, cho'ponlik yomonmi? – dedi Karim.
- Yo'q, chirog'im.
- Hisobchi bo'lish-chi?
- Hisobchilik ham yaxshi.
- Ichida eng yaxshisi qaysi?
- Kasbning yomoni bo'lmaydi, bolam.

Matnda ifoda maqsadiga ko'ra qanday gaplar qo'llanilgan? So'roq gaplarni ko'chirib yozing.



87- mashq. O'qing.

Makkajo'xorining donidan (*nima?*) tayyorlanadi. Uning (*nimasidan?*) arzon va shirin pecheniylar tayyorlanadi. Makkajo'xorining bargi, poyasi va so'tasidan (*nima?*) qilinadi. (*Nima?*) bilan boqilgan mollar yaxshi semiradi.

Har bir gapdagi so'roqni ifodalovchi so'z o'rniga gapning mazmuniga mos keladigan so'zlarni qo'yib, gaplarni qayta o'qing. Qanday gaplar hosil bo'ldi?

Foydalanish uchun so'zlar: *silos, un, unidan.*

88- mashq. O'qing. Matnda ifoda maqsadiga ko'ra qanday gaplar qo'llanilganini aniqlang.

– Bobojon, kichik Vatan ham bo'ladimi? – beixtiyor so'radim.

– Bo'ladi, bolam, bo'ladi. Odamning yashaydigan uyi, hovli-joyi – bu kichik Vatan. Ana shu kichik vatanlar yig'ilib-yig'ilib, birlashib O'zbekiston degan ulug' Vatanga aylanadi...

Ashurali Jo'rayevdan

Boboning gapini ko'chirib yozing. O'zingiz yashayotgan shahringiz (qishlog'ingiz) haqida 3–4 ta gap yozing.

 **89- mashq.** O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang.

Quddus Muhammadiy – bolalar shoiri siz uning „O'quvchiga esdalik“, „Inkubator jo'jalari“ she'rlarini o'qiganmisiz bu she'rlarni bolalar sevib o'qiydilar siz bolalar shoirlaridan yana kimlarni bilasiz ularning qaysi asarlarini o'qigansiz

Ko'chiring. Har bir gapning oxiriga tinish belgisini qo'ying.

90- mashq. Tez va ifodali o'qing. 

Ikki ayiq qayiqqa qaradi
Oq ayiq oldin qayiqqa qaradimi
Qora ayiq oldin qayiqqa qaradimi

Tez aytish qanday gaplardan tuzilganini aniqlang. Har bir gap oxiriga tegishli tinish belgisini qo'yib ko'chiring.

91- mashq. O'qing. Matnda ifoda maqsadiga ko'ra qanday gaplar berilgan?

KAPALAK

Umida gulzor atrofida o'ynab yurgan edi. Yonidagi gulga kapalak qo'ndi. Umida kapalakni tut-


moqchi bo'ldi. Kapalak uchib ketdi. Boshqa gulga qo'ndi. Umida sekin borib kapalakni tutib oldi. U kapalakning chiroyli qanotlarini ohista siladi.

Har bir darak gapdan so'roq so'zlar yordamida namunadagidek so'roq gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozing.

Namuna: *Kim gulzor atrofida o'ynab yurgan edi?*

Foydalanish uchun so'zlar: *kim?, nima?, nimani?, nimaning?, nima qildi?, qayerga?, qanday?*



 **92- mashq.** 3- sinf „O'qish kitobi“da berilgan „Ilmi ming yashar“ asaridan so'roq gaplarga 2 ta misol toping va ko'chirib yozing.



BUYRUQ GAP

93- mashq. O'qing, ma'nosini tushuntiring.

1. Birovdan yomonlik axtarma, aytsalar ishonma. („*Temur tuzuklari*“dan)
2. Bugungi ishni ertaga qo'yma.
3. Oz so'zla, ko'p tingla.
4. Avval o'yla, keyin so'yla. (*Maqol*)


Buyurish, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan gaplar **buyruq gap** deyiladi.


Buyruq gapning oxiriga **nuqta (.)** qo'yiladi.

94- mashq. O'qing.

1. Kuching yetadigan ishga urin. Qo'lingdan kelmaydigan ishga urinma. 2. Hamma joyda: ko'chada, uyda odobli bo'ling. 3. Ko'cha harakati qoidalariga rioya qiling. 4. Chiroyli yozishni mashq qilgin. 5. Darvozani yop, Roziq.

Ko'chiring. Gaplar qanday mazmun bildirayotganini ayting.

 **95- mashq.** Matnni o'qing. Har bir gapning chegarasini aniqlang. Tinish belgilarini qo'yib, matnni ko'chiring.

Istiqlol tufayli sport ishlariga katta e'tibor berilyapti yangi sport inshootlari qurilmoqda sizga yaqin joyda sport maskani bormi siz sportning qaysi turi bilan shug'ullanasiz sport bilan do'stlashing u kishini jismoniy chiniqtiradi, irodani mustahkamlaydi 

96- mashq. O'qing. Berilgan gaplarni chizma asosida turlarga bo'lib yozing.



Keng osmonga tikilaman. Ana uzoqda bulutlar suzib yuribdi. Ular katta kemaga o'xshaydi. Qani endi shu bulut kemada men ham bo'lsaydim! Qiziq, bu bulutlar qayergacha suzib borishar ekan?

Gaplar	Ifoda maqsadiga ko'ra turi
Keng osmonga tikilaman.	darak gap

97- mashq. Berilgan soʻzlar ishtirokida darak, soʻroq, buyruq gaplar yozing.

Yoz, ayt, kel.

Namuna: 1. *Mashqni namuna asosida yozdim.* 2. *Sen dugonangga xat yozdingmi?* 3. *Diktantni xatosiz yoz.*

 **98- mashq.** Gaplarning ifoda maqsadiga koʻra turlarining har biriga bittadan gap yozing. 



HIS-HAYAJON GAP

99- mashq. Oʻqing, gaplar qanday mazmun anglatyapti, ularning oxiriga qanday belgilar qoʻyilgan?

Bahorda daraxtlar qiygʻos gullaydi. Gulkosalar ichiga boshini suqib turgan asalarini koʻrganmisiz? Ari gul shirasi bilan oziqlanadi, undan asal tayyorlaydi.

Oh, asal juda mazali! Yana uning koʻp dardlarga davoligi-chi!

Asalning mazasi, foydasi haqida his-hayajon bilan aytilgan gapni oʻqing.

100- mashq. Oʻqing.

Kuz keldi. Bogʻda qip-qizil olmalar va sapsariq noklar pishdi. Ishkomlarda uzumlar tovlanadi. Muso bularni koʻrib, juda quvondi va otasiga dedi:

– Eh, kuz qanday ajoyib fasl!

Nima uchun oxirgi gapdan keyin undov belgisi qoʻyilganini tushuntiring. Shu gapni koʻchirib yozing.



Kuchli his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gap **his-hayajon gap** deyiladi.

His-hayajon gapning oxiriga **undov (!) belgisi** qo'yiladi.



101- mashq. Har bir gapni o'ziga xos ohang bilan o'qing.

Hilola tez-tez kasal bo'ladi. Uning sinfdosh o'rtog'i Zamira sog'lom va chaqqon. Nima uchun shunday? Chunki Zamira har kuni ertalab yuguradi, badantarbiya qiladi. Qishda chang'i va konkida uchadi. Eh, qish qanday maza! Endi Hilola ham Zamiradek sog'lom bo'lishga harakat qilyapti.

So'roq va his-hayajon gaplarni ko'chiring.



102- mashq. O'qing.

MUSTAQILLIK MAYDONI

Mustaqillik maydonida har doim rang-barang gullar ochilib, ifor taratib turadi. Ezgulik arkasidagi laylaklar tinchlik, birlik, jipslik ramzidir. Arkaning uzunligi 150 metr, o'rta peshtoq qismi 12 metr balandlikka ega bo'lib, 16 qator oq marmar bilan bezatilgan ustunlardan iborat. Ezgulik arkasidan mustaqillik timsoli va baxtiyor ona siymosini mujassam etgan „Mustaqillik va ezgulik monumenti“ majmuasi tomon boriladi.

U yerda Ikkinchi jahon urushida halok bo'lganlar xotirasiga bunyod etilgan „Xotira maydoni“ bor.

Bir tomonda Oliy Majlisning yuqori palatasi – Senat, ro‘parasida ijro hokimiyati – Vazirlar Mahkamasining ma‘muriy binosi qad ko‘targan.

Vatanimizning Bosh maydonini sayr qilganimizda qalbimizni faxrlanish tuyg‘usi qamrab oladi.

Jabbor Razzoqov




Siz Mustaqillik maydonida bo‘lganmisiz? Taassurotingizni so‘zlab bering.

103- mashq. O‘qing. Matnda ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gaplar qo‘llanganini aniqlang.

Vatan – bu sen, ota-onang, oilang va do‘stlaring yashaydigan yer. Vatan – bu sen bilan birga yashayotgan gullar, daraxtlar.

Ko‘chadan kelar ekansiz, yuzlab derazalar ichida o‘z uyingizning derazasiga qaraysiz. Nega boshqa derazalarga qaramaysiz? Chunki o‘sha derazaning ichida sizning kichik vataningiz bor.

Matndagi qaysi gaplarni his-hayajon bilan o‘qish mumkin? Shu gaplarni ko‘chirib yozing.

 **104- mashq.** Rasmlarni ko‘ring. Bolalarning nima qilayotganliklarini kuzating.



„Biz sportni sevamiz“ mavzusida 4–5 gapdan iborat matn yozing.



GAP BO‘LAKLARI

105- mashq. Matnni o‘qing. Necha gap borligini aniqlang.

Maktabimizda sinflararo sport musobaqalari boshlandi. G‘olib jamoamiz sovrin oldi. Maktab direktori jamoamizni tabrikladi.

Sport kishini jismoniy chiniqtiradi. O‘quvchilar sport bilan muntazam shug‘ullanadilar.

? Gapda so‘zlar qanday vazifani bajaradi?


? Gapda so‘zlar ma‘nosiga qarab, ma‘lum bir vazifani bajaradi. Mustaqil ma‘noli so‘z gapning bo‘lagi bo‘lib keladi: *mehnat insonni ulug‘laydi* gapida fikrni o‘ziga qaratayotgan bo‘lak *mehnat* so‘zi bo‘lsa, u haqda fikr bildiruvchi bo‘lak *ulug‘laydi* so‘zidir. Har ikki bo‘lak gapning asosini tashkil etadi: *mehnat ulug‘laydi*. Gapdagi boshqa so‘zlar gapning asosiy mazmunini to‘ldirish uchun xizmat qiladi: *insonni ulug‘laydi*.


106- mashq. Har bir gapni diqqat bilan o‘qing. Qaysi bo‘laklar gapning asosini tashkil etyapti? Qaysi bo‘laklar asosiy mazmunni to‘ldiryapti?

Dehqonlar qishki dala ishlarini boshladilar. Mirishkor dehqonlar dalaga yaxob¹ suvini berdilar. Yaxob suvi yerning sho'ri yuvadi. Urug' xatosiz unib chiqadi. Ekinlar tuproqdan yaxshi oziqlanadi.

Gap bo'laklarini quyida ko'rsatilgandek tahlil qiling.

Namuna: *Dehqonlar qishki dala ishlarini boshladilar.*
Dehqonlar boshladilar – gap asosi; *qishki dala ishlarini* (boshladilar) – asosiy mazmunni to'ldirgan bo'laklar.

 Gapning asosiy mazmunini tashkil etgan gap bo'laklari **bosh bo'laklardir**. Asosiy mazmunni to'ldirish uchun qo'llanilgan bo'laklar **ikkinchi darajali bo'laklardir**. *G'ayratli bola charchashni bilmaydi.* *Bola, bilmaydi* – bosh bo'laklar; *g'ayratli, charchashni* – ikkinchi darajali bo'laklar.

 **107- mashq.** O'qing va ko'chiring. Gapning bosh bo'laklari vazifasini bajarib kelgan so'zlarni aniqlang. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.

1. Yomg'ir maysalarni yashnatdi. 2. Onam yopar shirmoy non. (*Yusuf Shomansur*) 3. Mayin shamol yaproqlarni tebratdi. 4. Ertalab uyimizga mehmon keldi. 5. Inson kompyuterni yaratdi.



BOSH BO'LAKLAR

108- mashq. O'qing va ko'chiring.

Umid duradgorlik to'garagiga qatnaydi. To'garak rahbari o'quvchilarga duradgorlik sirlarini o'rgatmoqda. To'garakda bolalar yog'ochdan turli bu-

¹Yaxob – ekin maydonini qishda sug'orish.

yumlar yasashni o'rganadilar. Yamin kursicha, xon-taxta yasashni biladi. Hozir bolalar javon yasashni o'rganishyapti.

Birinchi gap kim haqida aytilyapti? Shu so'zning tagiga bir chiziq chizing. Yamin haqida nima deyilgan? Shu so'zning tagiga ikki chiziq chizing. Keyingi gaplarni ham shu tartibda tahlil qiling.



Ega va kesim gapning **bosh bo'laklaridir**. Ular birgalikda gapning asosini tashkil etadi. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildiradigan bo'lak **ega** deb ataladi. Gapning egasi haqida nima deyilganini bildirgan bo'lak **kesim** deyiladi. Kesim gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofiga birlashtiradi.

Bolalar maktabda o'qiydilar. Bu gapda bosh bo'lak ikkita: *kimlar? Bolalar* (ega), *nima qiladilar? O'qiydilar* (kesim). *Bolalar o'qiydilar* gapi bolalarning mashg'uloti (o'qishi) haqida xabar bildiriyapti.

109- mashq. Nuqtalar o'rniga so'roqlar mazmuniga mos so'zlarni qo'yib, matnni o'qing. Ko'chiring. Bosh bo'laklarni aniqlang.

(*Kim?*) ... mashinani yurgizdi. (*Nima?*) ... bekatda to'xtadi. (*Kim?*) ... kasallarni davolaydi. (*Kim?*) ... sahnada o'ynaydi. (*Nima?*) ... chiqdi olamga. (*Kimlar?*) ... tanlovga tayyorlanmoqdalar.

Foydalanish uchun so'zlar: *haydovchi, shifokor, artist, oftob, avtobus, o'quvchilar.*

 **110- mashq.** O'qing, ajratilgan so'zlarga so'roq bering.

Yana xazonrezgilik,
Barglar **rangi siniqdi.**
Dilda hokim ezgulik,
Anhorda **suv tiniqdi.**


Oq yaktakli **qayinlar**
Taqdi yana zar baldoq.
Qushlarga gap tayinlab,
Chag'-chag'laydi zarg'aldoq.

Tursunboy Adashboyev

Ko'chiring. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.
Barglar rangi siniqdi deganda nimani tushunasiz?



111- mashq. Rasmni diqqat bilan kuzating va 3–4 gapli matn tuzing. Ega, kesimning tagiga chizing.




Kesim nima qildi?, nima qildilar?, nima qilyapti?, nima qilyaptilar?, nima qiladi?, nima qiladilar?, nima qilmoqchi?, nima qilmoqchilar? so'roqlariga javob bo'ladi.

Ega kim?, kimlar?, nima?, nimalar? so'roqlariga javob bo'ladi.

112- mashq. Soʻzlarni oʻqing va ulardan gaplar tuzing.

Yayrab, bogʻchada, oʻsmoqdalar, kichkintoylar; oʻqiyaptilar, bolalar, kitobni; qiziqib oʻqidi, yoddan, Karim, sheʼrni; xushovoz, aytdi, Nafisa, ashula; oʻsmoqdamiz, biz, ozod va obod, Vatanda.

Tuzgan gaplaringizni yozing. Tekshiring. Bosh boʻlaklarga soʻroq bering. Ularni yonma-yon yozing.

 **113- mashq.** Qavs ichidagi soʻroqlar oʻrniga mos soʻzlar tanlab, sheʼr matnini toʻldiring, soʻng uni ifodali oʻqing.

(*Nima?*) keldi otlanib,
Barg yozib, qanotlanib.
(*Nima?*) oqardi, (*kimlar?*)
Qoqar, silkitar shodlanib.
Bogʻ koʻchaning toʻrida
(*Nima?*) ola boʻlibdi.
Eng birinchi (*kim?*)
Uni shoxda koʻribdi.

Tursunboy Adashboyev

Foydalanish uchun soʻzlar: *Xayrulla, bolalar, tut, oʻrik, bahor.*

Koʻchiring, ega vazifasidagi soʻzlarning tagiga chizing.



114- mashq. Qavs ichida berilgan soʻroqlarga mos soʻzlar qoʻyib, matnni oʻqing.

Mana qish ham (*nima qildi?*). Qor yer ustini (*nima qildi?*). Yer namni yaxshi (*nima qiladi?*). Bahorda daraxtlar tez (*nima qiladi?*). Hamma yoq maysalar bilan (*nima qiladi?*).

Gaplarni yozing, kesim vazifasidagi soʻzlarning tagiga chizing.

Foydalanish uchun soʻzlar: *qopladi, keldi, saqlaydi, qoplanadi, uygʻonadi.*

115- mashq. Soʻzlardan gaplar tuzing. Oʻylab koʻring. Gapda soʻzlarni qanday tartibda qoʻyish toʻgʻri boʻladi?

doʻkondan, Azim, oldi, qarmoq
yogʻochga, Qodir, uni, bogʻladi
yakshanba, bordilar, daryoga, bolalar, kuni
bolalar, tutdilar, baliq, beshta

Gaplarni yozing. Gapdagi bosh boʻlaklarning tagiga chizing.



116- mashq. Oʻqing.

Yangi kutubxona qurildi. Xonalarni zamonaviy ji-
hozlar bilan jihozlashdi. Kutubxonachi javonlar-
ni yangi kitoblar bilan boyitdi. Oʻquvchilar boʻsh
vaqtlarida kutubxonaga boradilar. Kutubxonaning
keng, yorugʻ oʻquv xonalari bolalar bilan toʻladi.

Koʻchiring. Gapning bosh boʻlaklari – ega bilan kesimni
aniqlab, tagiga tegishlicha chizing. Ega va kesim vazi-
fasidagi soʻzlar yoniga soʻrogʻini yozing.

Namuna: Yangi kutubxona (nima?) qurildi (nima qildi?).



117- mashq. Matnni oʻqing. Gaplarning kesimini toping.

NON

Nonushta uchun dasturxonga qand, asal, qay-
moq qoʻyildi. Lekin hamma dasturxon atrofida
jimgina oʻtiribdi. Chunki dasturxondagi narsa-
larni „harakatga“ soladigan non koʻrinmaydi.

Onam tandirdan so'liqildoq nonlarni uzdilar. Singlim savatdagi bug'i chiqib turgan nonlardan otamga uzatdi. Otam nonni sindirdilar. Hammamiz nonushta qilishga kirishdik. Shunda hech narsa nonning o'rnini bosolmasligini his qildik. Ha, non – aziz ne'mat.

G'ani Abdullayev

Aniqlangan kesimlarga avval so'roq bering, keyin so'rog'ini kesim bilan yonma-yon yozing.

Namuna: nima qildi? – *qo'ydi.*

118- mashq. Matnni o'qing. Har bir gapdagi bosh bo'laklar – ega bilan kesimni aniqlang va yozing.

Qish yog'ingarchilik bilan o'tdi. Tog'larda qor ko'p to'plandi.

Quyosh havoni mo'tadil isityapti. Kanal va ariqlardan suv to'lib oqyapti.

Dehqonlar poliz va sabzavot ekinlaridan mo'l hosil yetishtiradilar. Paxtakorlar esa katta xirmon ko'taradilar.

 **119- mashq.** Berilgan so'zlardan gap tuzing.

bu, yil, yog'di, yomg'ir, ko'p qoplandi, maysa bilan, ko'k, yaylov qir-adirlarda, bug'doy, bahorgi, ekildi dehqonlar, hosil, mo'l, bug'doydan, oldilar

Gaplarni yozing. Bosh bo'laklarning tagiga chizing. 

120- mashq. O'qing. Matnga sarlavha toping.

Bolalar bog'dan toshbaqa topib oldilar. Toshbaqaning bir oyog'i yaralangan edi. Bolalar uni yaxshi parvarish qildilar. Toshbaqaning yaralan-

gan oyog'iga dori qo'yib bog'ladilar. Toshbaqaning oyog'i tez kunda tuzalib ketdi. Sentabrda bolalar uni maktabga sovg'a qildilar. Hozir u maktabimiz „Jonli burchagi“da yashayapti.

Savollar yordamida matn mazmunini hikoya qiling.

1. Bolalar bog'dan nima topib oldilar?
2. Toshbaqaning oyog'iga nima qilgan edi?
3. Bolalar toshbaqaning oyog'ini qanday davoladilar?
4. Bolalar toshbaqani qayerga keltirdilar?

Har bir gapdagi bosh bo'laklarni aniqlab, ularni yonma-yon ko'chiring.

 Gapning bosh bo'laklari nimani hosil qiladi?


121- mashq. Ifodali o'qing.

MANZARA

Tilla bandli **yaproqlar**
Dov-daraxt-la **xushlashar**.
Bargi xazon fasli bu,
Kuz qish bilan **duchlashar**.
Yuklaridan bo'shanib
Olgan cheksiz dalalar.
Quchog'ida o'ynaydi
Qirmiz yuzli bolalar.

Nurilla Oston

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering. Ular gapning qaysi bo'lagi bo'lib kelayotganini aniqlang. Bosh bo'laklarni birgalikda ko'chiring.

 **122- mashq.** Tez aytishni mashq qiling.

1. To'lqin topishmoqni to'g'ri topdi.
2. Turg'un to'rtta to'rg'ayni to'rga tushirdi.

Ko'chiring. Gaplarning bosh bo'laklarini aniqlab, tagiga tegishlicha chizing.




123- mashq. O'qing. Nechta gap borligini ayting. Har bir gapning chegarasini aniqlab, tinish belgisini qo'ying va ko'chiring.


Daryoning bo'yida ikkita sarvqomat, oppoq qayin o'sadi yam-yashil shoxlari xuddi sochga o'xshab yoyilgan betinim shamol bu sochlarni taraydi barglar asta shivirlab nimalarnidir gapiradi

Gapning bosh bo'laklarini aniqlang va tagiga tegishlicha chizing.

124- mashq. Boshqotirmani yeching va yozing.



Maqoldagi bosh bo'laklarni aniqlab, tagiga chizing.

 **125- mashq.** O'qing. Har bir gapning ega va kesimini aniqlang.

1. Osmon benihoya tiniq va ko'm-ko'k ko'rindi.
2. Sobir qanday so'zladi? 3. Ko'm-ko'k barglar quyosh nurida jilvalanadi. 4. Siz qaysi chet tillarni o'rganyapsiz?

Gaplarni ko'chiring. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.





IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR

126- mashq. O'qing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.

Do'lana tog'larda o'sadi olimlar do'lanada darmondorilar borligini aniqladilar hozir uning mevasi va gulidan shifobaxsh dorilar tayyorlanadi

Ko'chiring. Har bir gapning oxiriga nuqta qo'ying. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.

Nima uchun gapda boshqa so'zlar ham ishtirok etgan? Ular gapning mazmuniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Gapning asosiy mazmunini bosh bo'laklardan anglash mumkin. Gapdagi fikr yana ham to'liqroq bo'lishi uchun boshqa so'zlar ham ishtirok etadi.

Bunday so'zlar **ikkinchi darajali bo'laklardir**. Bular, odatda, bosh bo'laklar bilan bog'lanib, gapning mazmunini to'ldiradi.

Ikkinchi darajali bo'laklar ham gapda ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi. *Yosh qo'shiqchilar tanlovga puxta tayyorlandilar.*

1. Bosh bo'laklar: (kimlar?) Qo'shiqchilar – ega, (nima qildilar?) tayyorlandilar – kesim.


2. Ikkinchi darajali bo'laklar: qanday qo'shiqchilar? – yosh qo'shiqchilar. Nimaga tayyorlandilar? – tanlovga tayyorlandilar. Qanday tayyorlandilar? – puxta tayyorlandilar.

127- mashq. Gaplarni mazmuniga mos so'zlar bilan to'ldirib yozing.

O'quvchilar sinfga ... keltirdilar. Akvariumda mayda ... suzyapti. Suvda yashil ... o'sadi. Bolalar baliqchalarga navbat bilan

Foydalanish uchun so'zlar: *baliqchalar, akvarium, qaraydilar, o'tlar.*

Qo'yilgan so'zlarga so'roq bering, ular gapning qaysi bo'lagi vazifasida kelgan? Ikkinchi darajali bo'laklar nima uchun qo'llanilgan?

 **128- mashq.** Matnni o'qing. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlang.

Tokzorlarda bog'bonning ishlari kuzda ko'payadi. Toklarning ortiqcha novdalari qirqiladi. Qoldirilgan novdalar birlashtirilib bog'lanadi. Ular tuproqqa ko'miladi. Bu bilan hosilli kurtaklar sovuqdan saqlanadi.

Ko'chiring. Ega bilan kesimning tagiga tegishlicha chizing. Ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.



129- mashq. O'qing.

Kuchli shamol qo'zg'aldi. Ulkan daraxtlar qattiq silkindi. Sarg'aygan barglar yerga to'kildi. Zamin barglar bilan qoplandi. Sersavlat daraxtlar chiroyini yo'qotdi.


Gaplarni ko'chiring. So'roqlar yordamida gap bo'laklarini namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: *Kuchli shamol qo'zg'aldi. Nima qo'zg'aldi? – shamol (ega); shamol nima qildi? – qo'zg'aldi (kesim); qanday shamol? – kuchli (ikkinchi darajali bo'lak).*

130- mashq. O'qing. Har bir qatordan bittadan so'z tanlab, gap tuzing va yozing.

hayot o'quvchilar ashula
 muzeyga suvsiz sho'x
 yangramoqda bordilar bo'lmaydi

Tanlagan so'zlaringiz gapning qaysi bo'lagi? Ularni tegishli chiziq yordamida belgilang.

 **131- mashq.** Nuqtalar o'rniga so'roqlarga mos so'zlar tanlab, matnни to'ldiring va yozing.

OQSHOM

(*Qanday?*) ... quyosh botdi. (*Qayerni?*) ... qorong'ilik bosdi. (*Qayerda?*) ... oy ko'rindi. (*Qanaqa?*) ... oy (*nimani?*) ... yoritdi. (*Qanaqa?*) ... shabada esmoqda. Sayohatchilar (*qancha?*) ... suhbatlashdilar.


Qo'yan so'zlaringizning tagiga tegishli chizing.

Foydalanish uchun so'zlar: *atrofni, to'lin, horg'in, yoqimli, uzoq, osmonda, kechani.*

132- mashq. O'qing. Gap bo'laklarini chizma asosida og'zaki tahlil qiling.

1. Chiroyli kapalak gulga qo'ndi.
2. Nabi yozda oromgohga bordi.

Namuna:



133- mashq. Har bir qatorda berilgan so'zlardan gap tuzing.

dalalarni, g'ozapoyadan, tozaladilar, dehqonlar haydadi, yerni, traktorda, traktorchi qizg'in, borayotir, ishlar, dalalarda

Tuzgan gaplaringizni yozing. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni tegishlicha belgilang.

 **134- mashq.** Chizmaga mos gaplar tuzing va yozing.

1. _____ ~~~~~ ===== .
2. ~~~~~ _____ ===== .



GAPDA SO'ZLARNING BOG'LANISHI

135- mashq. O'qing.

Sovuq shamol esdi. Yomg'ir yog'di. Daraxtlar yaproqlarini to'kdi. Yashil o'tlar sarg'aydi. Qushlar issiq o'lkalarga uchib ketdi.

Dalalarda yig'im-terim ishlari boshlandi.

Birinchi gapni ko'chiring. Undagi bosh bo'laklarning tagiga chizing. Ega va kesimga so'roq bering. Bu bo'laklarga bog'lanib kelayotgan so'zlarni namunadagidek yozing. Yozganlaringizni tekshiring.

Namuna: *Sovuq shamol esdi.*

nima esdi? – *shamol esdi,*

qanday shamol? – *sovuq shamol.*

Beshinchi gapni ko'chiring. Undagi bosh bo'laklarning tagiga chizing va ular bilan ma'no jihatdan bog'langan so'zlarni namunadagidek yozing.



Gapda so'zlar mazmunan o'zaro bog'lanadi. Gapda so'zlarning bog'lanishi so'roqlar yordamida aniqlanadi.

136- mashq. O'qing. So'zlarning o'zaro bog'lanishini so'roqlar yordamida aniqlang. Bunda 129- mashqda berilgan namunadan foydalaning. Matnni yozing.

Gulzorda yengilgina shamol esyapti. Gullardan yoqimli hid atrofga taraladi. Oromgohdagi odamlar bundan zavqlanadilar.



137- mashq. O'qing. Matnda nechta gap borligini ayting.

Osmonni qora bulut qopladi momaqaldiraq qat-tiq gumburladi kuchli shamol qo'zg'aldi barglar havoda aylanib uchdi yerga yomg'ir tomchilari tushdi

Tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Birinchi gapdagi so'zlarning o'zaro bog'lanishini so'roqlar yordamida belgilang.



138- mashq. Gaplarni o'qing. Avval bosh bo'laklarni so'roqlar yordamida belgilang, keyin ularga mazmunan bog'langan so'zlarni ham so'roq berib aniqlang.

1. Yoqimli kuy odamni allalaydi. 2. Umida eshikni asta yopdi. 3. Azizning chiroyli surati do'stiga yoqdi. 4. Jangovar qo'shiq safimizni mustahkamlaydi. 5. Behzod musiqa to'garagiga boradi.


Ikkinchi va to'rtinchi gaplarni ko'chiring. Gapdagi so'z birikmalarini chizma yordamida ko'rsating.

Namuna: Yoqimli kuy odamni allalaydi.
qanday? kimni?

139- mashq. O'qing. Berilgan so'zlardan birikma tuzing va yozing.


Sho'x, uzmoq, olma, ertakni, qo'shiq, qovun, bola, tinglamoq, mehnatsevar, termoq.

 Soʻzlarni oʻzaro bogʻlashda nimalarga eʼtibor berdingiz?

 **140- mashq.** Soʻroqlarga mos soʻzlar qoʻyib, gaplarni toʻldiring va yozing.

Oʻquvchilar (*kimlarga?*) sovgʻa tayyorlashdi. Qizlar qiyqimdan (*qanaqa?*) qoʻgʻirchoqlar tikdilar. Oʻgʻil bolalar (*nimadan?*) uychalar yasadilar.

Foydalanish uchun soʻzlar: *chiroyli, qogʻozdan, kichkintoylarga.*

Har bir gapdagi oʻzaro bogʻlangan soʻzlarni toping. Bir soʻzdan ikkinchisiga qarata soʻroq bering. 

141- mashq. Oʻqing, har bir gapning kesimini aniqlang. Soʻroqlar yordamida kesimga bogʻlanib kelgan soʻzni toping. Soʻroqlarini qavs ichida yoniga yozib qoʻying.

Odil ota qishlogʻimizda koʻrkam bogʻ yaratdi. Sohibkor bogʻbon daraxtlarni yaxshi parvarishladi. Mevali daraxtlar tezda hosilga kirdi.

142- mashq. Berilgan soʻzlardan gaplar tuzing va yozing.

dehqon, yer, oʻrtogʻidan, olibdi, sotib
haydabdi, yerni, dehqon, bahorda
chiqibdi, tilla, toʻldirilgan, xumcha, undan
dehqon, olib, boribdi, oʻrtogʻiga, xumchani
xumchani, olmabdi, oʻrtogʻi

Ertakni davom ettiring.

 **143- mashq.** Berilgan soʻzlardan birikma tuzing va yozing.



144- mashq. Berilgan gaplarga mos ikkinchi darajali bo'laklar qo'shib yozing.

1. Aziz o'qidi. 2. Akam keldi. 3. Yomg'ir yog'di.

Ikkinchi darajali bo'laklar qaysi bo'lakka bog'langanini aniqlang.

145- mashq. O'qing. Gap bo'laklarini aniqlang.

O'quvchilar shanba kuni hayvonot bog'iga bordilar. Yovvoyi hayvonlar qafaslarda yasharkan.

Shuhrat va men timsohni, oq ayiqni, filni rosa kuzatdik. Hayvonot bog'idagi turli qushlar ham bolalarni o'ziga jalb qildi. Shu kuni biz jonivorlar haqida ko'p narsalarni bilib oldik.

Ko'chiring. Ikkinchi gapdagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga chizing. Ularning bog'lanishini so'roqlar bilan ko'rsating.

Bilimingizni tekshiring.

1. Gap deb nimaga aytiladi?
2. Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi? Har bir turiga misollar keltiring.
3. Qanday gaplarni his-hayajon gaplarga kiritamiz? His-hayajon gapga misol keltiring.
4. Gapning bosh bo'laklariga nimalar kiradi?
5. Ikkinchi darajali bo'lak gapda nima uchun kerak?

SO‘Z TARKIBI



ASOS VA ASOSDOSH SO‘ZLAR

146- mashq. So‘zlarni o‘qing.

Sinf – sinfdosh, traktor – traktorchi, paxta – paxta-zor, bog‘ – bog‘bon, temir – temirchi, pul – puldor, hunar – hunarli, fikr – fikrla, qadr – qadrli, zamon – zamondosh, meva – mevazor.

Juftlab berilgan so‘zlar nimasi bilan bir-biriga o‘xshaydi? Ularni yozing, umumiy qismni namunada ko‘rsatilgandek belgilang.

Namuna: *ish – ishchan.*



Ma‘no va shakl jihatidan umumiy qismga ega bo‘lgan so‘zlar **asosdosh so‘zlardir**: *do‘st, do‘stlik, do‘stona; gul, gulchi, guldon, gulsiz.*

Asosdosh so‘zlar uchun umumiy qism **asos** deb nomlanadi: *mevazor, mevali, mevasiz.*


Asos () belgi bilan ko‘rsatiladi.

147- mashq. O‘qing. Yoddan yozing.


Osmoningda porlar **quyosh**,
Barcha ellar **ahil**, sirdosh.
Toleyingga tinchlik yo‘ldosh,
O‘zbekiston, vatanimsan —
Gullagan chamanimsan.

Valijon Ahmadjon

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga asosdosh so‘zlar yozing.

 **148- mashq.** O'qing. Ko'chiring. Asosdosh so'zlardagi umumiy qism bo'lgan asosni tegishlicha belgilang.

GULCHILAR

Maktabimizning katta hovlisi bor. O'quvchilar u yerni chiroyli gulzor qilishgan. Gullarni o'quvchilar parvarish qiladilar. Ular gulchilik bilan shug'ullanishni sevadilar. 

149- mashq. O'qing. Bo'sh kataklarni to'ldirib, so'zlarni yozing. Yozgan so'zlaringizning ma'nosini tushuntiring.

B	O	G'																	
B	O	G'																	
B	O	G'																	
B	O	G'	D	O	R							L	I	K					

150- mashq. Har qaysi qatordan asosdosh so'zlarni toping va yozing.

Izdosh, izlamoq, izzat, izsiz.

Boshla, boshliq, boshlovchi.

O'roq, o'rtoq, o'rim, o'roqchi, o'rmala.

Yozuv, yovuz, yozma, yozuvchi, yozishma.



Qolgan so'zlar nima uchun asosdosh so'zlar deyilmaydi?



151- mashq. She'ni ifodali o'qing va ko'chiring.

Jajji **g'uncha**, guldayman,

Bog'dagi bulbuldayman.

Sog'lom jon, sog'lom tanman,

O'zimcha bir jahonman.
Hayotdan **zavq** olaman,
Baxtim kulgan bolaman.

Qambar Ota

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga asosdosh so'zlar toping.

152- mashq. Avval *su* so'ziga asosdosh so'zlar toping. Keyin ular ishtirokida 2–3 ta gap tuzing va yozing.


153- mashq. O'qing. Matnga sarlavha toping.

Mamlakatimizda yana bir koshona qad ko'tardi. Bu – Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona. Milliy kutubxonamiz hamisha tabarruk dargoh bo'lgan. Vatan **istiqloli** uchun jon fido qilgan Qodiriy, Cho'lpon, Tavallo, Fitrat, Avloniy kabi ma'rifatparvar yurt o'g'lonlarining qo'llari, **na-faslari** tekkan kitoblari bor bunda.

Inson **qalbi** va **ongiga** hech narsa kitobchalik tarbiya va shukuh berolmaydi.

(Erkin Vohidovdan)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni yoddan yozing.

 **154- mashq.** *Ov, yo'l, zar, tuz* so'zlarining har biriga asosdosh so'z tanlang va yozing. Asosni namunadagidek belgilang. Shu so'zlarni qatnashtirib, gaplar tuzing.

Namuna: *ovchi, ovla.*

155- mashq. Tushirib qoldirilgan so'z qismlarini qo'yib, matni o'qing.

Bizning qishlog'imiz katta. Qishlog'imizda ...li bog' yaratilgan. ...bonlar yozda mevalarni shaharliklarga yetkazib beradilar.

Biz ham maktabimizda ...zor bog' yaratmoqchimiz. Shu maqsadda ...li daraxtlar o'tqazdik.

Ko'chiring. So'z asoslarini tegishlicha belgilang.

156- mashq. O'qing. Ko'chiring.

1. Bilimlining bilimi yuqar,
Bilimsizning nimasi yuqar?
2. Ishli odamning ishi bitadi,
Ishsiz odamning kuni o'tadi.

Asosdosh so'zlarning asoslarini tegishlicha belgilang.

 **157- mashq.** Topishmoqlarni o'qing. Javobini ayting.

Gulsiz bo'lar mevasi,  | Qat-qat **to'nli**, 
Shirin-shakar donasi.  | Qarich **bo'yli**.

Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning asosini belgilang. Shu so'zlarga asosdosh bo'lgan so'zlar toping. 



158- mashq. O'qing. Har qaysi ustundan asosdosh bo'lmagan so'zlarni toping.

ko'prik	yog'siz	tosh
ko'p	yog'li	toshqin
ko'pchilik	yog'la	toshloq
ko'plik	yog'och	toshdek

Asoslari umumiy bo'lgan so'zlarni ko'chiring. Ular qanday so'roqqa javob bo'ladi? Nimani bildiradi?

159- mashq. O'qing. Asosdosh so'zlarni toping. Ularni guruhlab yozing.



O'tlamoq, qadrdon, o'tloq, kuchli, fikrli, qadrli, mevazor, fikrla, qadrsiz, hunarli, kuchay, fikrdosh, mevali, kuchsiz, mevasiz.

 **160- mashq.** *Chiziq, chizg'ich, chiziqli* so'zlarining ma'nosini izohlang. Bu so'zlarning asosini belgilang. 

161- mashq. *Sut, odob, pul* so'zlariga asosdosh so'zlar tanlab yozing.

162- mashq. Tushirib qoldirilgan asoslarni toping va yozing. Asosdosh so'zlarning asoslari bir xil yozilishini esda tuting.

Ishladi, ...chan, ...siz; mevali, ...siz, ...zor; kuchli, ...siz; ta'sirli, ...chan.

 **163- mashq.** Asosdosh so'zlarga 2–3 ta misol yozing. 



SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

164- mashq. O'qing. So'zlarning umumiy qismlarini toping.

g'alla – g'allakor	vatan – vatandosh
baliq – baliqchi	soz – sozla
nur – nurli	tuz – tuzsiz



Ular nima uchun ma'no jihatdan farqlanyapti?




-chi, -la, -kor, -dosh, -li, -siz so'z yasovchi qo'shimchalardir. *Baliqchi – baliq* (asos), **-chi** (so'z yasovchi qo'shimcha), *sozla – soz* (asos), **-la** (so'z yasovchi qo'shimcha), *nurli – nur* (asos), **-li** (so'z yasovchi qo'shimcha), *g'allakor – g'alla* (asos), **-kor** (so'z yasovchi qo'shimcha), *vatandosh – vatan* (asos), **-dosh** (so'z yasovchi qo'shimcha), *tuzsiz – tuz* (asos), **-siz** (so'z yasovchi qo'shimcha).

Yangi ma'noli so'z hosil qiladigan so'z yasovchi qo'shimchalar (^) belgi bilan ko'rsatiladi: (^ – asos, ^ – yasovchi) *tunukachi*, *sozla*, *g'alla-kor*, *tuzsiz*.

165- mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chirib yozing, so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

1. **Hunarli** kishi xor bo'lmas. 2. Yaxshi bilan bo'lsang **yo'ldosh**, og'ir ishingga bo'lur **qo'ldosh**. 3. **O'ychi** o'ylaguncha, **tavakkalchi** ishini bitirar. 4. Savolni **javobsiz** qoldirma, do'stni **e'tiborsiz**.

 **166- mashq.** *Chegara*, *iz* so'zlariga **-chi**, **-dosh**, **-la**, **-siz** so'z yasovchi qo'shimchalarini qo'shib, so'zlar yasang. Asos va so'z yasovchi qo'shimchalarni namunada ko'rsatilgandek belgilang.

Namuna: *xabarchi*.

167- mashq. Nuqtalar o'rniga **-chi**, **-la**, **-siz**, **-li** so'z yasovchi qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Ilm.. bir yashar, ilm.. ming yashar. 2. Sinfimizda a'lo.. o'quvchilar ko'p. 3. Paroxod modelini ish..dik. 4. Baliq.. qushlar dengiz ustida uchadi.


168- mashq. Berilgan so'zlarga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan asosdosh so'zlar yasang va namunadagidek yozing.

Ko'z, ...,
Bosh, ...,
Muqova, ...,


Chegara, ...,
Bo'yoq, ...,
Tish, ...,

Namuna: *ko'z, ko'zla, ko'zsiz, ko'zli.*

Asos va so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

 **169- mashq.** Nuqtalar o'rniga **-chi, -la, -siz, -li** so'z yasovchi qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Dengiz.. uzoq safarga otlandi. 2. Dutor.. qizlar dutorni soz..dilar. 3. Quyosh.. O'zbekiston – meva.. bog'larga kon. 4. Do'mbira.. oldinda yo'l bosh..di. 5. Qo'l.., oyoq.. uy poylar.

Asos va so'z yasovchi qo'shimchalarni tegishlixa belgilang. 

170- mashq. Har bir so'zning asosini va so'z yasovchi qo'shimchasini toping.

Tuksiz, tuzla, baxtli, futbolchi, aqlli, oqla, mixla, baliqchi, tuzsiz, kuchli, ishla, hushsiz, mazali.

Avval **-chi**, so'ngra **-li**, keyin **-la** va oxirida **-siz** qo'shimchasi bilan yasalgan so'zlarni namunadagidek guruhlab yozing.

Namuna: *gul+chi kuch+li ish+la tuz+siz*

171- mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga, birinchi gapda berilganidek, mos so'zlarni topib qo'ying. Qo'ygan so'zlaringizdagi asos va qo'shimchalarni aniqlang.



Traktorda yer haydaydigan kishi – traktorchi.

Gullarni parvarish qiladigan kishi –

Bog'chada, kuni uzaytirilgan guruhda bolalarga qaraydigan xodima –

G'alla ekib, elni to'ydiruvchi dehqon –

Traktorchi, g'allakor so'zlariga asosdosh so'zlar yozing.

 **172- mashq.** Qayiq, intizom, bosh, danak soʻzlariga **-siz, -kor, -li, -la, -chi** soʻz yasovchi qoʻshimchalaridan mosini qoʻshib, yangi soʻz hosil qiling. Ular ishtirokida uchta gap tuzing. 

173- mashq. Oʻqing. Soʻz yasovchi qoʻshimchasi bir xil boʻlgan soʻzlarni guruhlab koʻchiring.


Bokschi, fikrdosh, fikrla, rasmsiz, partadosh, tayyorla, mashaqqatsiz, ashulachi, rasimli.



174- mashq. Maqollarni oʻqing. Mazmunini tushuntiring.

1. Odobli bola – elga manzur. 2. Suvsiz hayot boʻlmas. 3. Doʻsting bilan sirdosh boʻl, qilgan ishiga qoʻldosh boʻl. 4. Boʻzchi belbogʻga yolchimas.

Koʻchiring. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarni belgilang.

175- mashq. *Ish, suv* soʻzlariga oʻz qarshisidagi qoʻshimchalarni qoʻshib, yangi soʻzlar yasang va ularning maʼnolarini tushuntiring.



 **176- mashq.** Tarkibida soʻz yasovchi qoʻshimchasi boʻlgan ikkita soʻz toping. Ular ishtirokida gap tuzing. 

177- mashq. Oʻqing. Berilganlardan foydalanib, soʻzlar hosil qiling. **-chi, -kor, -la, -li** qaysi soʻzlarda soʻz yasayapti, qaysi soʻzlarda boʻgʻin hosil qilyapti?


boks		-chi		nor		koʻz		-la		gan
sholi		-kor		xona		rang		-li		mon

178- mashq. Matnni o'qing, unga sarlavha toping.

Bobomiz Alisher Navoiy bolalik chog'laridanoq hammaning e'tiboriga tushganlar. Eng avvalo, **odobli** bo'lganlar. Ko'p kitob o'qiganlar. Bobomizning talay misralari xalq maqoliga, hikmatli so'ziga aylanib ketgan: „Tilga **ixtiyorsiz** – elga **e'tiborsiz**“.

Navoiy bobomizning asarlarini o'qigan sari so'z sehrini teranroq tushuna boramiz.

Ajratib ko'rsatilgan gapni ko'chirib yozing. Gap tarkibidagi so'zlarning asos va qo'shimchalarini belgilang.

 **179- mashq.** Bir asosga **-li** va **-siz** qo'shimchalarini qo'shib, so'zlar yasang. So'zlarning ma'nosini izohlang.

Namuna: *Odobli – odobsiz, ...*



SO'ZLARNI O'ZARO BOG'LOVCHI QO'SHIMCHALAR

180- mashq. O'qing.

1. Odam mehnatda toblanadi. 2. Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq. 3. Mirishkor dehqon yerdan mehnatini ayamaydi. 4. Mehnatning qadrini bebaho bil. 5. Ko'kka boqma, ko'pga boq.

Mehnat so'zi qaysi so'z bilan bog'langanini so'roqlar yordamida aniqlab, yozing. Qo'shimchalarini namunadagidek belgilang.

Namuna: *Mehnatda (nimada?) toblanadi.*

181- mashq. O'qing. Matnda uchragan *ferma* so'zining o'zgarishiga e'tibor bering.

Har kuni men haydovchi tog'am bilan fermaga (*qayerga?*) **boraman**. Fermada (*qayerda?*) sigirlar **ko'p**. Fermaning (*nimaning?*) **ichi** keng. Sigirlar sut sog'ish mashinasi bilan sog'iladi. Fermadan (*qayerdan?*) **olingan** sut do'konlarga tarqatiladi.

Har bir gapdagi *ferma* so'zini va ajratib ko'rsatilgan so'zni namunadagidek yonma-yon yozing. *Ferma* so'zi tarkibidagi qo'shimchalarni tegishlicha belgilang.

Namuna: *Fermaga boraman, ...*

182- mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning bir-biri bilan bog'lanishini so'roqlar yordamida aniqlang va namunadagidek yozing.

Bir kuni bir ovchi **o'rmonga yo'l oldi**. Yo'lda **kiyikni uchratdi**. Kiyik ovchini ko'rishi bilan qocha boshladi. Shu yaqin atrofdagi **bog'ga** kirib **yashirindi**. Bog'ga kirgan ovchi uni topa olmay, qaytib ketmoqchi bo'ldi. Ovchining uzoqlashganini ko'rgan kiyik uzum **bargini yeya boshladi**. **Barglarning shitirlaganini** eshitgan ovchi orqaga qaytib, kiyikni tutib oldi. **Tuzoqqa tushgan** kiyik qilgan ishidan afsuslandi.

„Gulxan“dan

Namuna: (*qayerga?*) *yo'l oldi – o'rmonga*.

○ **-ning, -ni, -ga, -da, -dan** qo'shimchalari gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydi:

Dengizning to'lqini kemani tebratdi.

So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar () belgi bilan ko'rsatiladi.

 **183- mashq.** She'ni ifodali o'qing.

MIX

Ostonada yotardi
Bir mix qayrilib,
Yirtar edi **shippakni**
Yonidan ilib.

Ahmadjon bor **kuchini**
Berib **omburga**,
Umbaloq oshib tushdi
Mix bilan **yerga**.

G'iyos Komilov

She'ni yoddan yozing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni ayting. 

184- mashq. Nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni o'qing va ko'chiring.

Onam **bahor..** ipak qurti boqadi. Qurtlar tez katta bo'ladi. Men **maktab..** kelib, **onam..** yordamlashaman. **Qurtlar..** tut bargi beramiz. Qurtlar **barg..** shitir-shitir ovoz chiqarib yeyishadi. Qurtlar pilla o'raydi. Biz **pilla..** mo'l hosil olamiz.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi qo'shimchalarni aniqlang va tegishlicha belgilang. Shu so'zlarga so'roq bering.


185- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli harflarni qo'yib, matnни ko'chiring.

Tozalik – **sog'liqning** garovi! Biz buni yaxshi bilamiz. Shu boisdan **sin.imizni** i.los qilmaymiz, .olga qog'oz tashlamaymiz. **Tanaffusda derazalar-ning** .archasini ochib qo'yamiz. Sinfga toza havo kiradi. Toza **havodan** na.as olamiz.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi qo'shimchalarni belgilang. Bu qo'shimchalar qanday nomlanadi?

 **186- mashq.** O'qing. Ko'chirib yozing.

1. **Sportning** o'zingga yoqqan turi bilan yoshlikdan shug'ullan. 2. Yosh **shaxmatchi** Elbek „Mavsum chempioni“ **unvonini** oldi. 3. Muntazam jismoniy mashq qilish va ochiq **havoda** sayr qilish **foydali**. 4. Senga **tengdosh** Pomir-u oqsoch Tyanshon, o'zbekim. (*Erkin Vohidov*)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning asos va qo'shimchalarini tegishlicha belgilang. 

187- mashq. Nuqtalar o'rniga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, o'qing va ko'chiring.


Olmaxonlar daraxt kovagi ichida shoxchalar va barglar.. yasalgan dumaloq in.. yashaydilar. Ular yemish qidirib, daraxt shoxlari orasi.. sakrab yurishadi. Olmaxon.. dumi mayin, yumshoq va chiroyli bo'lib, ularning shoxma-shox sakrab yurishiga yordam beradi. Olmaxonlar.. asosiy yemishlari yong'oqlar, qo'ziqorinlar va o'simliklar.. yumshoq novdalaridir.

„Bilimdon“dan

188- mashq. Chizmaga mos so'zlar topib, birikma tarzida yozing. Birikmalarning ma'nosini izohlang.

tozaladi
eshigi
keldi
chiqdi

aylandi
o'rtasi
ketdi
keldi

 **189- mashq.** Nuqtalar o'rniga *Zilola* so'zini so'roqlarga mos holda o'zgartirib qo'ying, gaplarni o'qing va ko'chiring.

(*Kimning?*) ... shirintoy ukasi bor. (*Kim?*) ... ukasiga juda mehribon. Ukasi (*kimni?*) ... yaxshi ko'radi. U (*kimga?*) ... ergashadi. (*Kimdan?*) ... sira ajralgisi kelmaydi.

Har bir gapdagi *Zilola* so'zi tarkibida kelgan so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni tegishlicha belgilang. 

190- mashq. O'qing. So'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni topib, ularning farqini ayting.

Sutchidan, maktabga, sutchida, mazmunli, gulchining, qayg'usiz, yurakli, baliqchini, yordamchisiz, navbatchiga.

Ko'chiring. So'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni namunadagidek belgilang.


Namuna: *sutchidan*.

Qo'shimchalar asosga qay tartibda qo'shiladi?

191- mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan mosini qo'shib, gaplar tuzing.

1. **Sut**, ovqat, **foyda**, **kishi**.
2. Quyosh, **xona**, tushdi, **nur**.
3. **Suv**, sug'ordi, **g'o'za**, tunda.
4. Ozoda, **maktab**, **ko'cha**, yur.

Tuzgan gaplaringizni yozing. Gapda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qilgan so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.

 **192- mashq.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning asosini, so'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarini aniqlang.

1. **Shaftolizor bog'larni** ko'rdim. (H. O.) 2. **Maslahatsiz** ish – **o'rinsiz** tashvish. (Maqol) 3. Yomon **yo'ldoshdan** tayoq yaxshi. (Maqol) 4. **Yolg'onchini** ning rost so'zi ham yolg'on. (Maqol)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni yozing. Asos va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.

Namuna: *shaftolizor*.


193- mashq. O'qing. So'zlardan birikma hosil qiling va yozing.

kitob	-ning	ko'chirdi
eshik	-ni	nuri
quyosh	-ga	ketdi
maktab	-da	ishlaydi
kutubxona	-dan	taqillatdi

Yozgan birikmalaringiz ishtirokida 2 ta gap tuzing. Gap-larni yozib, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlang.

194- mashq. Chizmaga mos so'zlar topib yozing.

^ ^ ^ — ^ ^ —

 **195- mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing.

1. Sayohatchilar yo'l.. chiqdilar. 2. Oltin o't.. bilinar, odam mehnat.. bilinadi. (Maqol) 3. Komil.. akasi Asaka shahridagi zavod.. ishlaydi. 4. Bobom.. hikoyasi menga juda yoqdi.



 **196- mashq.** O'qing. Berilgan so'zlarga so'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni qo'shib yozing.

Tut, ot, bog', o't.

197- mashq. O'qing. Berilgan so'zlarni jadvalga joylashtirib yozing.

Doirachi, maysazor, tarbiyachiga, o'tloqda, temirchidan, sholikorni, mevasiz, sinfdoshda.

So'z	Asos	So'z yasovchi qo'shimcha	So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimcha
<i>doirachi</i>	<i>doira</i>	-chi	—

 **198- mashq.** -li, -siz, -la so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida so'zlar yasang. 

199- mashq. Ko'chiring. So'zlar ma'nosini izohlang.

Chizg'ich, chiziq, chizma, chiziqli, chizmach.

200- mashq. Berilgan so'zlarni so'z tarkibi yuzasidan tahlil qiling.

Sinfdosh, rasml, so'zla.

So'z tarkibini tahlil qilish tartibi:

1. So'zning asosini ko'rsatish. 2–3 ta asosdosh so'zlar topish.

2. Qo'shimchalarni aniqlash:


a) so'z yasovchi qo'shimcha;

b) so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimcha.

Namuna: *Men binokor bo'lmoqchiman.*

binokor, bino – asos, *binoli, binosiz* – asosdosh so'zlar, *-kor* – so'z yasovchi qo'shimcha.


Bilimingizni tekshiring.

1. So'z qanday qismlardan tashkil topadi?
2. Qanday so'zlar asosdosh so'zlar deyiladi?
3. So'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarning farqini ayting. Misollar yozing. 



SO‘Z TURKUMLARI

201- mashq. O‘qing. Avval shaxs-narsani, keyin belgini, so‘ngra sanoqni va undan keyin harakatni bildirgan so‘zlarni yozing. Ularga so‘roq bering.



Qish. Qor yog‘yapti. Kun sovuq. Keng dalalar, mevazor bog‘lar, baland tog‘lar oq choyshabga o‘ralgandek ko‘rinadi. Ikki bola maza qilib chana uchayapti. Uch-to‘rtta bola qordan katta Qorbobo yasashyapti.

Namuna:

Shaxs-narsani bildirgan so‘zlar: *qish*, ...,

Belgini bildirgan so‘zlar: *oq*, ...,

Sanoqni bildirgan so‘zlar: *ikki*, ...,

Harakatni bildirgan so‘zlar: *yog‘yapti*, ...,



Ot, sifat, son, fe‘l so‘z turkumlaridir.

202- mashq. O‘qing. So‘roqlar yordamida ot, sifat, son, fe‘llarni aniqlab, jadvalni to‘ldiring.

Oq, nur, beshta, ishchi, **chiroyli**, **soʻzladi**, toʻqson, ishchan, bajarmoqchi, oʻn ikki, dehqon, **quvnoq**, yaylov, **yuguryapti**, **katta**, bogʻlayapti, yettinchi, tayyorlamoqchi, yuzta.


Ot	Sifat	Son	Fe'l
Kim?, nima?	Qanday?, qanaqa?	Nechta?, qancha?	Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?, nima qilmoqchi?
<i>nur</i>	<i>oq</i>	<i>toʻqson</i>	<i>soʻzladi</i>

Ajratilgan soʻzlarga yaqin maʼnoli soʻzlar topib yozing.

 **203- mashq.** Matnni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga soʻroq bering. Maʼnolarini ayting.

Kun **sovidi**. Yerlar **muzladi**. Kechga yaqin qor yogʻdi. **Oppoq qor** hamma yoqni qopladi. Daraxtlar oq kiyim kiydi. Bolalar **qorboʻron** oʻynashga kirishdilar.

Matnni koʻchiring. Gap boʻlaklarini aniqlab, tagiga chizing.

 **204- mashq.** Oʻqing. Matnda ajratilgan soʻzlar mazmuniga koʻra nimani bildirib kelyapti? Ularni namunadagidek guruhlariga ajrating.

1-yanvar **bayram** sifatida keng **nishonlanadi**. Shu kuni hamma bir-birini **yangi** yil bilan tabriklaydi.

Yangi yilda idora-korxonalarda, **gavjum** maydonlarda va uylarda **archa bezatiladi**. **Bolalar** archa atrofida **qoʻshiq kuylaydilar**. **Qadrdon** Qorbobo archa bayramiga kelganlarga **sovgʻa** ulashadi.

Namuna:

Shaxs-narsalarni bildirgan soʻzlar: ...

Shaxs-narsa belgisini bildirgan soʻzlar: ...

Shaxs-narsa harakatini bildirgan soʻzlar: ...


Archa bayramini qanday oʻtkazganingiz haqida kichik hikoya tuzing va yozing.

205- mashq. Soʻzlarni oʻqing. Ularning har biriga soʻroq bering, qaysi soʻz turkumiga tegishligini ayting.

Ixcham, mahkam, erka, toʻgʻri, yaxshi, hoʻl, yangi, tekis, mayda, tabrik, kuy, baho.

Shu soʻzlardan **-la** qoʻshimchasi yordamida soʻzlar hosil qiling. Namunadagidek yozing va belgilang. Bular qanday mazmunni bildiradi va qaysi soʻz turkumiga kiradi?

Namuna: *ixcham – ixchamla.*

 **206- mashq.** Sheʼni ifodali oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga soʻroq bering. Ular qaysi soʻz turkumiga tegishli ekanini qavs ichida yozib qoʻying.

Bir kun senga **yangi** bir **olam** –
Fan gulzori **eshik ochadi.**

Mana **maktab,**
Daftar va **qalam**

Kelgusingga nurlar **sochadi.**



Zafar Diyor

207- mashq. Oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga soʻroq bering va qaysi soʻz turkumiga tegishligini aniqlang.

Devor tagida hurpayib turgan mushuk bolasi-ga qarab bir **kuchuk** hurar edi. **Mushuk** bolasi qoʻrqqanidan gʻujanak boʻlib olgandi. Maktabdan qaytayotgan **ikki bola** buni tomosha qilib

turishardi. Uyining oynasidan buni ko'rib turgan bir **ayol** chiqib, itni haydab yubordi va bolalarga qarab:

– Uyat emasmi? – dedi.

– Nega uyat bo'ladi? Biz hech narsa qilganimiz yo'q, – deyishdi bolalar.

Ayol bolalarni nega uyaltirdi? Fikringizni yozing.

208- mashq. O'qing. Birinchi ustundagi so'zlarga **-chi**, ikkinchi ustundagi so'zlarga **-li** qo'shimchalarini qo'shib, yangi so'zlar yasang. Ularning qanday so'roqlarga javob bo'lishini va qaysi so'z turkumiga kirishini ayting.

sut – *sutchi*

hashar – ...



bo'yoq – ...

nur – *nurli*

ishonch – ...

intizom – ...

Yasagan so'zlaringizni yozib, asos va so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

 **209- mashq.** *Vatan, go'zal, yashamoq* so'zlari ishtirokida 3–4 gapdan iborat matn yozing. 



OT

210- mashq. Matnni o'qing.

Un, guruch, non, yog', shakar, qand, makaron va boshqa shu kabi mahsulotlar oziq-ovqat do'konlarida sotiladi.

Dehqon bozorlaridan yil bo'yi piyoz, kartoshka, karam, sabzi kabi sabzavotlarni, shuningdek, olma, olxo'ri, tog'olcha, uzum, nok, behi, anor kabi mevalarni xarid qilish mumkin.

Bu mahsulotlar kishilar tomonidan iste'mol qilinadi. Ular tarkibida inson salomatligi uchun zarur darmondorilar bor.

Matn necha qismdan iborat? Birinchi qismda nimalar haqida gapirilgan? Ikkinchi qismda-chi?

Matndagi *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan sabzavot va meva nomlarini ko'chirib yozing.

211- mashq. O'qing. So'zlarga so'roq bering.

Televizor, bola, kitob, o'quvchi, parta, doska, chegarachi, javon, daftar, ishchi, ruchka, eshik, qalam, shifokor.


So'zlarni namunadagidek yozing.

Namuna: Shaxslar: *kim? bola, ...*

Narsalar: *nima? kitob, ...*



Shaxs va narsa nomini bildirib, *kim?* yoki *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar **ot** deyiladi. *Cho'pon, stol, chaqmoq, o'rdak, randa, binokor, to'zon, quvur* kabi so'zlar otlardir.

 **212- mashq.** O'qing. Ular qaysi so'z turkumi ekanini ayting. Har bir so'z guruhiga o'zingiz yana ikkitadan so'z qo'shing.

Shaxslar: *kim? cho'pon, bo'yoqchi, ...*

O'simlik: *nima? paxta, bug'doy, ...*

Hayvonlar: *nima? sigir, qo'y, ...*

Qushlar: *nima? chumchuq, sa'va, ...*

Ish qurollari: *nima? randa, tesha, ...*




213- mashq. O'qing. Har bir so'zga so'roq bering. Ularning qaysi so'z turkumiga oid ekanini ayting.

Soatsoz, yomg'ir, odam, avtobus, bo'ron, bola, shamol, tikuvchi, poyezd, ota, shifokor, farzand, metro, kutubxonachi, zilzila.

So'zlarni quyidagi guruhlarga ajratib yozing:

1. Shaxslarni bildiruvchi otlar: *odam*, ...
2. Kishilarning kasbini bildiruvchi otlar: *to'quvchi*, ...
3. Transport vositalarini bildiruvchi otlar: *avtobus*, ...
4. Tabiat hodisalarini bildiruvchi otlar: *yomg'ir*, ...

 Shaxs nomini bildirgan otlar *kim?* so'rog'iga javob bo'ladi. Narsalar nomini (hayvonlarni, turli hodisalarni) bildirgan otlar *nima?* so'rog'iga javob bo'ladi.

214- mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.


1. **Quyosh** chiqdi. 2. **Tovuq** qo'noqdan tushdi. 3. **Ishchi** zavodga ketdi. 4. **Dehqon** dalada ishlayapti. 5. **Bobom** ko'chat ekdi. 6. **Sharif** maktabga boradi.

Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ustiga so'rog'ini namunadagidek yozib qo'ying.

nima?

kim?

Namuna: *Quyosh* chiqdi. | *Ishchi* zavodga ketdi.

 **215- mashq.** Ko'chiring. Otlarni topib, qaysi bo'lak vazifasida kelganligini aniqlang. Tagiga tegishlicha chizing.

Rasm chizishga qattiq qiziqib qoldim. Maktabdan chiqaman-u to'garakka chopaman. Men kelajakda, albatta, rassom bo'lmoqchiman. Oyim bilan dadam ham rozi bo'ldilar.



216- mashq. O'qing. Otlarni aniqlang. Avval kim?, keyin nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni ko'chiring.

Ra'no deydi: – Yurtni yashnatgan ko'klam,
Yoz, kuzimiz qanday chiroyli, ko'rkam.

Asom deydi: – Quyosh, oy-u yulduzlar!

Olim deydi: – Odam, jonivor, daraxtlar!

Dono deydi: – Daryo, dengiz, qir, tog'lar!

Omon deydi: – Yerdan chiqar gaz, konlar!

Zamon deydi: – Osmon, dengiz, o'rmonlar!

Quddus Muhammadiy

217- mashq. O'qing.

Qalam, chizg'ich, o'quvchi, daftar, ko'mir,
o'chirg'ich, suvchi, soat, rasm, dehqon, g'isht.

Otlarni quyidagi tartibda yozing:

Shaxslar: kim? *o'quvchi*, ...

Narsa nomlari: nima? *ko'mir*, ...

O'quv qurollari nomlari: nima? *qalam*, ...

 **218- mashq.** O'qing. Avval kim? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni, keyin nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni ko'chirib yozing.

Qo'yni qo'shib podaga,

Ayri minib xodaga

Sanjar, Alisher

Bahslashar:

– In solishda qarqunoq

Chumchuq, chittakdan no'noq.

Nor tog'amning so'zicha

Eng dangasa musicha.

– Yo'q. Qarqunoq.

- Yo‘q. Musicha.
- Sen bilmaysan,
O‘yla picha.

Tursunboy Adashboyev



219- mashq. O‘qing. So‘zlarning har biriga so‘roq bering. Ular qaysi so‘z turkumiga oid ekanini ayting.

Behi, bug‘doy, mosh, binafsha, olxo‘ri, shaftoli, loviya, uzum, olma, jo‘xori, lola, chuchmoma, anjir, gulsapsar.

So‘zlarni quyidagi guruhlarga ajratib yozing:

Gullar: ...

Mevalar: ...

Donlar: ...

220- mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga har bir qatordagi otlarning umumiy nomini bildiradigan so‘zlarni qo‘yib yozing.


Choynak, piyola, stakan – ...

Choy, qand, sariyog‘ – ...

Ruchka, qalam, chizg‘ich – ...

Do‘ppi, palto, ko‘ylak – ...

Foydalanish uchun so‘zlar: o‘quv qurollari, idishlar, kiyimlar, oziq-ovqatlar.

 **221- mashq.** O‘qing. She‘rdan oziq-ovqat nomlarini bildirgan otlarni ko‘chiring.

BUG‘DOYJONIM

Bug‘doydan bo‘lar

No‘xatli shirmon.

Norin, shilpildoq,

Manti va lag‘mon.

Tinch bo‘lsin olam,

Bor bo‘lsin dehqon.

To‘xtab qolmasin

Hech bir tegirmon.

Anvar Obidjon



222- mashq. Rasmlarni ko'ring, so'roqlarga javob bering.

Bu kim?

Bu nima?



Rasmda tasvirlangan shaxs va narsaning nomini yozing. Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring. Shu otlarni qatnashtirib, og'zaki gaplar tuzing.

223- mashq. O'qing. Mazmunini so'zlang.

JO'JALAR

Sobirning **tovug'i** jo'jalarini ertadan kechgacha ergashtirib yuradi. Yerdan bitta **don** topsa ham darrov „chirq-chirq“ deb jo'jalarini **chaqiradi**. Buni kuzatib yurgan **Sobir** bir kuni buvisidan **so'radi**:


– Buvi, nega tovuqlar **yer** titadi?

Buvisi shunday javob berdi:

– Parrandalarning yemishi yer bilan-da, bolam. Shuning uchun tovuq jo'jalariga yer titishni, mehnat qilib, **ovqat** topishni **o'rgatadi**.

Musharraf Zayniddinova

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering, ularning qaysi so'z turkumiga kirishini ayting.

 **224- mashq.** Kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlarga beshtadan so'z toping va yozing.




225- mashq. She'ni o'qing. Hayvon va parranda nomlarini bildirgan otlarni topib yozing.

Ana sichqon, mushukvoy,
Ana xo'roz, kuchukvoy,
Ana mug'ambir tulki,
Ana o'rdak bilan g'oz,
Ana maymun – sho'x dorboz.
Xo'roz qichqirar: quq-qu!
Bunda yo'lbars, sher yo'q-ku!


Quddus Muhammadiy

Namuna: *sichqon, ...*

226- mashq. Katakchalar o'rniga mos harflarni qo'yib yozing. Kim?, nima? so'rog'iga javob bo'ladigan otlarni aniqlang.



1. Poliz ekini.
2. Bog'da ishlovchi kishi.
3. Qiz bolalar ismi.
4. Cholg'u asbobi.
5. O'quv quroli.
6. Meva.
7. Kuy bastalovchi.

 **227- mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, maqollarni ko'chirib yozing.

1. ... ochiq bo'lsa ham so'rab kir. 2. Har ... uyasiga qarab uchar. 3. Yaxshi ... jon ozig'i, yomon ... bosh qozig'i. 4. ... yaprog'i bilan, ... odobi bilan go'zal. 5. Maqtanma ..., hunaring oz. 6. ... chamanni sevar, odam – Vatanni!

Foydalanish uchun so'zlar: *bulbul, so'z, eshik, inson, qush, g'oz, daraxt.*



228- mashq. Maktab xodimlarini, o'quv quollarini, mevali va mevasiz daraxtlarni, tabiat hodisalarini bildirgan otlarga misollar topib yozing.

Maktab xodimlari: kim? – ...

Mehnat quollari: nima? – ...

Mevali daraxtlar: nima? – ...

Mevasiz daraxtlar: nima? – ...

229- mashq. O'qing. Rasm asosida matn tuzing va yozing. Bunda muomala odobiga oid quyidagi so'zlardan foydalaning.




Assalomu alaykum,
kechirasiz, rahmat,
iltimos, mumkin bo'lsa,
xayr, sog' bo'ling



Tuzgan matningizdagi otlarni toping.

Qaysi otlarga *kim?*, qaysilariga *nima?* so'rog'i beriladi?

 **230- mashq.** Darslikdagi lug'atdan beshta kim? so'rog'iga, beshta nima? so'rog'iga javob bo'lgan ot tanlab yozing.



OTLARDA BIRLIK VA KO'PLIK

231- mashq. Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga savol bering.

1. **O'quvchi** topshiriqni to'g'ri bajardi.
2. **O'quvchilar** sayohatga tayyorgarlik ko'rdilar.
3. **Bulbullar** gulzorda sayraydi.
4. **Bulbul** qafasda yashay olmaydi.
5. **Qaldirg'ochlar** ilk

bahorda uchib keladi. 6. Ayvonga **qaldirg'och** uya qurdi.

Bir shaxs va narsani bildirgan otlar bilan birdan ortiq shaxs va narsani bildirgan otlarni aniqlang. Ularni namunada ko'rsatilganidek ikki ustunga ajratib yozing.

Bir shaxs-narsani bildirgan ot birlikdagi ot, birdan ortiq shaxs-narsani bildirgan ot ko'plikdagi ot ekanini esda tuting.

Namuna:

Birlikdagi otlar
o'quvchi

Ko'plikdagi otlar
o'quvchilar



Otlar birlik shaklida (*o'quvchi, bulbul*) va ko'plik shaklida (*o'quvchilar, bulbullar*) qo'llanadi.

Birlikdagi otlar *kim?* yoki *nima?* so'rog'iga, ko'plikdagi otlar *kimlar?* yoki *nimalar?* so'rog'iga javob bo'ladi.

-lar qo'shimchasi birlikdagi otdan ko'plikdagi otni hosil qiladi.

232- mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlardan ko'plikdagi otlarni hosil qiling. Ularni namunadagidek ikki ustun shaklida yozing.

Bog' yashnaydi

Bog'bon bilan.

Dala yashnaydi

Dehqon bilan.

Uy yashnaydi

Bola bilan.

Tog' yashnaydi

Lola bilan.

Usmon Qurbonov


Namuna:

Birlikdagi otlar:
bog'

Ko'plikdagi otlar:
bog'lar



233- mashq. Boshqotirmani yeching.



1. O'quv quroli.
2. Yovvoyi hayvon.
3. Tabiat hodisasi.
4. Sudralib yuruvchi hayvon.

Ko'plik qo'shimchasini qo'shish mumkin bo'lgan so'zlarni ko'plik shaklida yozing.



234- mashq. Berilgan xat namunasini o'qing.

QADRLI DUGONAM ZAMIRA!

Xatingga javob yozyapman. O'qishlarim yaxshi. Ona tili, matematika fanlaridan „besh“ bahoga o'qiyapman.

Biz bolalar bog'chasiga Yangi yil bayrami uchun archa o'yinchoqlari yasab berdik. Endi stol ustiga qo'yib o'ynaladigan teatr uchun kartondan narsalar tayyorlamoqdamiz. Tarbiyachilar va bog'chadagi bolalar bizdan juda xursand. Ayrim kunlari bog'chaga borib, bolalarga turli o'yinlar o'rgatamiz.

Zamira, sog'lig'ing, o'qishing va to'garakdagi ishlaring haqida xat yoz, kutaman.

Xayr, sog' bo'li! Salom bilan dugonang Nazira.

O'z o'qishingiz va ishlaringiz haqida o'rtog'ingiz yoki yaqin kishingizga xat yozing.

235- mashq. Rasmda tasvirlangan narsalar nomini ayting. Ulardan ko'plikdagi otlarni hosil qilib yozing.



? Barcha otlar ko'plik qo'shimchasini oladimi?

🏠 236- mashq. Birlik va ko'plikdagi otlarni aniqlang.

Biz o'qiyotgan maktab katta. Sinflar keng va yorug'. Har bir sinfda o'qituvchi uchun stol, stul bor. Sinfda partalar ikki qator qilib qo'yilgan. Bu partalarda o'quvchilar o'tiradilar. Javonda o'quv qurollari: daftarlar, kitoblar, ruchkalar, har xil qalamlar saqlanadi.

Birlikdagi otlarni bir ustunga, ko'plikdagi otlarni ikkinchi ustunga ko'chiring. Ko'plik qo'shimchasining tagiga chizing.



237- mashq. O'qing. Ko'plikdagi otlarning aytilishi va yozilishiga diqqat qiling. Ko'plikdagi otlarni birlik shaklida yozing. Birlikdagi otlardan qatnashtirib, uchta gap tuzing.

Kitoblar, chizg'ichlar, qalamlar, uylar, ko'chalar, idoralar, bog'lar, polizlar, daryolar, ko'llar.

🎯 Ot tarkibida kelgan **-lar** qo'shimchasi so'zlashuvda ba'zan **-la** tarzida aytiladi, ammo doim **-lar** yoziladi.


238- mashq. O'qing. Otlarni aniqlang. Avval birlikdagi otlarni, so'ngra ko'plikdagi otlarni yozing.

ISTIROHAT BOG'I

Biz yashaydigan tumanda yangi istirohat bog'i ochildi. Istirohat bog'ida kutubxona, choyxona, kinoteatr bor. Istirohat bog'idagi ko'lga eshkakli va motorli qayiqlar tushirildi. U yerda bolalar uchun tennis, voleybol maydonchalari ham bor. Istirohat bog'iga chiroyli gullar, manzarali daraxtlar o'tqazilgan. Istirohat bog'ida ishchilar, dehqonlar, yoshlar rohatlanib dam oladilar.

Sizning yaqiningizdagi istirohat bog'ida nimalar bor? O'sha istirohat bog'i haqida bilganlaringizni so'zlab bering.

 **239- mashq.** Birlikdagi otlardan ko'plikdagi otlar hosil qilib yozing. Ularning talaffuzi va yozilishiga diqqat qiling.

Ishchi, dehqon, binokor, lift, qiz, singil, kaptar, o'rdak, paxta, tarvuz, olma, kartoshka, bodring, lavlagi, terimchi. 

240- mashq. Rasmni diqqat bilan kuzating. Savollarga javob bering va javobingiz asosida hikoya tuzing.



Dehqonlar issiqxonaga nimalar ekkanlar? Dehqon va o'quvchilar nima qilishyapti?

Tuzgan hikoyangizga sarlavha toping va yozing.

Foydalanish uchun soʻzlar: issiqxona, pomidor, bodring, tuproqni yumshatishyapti, pomidor terishyapti, suv quyishyapti, moʻl hosil, shaharga joʻnatiladi.

241- mashq. Matnni oʻqing. Unga sarlavha toping.

Qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz quyosh, oy va yulduzlarning samodagi joylashuviga qarab vaqtni aniqlaganlar.

Biroq havo bulutli paytlarda buning iloji boʻlmagan. Shu bois kompasning ixtiro qilinishi muhim kashfiyot boʻlgan.

Kompasni qaysi tomonga aylantirsangiz ham, uning magnit koʻrsatkichi shimolga qarab turadi.

„Bilimdon“dan

Matndagi birlikda va koʻplikda qoʻllangan otlarni aniqlab, ularni ikki ustun qilib yozing.

Birinchi gapdagi bosh boʻlaklarni aniqlang.


 **242- mashq.** Matnni oʻqing. Birlik va koʻplikdagi otlarni aniqlang. Ertakni davom ettiring va yozing.

Qadim zamonda Bobotogʻ yonbagʻrida katta oʻrmon bor ekan. Oʻrmonda ayiqvoy, quyonvoy, qargʻavoy yashar ekan. Kunlarning birida koʻm-koʻk maysalar ustida yotgan ayiqvoy shitirlagan ovozni eshitibdi. Asta borib qarasa, kichkina bir quyon oppoq qogʻozga nimalarnidir yozayotgan emish...

„Bilimdon“dan



243- mashq. Rasmni diqqat bilan kuzating. Rasm va koʻrganlaringiz asosida „Chimyonda“ mavzusida matn tuzing.



244- mashq. Berilgan soʻzlardan koʻplikdagi otlarni hosil qiling va yozing.

Tuxum, buloq, metall, medal, darvoza, qoʻrgʻon.

 **245- mashq.** Berilgan soʻzlarga koʻplik va soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalarni qoʻshib yozing.

Mashq, koʻylak, chiroq, hodisa, ertak, butoq.




OT YASOVCHI QOʻSHIMCHALAR

246- mashq. Oʻqing. Ajratilgan soʻzlarni qismlarga ajratib, asos va qoʻshimchalarni aniqlang.

1. **Havaskor qoʻshiqchi** quvnoq ohangda kuy-ladi. 2. **Temirchining** qoʻlida temir yogʻday eriy-di. 3. Yomgʻir **gulzor** husnini ochdi.


Soʻz asosini bir ustunga, soʻz yasovchi qoʻshimchani olgan otni ikkinchi ustunga yozing va ularning maʼnosidagi farqqa eʼtibor bering.

Namuna: havas havaskor

 **-chi, -kor, -dosh, -zor, -loq** qo'shimchalari so'z asosiga qo'shilib ot yasaydi. **-chi, -kor, -dosh** qo'shimchalari shaxs ma'nosini, **-zor, -loq** qo'shimchalari o'rin-joy ma'nosini bildirgan otlar yasaydi: *navbat – navbatchi, suhbat – suhbatdosh, olma – olmazor, tosh – toshloq.*

247- mashq. Yozing. Ot yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

1. O'yinchi, surnaychi, betonchi, kutubxonachi.
2. Binokor, bastakor, paxtakor, pillakor.
3. Chamanzor, bug'doyzor, yong'oqzor.
4. O'tloq, toshloq.

 **248- mashq.** Matnni o'qing. So'z yasovchi qo'shimchalardan yordamida hosil bo'lgan otlarni aniqlang va ko'chiring.

1. Lolazorga aylanar
Sohil erta bahordan.
2. Yuk tashuvchi ishchilar,
Dengizchilar yig'ildi.
Barcha ko'zlar begunoh
Baliqchiga tikildi.
3. Mening otam omilkor,
Juda mohir paxtakor.

Ot yasovchi qo'shimchalarni namunadagidek belgilang.

Namuna: Lolazorga,



249- mashq. Berilgan otlarga ot yasovchi **-chi, -kor, -dosh, -zor, -loq** qo'shimchalaridan mosini qo'shib, otlar hosil qiling.

Ijod, pardoz, g'alla, tosh, archa, atlas, chaman, suvoq, qum, zamon, o't, tadbir, meva.

Otlarni yonma-yon yozing va ot yasovchilarni tegishli belgilang.

Hosil qilgan otlaringiz ishtirokida ikkita gap tuzing. Gaplarning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini ko'rsating.

250- mashq. O'zingiz ot yasovchi **-chi, -kor, -dosh, -zor** qo'shimchalari yordamida shaxs ma'nosini va o'rinjoy ma'nosini bildirgan otlar hosil qiling va yozing. Bu mashqni bajarishda lug'atdan foydalaning.

 **251- mashq.** Nuqtalar o'rniga ot yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, so'zlarni o'qing va yozing.

Sayohat..., sholi..., sinf..., futbol..., maysa..., shaxmat..., g'alla..., fikr..., o't..., meva..., shifo..., gul...

Yozgan so'zlaringiz ishtirokida 3 ta gap tuzing va yozing.



252- mashq. O'qing. Hikoyani qismlarga ajrating.

BIZ BIR OILAMIZ

Taniqli haykaltarosh Gulsara Rajabova iqtidorli bolalar uchun ijodiyot uyi tashkil qildi. Unda bolalar rassomlik, dizayn, tikuvchilik, zargarlik, kulolchilik, o'ymakorlik, kashtachilik kabi to'garaklarda nafis san'at turlarini o'rganadilar. Bu markazni nafaqat maktab, balki haqiqiy oila yashab ijod qiladigan xonadon desa ham bo'ladi. Chunki bu yerda bolalar o'z yaqinlari bilan hovlilarni supurib, mevalarni terib, birga baham ko'rishadi. Gulsara opaning bolajonlari Meksika,



Gretsiya, Fransiya, Hindiston, Rossiya, Ispaniya, Misr kabi davlatlardagi ko'rgazmalarda qatnashganlar.

Davlat nomlarini bildiruvchi otlarni ko'chirib yozing. Bu otlarni ko'plikda qo'llab bo'ladimi?

253- mashq. O'qing. Berilgan so'zlarga mos qo'shimchalarni qo'shib yozing.

beda	-kor
qum	-chi
zamon	-loq
pilla	-dosh
ittifoq	-zor

Yozgan so'zlaringizning qaysilariga ko'plik qo'shimchasini qo'shish mumkin?

 **254- mashq.** Tarkibida **-chi**, **-dosh**, **-kor** qo'shimchasi bo'lgan otlarga 3–4 ta gap yozing. 

 **255- mashq.** Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni o'qing.

- ... ekinlarni sug'oradi.
- ... pilladan mo'l hosil yetishtirdi.
- ... oralab ketdik.
- ... yerlar tozalandi.
- ... Buxoro shahriga bordilar.

Gaplarni ko'chirib yozing. Nuqtalar o'rniga qo'ygan so'zlaringiz tarkibida qanday qo'shimchalar borligini ko'rsating.

256- mashq. Berilgan reja va matn asosida bayon yozing.



Hazilkash ayiqpolvon
O'ynamoqchi qorbo'ron.
Ko'zi tushib quyonga,
Oldi uni nishonga.
Zo'r koptok yasab qordan,
Quyvon ham otdi birdan.
Zarbdan daraxt tebrandi,
Ayi qorga belandi.

Reja:

1. Ayiqpolvon nima qilmoqchi?
2. U nimani nishonga oldi?
3. Quyvon nima qildi?
4. Ayiq nima uchun qor tagida qoldi?

Bilimingizni tekshiring.

1. Qanday so'zlar ot deyiladi?
2. Otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Qaysi otlar *kim?* so'rog'iga, qaysi otlar *nima?* so'rog'iga javob bo'ladi? Misollar yozing.
4. Birlikdagi otlar qanday so'roqqa javob bo'ladi? Ko'plikdagi otlar-chi? Bu otlar bir-biridan qanday farqlanadi? Ularga misollar keltiring.

5. Qaysi soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida otlar hosil qilinadi?

6. Qanday otlar bosh (katta) harf bilan yoziladi? Misollar yozing.



SIFAT

257- mashq. Oʻqing.

Havo ochiq. Bugun **goʻzal** tabiat yanada koʻrkamlashgan. Erta tongdan quyosh nur sochmoqda. Koʻcha va hovlilardagi **oq, sariq, qizil** gullar quyosh nurida tovlanadi. **Mayin** shamol xushboʻy hid taratadi. Qushlarning **yoqimli** ovozi kishiga zavq bagʻishlaydi. Bahor, qanday **koʻrkam** faslsan!

Narsa-buyum belgisini bildirgan soʻzlarni aniqlang va ularni oʻzi bogʻlanib kelgan ot bilan birgalikda koʻchiring.


Namuna: (qanday?) *koʻrkam fasl.*

Shaxs-narsa belgisini bildirgan soʻz **sifat** deyiladi. Sifatlar *qanday?* yoki *qanaqa?* soʻrogʻiga javob boʻladi. Sifatlar gapda otlarga bogʻlanib keladi: *zangori osmon, mevali bogʻ, koʻrkam bino.*

258- mashq. Ifodali oʻqing. Sifatlarni aniqlang, ularni oʻzi bogʻlanib kelgan ot bilan birgalikda koʻchiring.

Qorli togʻlar, keng vodiylar,
Boshqachadir kumush dalalar.
Yashil bogʻlar, keng daryolar,
Yasangandir bugun oʻzgacha.

Sifatlarni tushirib qoldirib oʻqing. Qanday oʻzgarish boʻldi?

 **259- mashq.** So'roqlar o'rniga mos sifatlar toping. Ularni otlar bilan birga birinchi qatordagidek yozing.

qanday *yung?* – *yumshoq yung*

qanday *tosh?* – ... *tosh*

qanaqa *qalam?* – ... *qalam*

qanday *shamol?* – ... *shamol*

qanday *dala?* – ... *dala*

Foydalanish uchun so'zlar: *qora, katta, keng, mayin.*



260- mashq. Matnni o'qing, sifatlarni aniqlang.

Men chaqirsam kishnab keling,

Uyurlardan chopib keling,

Jajji, quvnoq toychalarim,

Yo'rg'a, o'ynoq toychalarim.

Mana sizga ko'm-ko'k o'tloq,

Ko'zi munchoq toychalarim.

Ro'zimat Doliyev

Shoir toychani qaysi sifatlar orqali tavsiflab bergan? O'sha so'zlarni ko'chirib yozing.

261- mashq. Otlarga xos belgi – rang-tus, shakl va hajmni bildirgan sifatlardan har biriga ikkitadan so'z toping, ular otlar bilan yonma-yon kelgan bo'lsin.

Namuna: *qizil qalam, baland minora, bepoyon dala.*

 **262- mashq.** O'qing. Sifatlarni topib, ularga so'roq bering.

Uzoqdan boshiga oq do'ppisini kiygan, viqorli tog'lar ko'rinadi. Uning cho'qqilari ko'm-ko'k osmon bilan tutashib ketgan. Ko'kdagi oppoq

bulutlar tog'larga yanada ko'rkamlik baxsh etmoqda. Sharqdan ko'tarilayotgan quyosh o'z nurlari bilan uning salobatini yanada oshirmoqda.

Ko'chiring, sifatlarning tagiga to'lqinli, shu sifatlarni bog'lanib kelgan otlarning tagiga to'g'ri chiziq chizing.

Namuna: ko'm-ko'k osmon

 **263- mashq.** Otlarga xos belgini bildirgan sifatlarni tanlab, birgalikda yozing.


(To'g'ri, halol) mehnat, yo'l; (shirin, mazali) ovqat, qovun; (ko'm-ko'k, yashil) o'tloq, osmon; (g'ayratli, serharakat) ko'cha, bola; (katta, hashamatli) imorat, kema; (quvnoq, xushchaqchaq) ashula, qizcha.

Tuzgan birikmalaringiz asosida ikkita gap tuzing va yozing. Tuzgan gaplaringizdagi bosh bo'laklarni aniqlang.

264- mashq. Nuqtalar o'rniga sifatlarga mos otlar qo'yib, ularni birgalikda ko'chiring. Sifatlarga so'roq bering.

Tor ... , keng ... , baland ... , nordon ... , qora ... , oq ... , past ... , shirin

Foydalanish uchun so'zlar: yo'l, ko'cha, uy, devor, behi, nok, qalam, qog'oz.

 **265- mashq.** O'qing. Sifatlarga so'roq bering.

Bir tomoni keng o'tloq,
Bir tomoni qorli tog'.
Go'zal va nurli makon,
Mening aziz qishlog'im.

Safar Barnoyev 

Yozing. Sifatlarni aniqlab, tagiga to'lqinli chiziq chizing.

266- mashq. O'qing. So'roqlar o'rniga otlarga mos sifatlar topib, birinchi qatordagidek qilib ko'chiring.

qanday *qatiq?* – *quyuq qatiq*
qanaqa *osmon?* –
qanday *tog'?* –
qanday *uy?* –
qanaqa *ayiq?* –


Foydalanish uchun so'zlar: *tiniq, oq, baland, katta.*

267- mashq. O'qing. Sifatlarni aniqlang. Sifatlarni o'zi bog'lanib kelgan ot bilan birgalikda ayting.

KAPALAKLAR

Bahor kunlari edi. Saxiy quyosh olamga nur sochmoqda. Chamanzorda har xil kapalaklar uchib o'ynaydi. Gul, chechaklarga qo'nib, ularning shirasidan oziqlanadi.

Mana, oq gulga oq kapalak, qizil gulga ola-bula kapalak, sariq gulga sariq kapalak qo'ndi. Uzoqdan bir qushcha uchib keldi. U qizil guldagi ola-bula kapalakni ko'rib, uni osongina tutib oldi.

 **268- mashq.** O'qing. Berilgan sifatlar qanday otlarga xos belgi bo'lishi mumkin. Shu otlarni topib, nuqtalar o'rniga yozing.

Keng, katta, chuqur ...; ko'm-ko'k, sershox ...; oppoq, qalin, yumshoq ...; tiniq, sof, salqin ...; yam-yashil, bepoyon

Foydalanish uchun so'zlar: *qor, daryo, havo, o'rmon, daraxt, suv.*





SIFAT YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

269- mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bir-biri bilan qiyoslang.

1. Birlashgan **kuch** yengilmas. 2. **Kuchli** shamol daraxtlarni qattiq silkitdi. 3. „Ha“ degan tuyaga **mador**. 4. Bir qo'zg'alib **madorsiz** shamol, yaproqlarni yelpidi xushhol. (*Uyg'un*) 5. Dovul keli-shidan **xabardor** cho'pon qo'ylarni qo'raga qamadi. 6. **Xabar** keldi aytganingiz bo'lsin deb.

Asosi bir xil so'zlarni yonma-yon yozing, so'z yasovchi qo'shimchalarni tegishlicha belgilang. Asosdosh so'zlarni bir-biri bilan qiyoslab, ularning ma'no jihatdan farqiga e'tibor bering.

270- mashq. O'qing. **-li, -dor, -siz** so'z yasovchilari yordamida hosil bo'lgan sifatlarni aniqlang va ko'chiring.

1. Rejasiz ish – qolipsiz g'isht.
2. Bobomlar meni esli, hushli bo'tam derlar.
3. Zarbdor mehnat qaynar
Bahor, yoz, kuz va qishda.
4. Bahor chog'i bog'imda
Turli gullar kulgandi.
Atrof uning yoqimli
Hidi bilan to'lgandi.

Ilyos Muslim



So'z asosiga so'z yasovchi **-li, -siz, -dor** qo'shimchalarining qo'shilishi bilan sifat hosil qilinadi: *kuch – kuchli shamol; mador – madorsiz bemor; xabar – xabardor cho'pon.*

 **271-mashq.** Otlardan sifatlar hosil qiling, soʻz yasovchi qoʻshimchalarni namunada koʻrsatilgandek belgilang.

Namuna:

<i>mehr</i> – <i>mehrli</i> ,	<i>suv</i> – <i>suvsiz</i> ,	<i>pul</i> – <i>puldor</i>
maza –	nur –	rang –
shira –	tuz –	qarz –
yogʻ –	sifat –	hosil –

Shu sifatlardan qatnashtirib 3–4 ta gap tuzing. 

272-mashq. Nuqtalar oʻrniga gap mazmuniga mos sifat yasovchi qoʻshimchalarni qoʻyib oʻqing.

1. Gʻubor.. osmonda yulduzlar yana ham yorqin edi. 2. Jussa.. bola vazmin toshlarni qiynalmay koʻtarardi. 3. Jimjima.., naqsh.. ayvon odamlar bilan liq toʻla, gavjum. 4. Qoʻl-oyoq.. chopib tolmas, suv.. aslo yashay olmas. (*Baliq*) 5. Chidam.., bardosh.. oʻquvchilar qunt bilan bilim oladilar.

Sifatlarni otlar bilan birgalikda koʻchiring, sifat yasovchi qoʻshimchalarning maʼnosiga eʼtibor bering.



-li, -dor qoʻshimchalari yordamida hosil qilingan sifatlar belgiga egalik maʼnosini, **-siz** qoʻshimchasi yordamida yasalgan sifatlar belgiga ega emaslik maʼnosini bildiradi.

Odobli (odobga ega boʻlgan) *bola*.


Jarandor (baland, yoqimli) *ovoz*.


Shoxdor (shoxga ega boʻlgan) *echki*.

Odotsiz (odobga ega boʻlmagan) *bola*.

273- mashq. Otlarga xos belgini bildirgan sifatlarni tanlab, gaplarni o'qing va yozing. Sifatlarning tagiga to'liqinli chiziq chizing.

1. (Zo'r, qudratli) kran (vazmin, og'ir) yuklarni bemalol ko'taradi. 2. (Yoqimli, mayin) shamol (ko'k, yashil) yaproqlarni silkitdi. 3. (Tor, kichik) uyga sig'magan odam (keng, katta) hovliga ham sig'maydi.

 **274- mashq.** O'qing. Sifatlarni toping, narsalarning belgisiga ko'ra topishmoqlarning javobini ayting va yozing.

1. Dum-dumaloq, jajji oy,
Chaqib yesang, g'ij-g'ij moy.
2. Yorug' kunni boshlaydi,
Undan borliq yashnaydi. 


275- mashq. Bog'ning bahorgi ko'rinishi haqida hikoya tuzing. Tuzgan gaplaringizda sifatlar ishtirok etsin va shu gaplarni daftaringizga yozing.

276- mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarga bog'lanib kelgan sifatlarni aniqlab, shu sifatlarga so'roq bering va ko'chiring.

Ozod, mustaqil **Vatan**,
Obod va ahil **Vatan**.
Sen Ulug'bek yulduzi,
Navoiyning dur **so'zi**.
Nurli **koshonam** o'zing,
Yorug' **darsxonam** o'zing,
So'ngsiz, abadiy **chaman**,
Bag'ringda baxt ichraman.

Jumaniyoz Jabborov

She'rdan Vatanimizning qaysi belgilari ifodalangan? Siz Vatanni qanday tasvirlagan bo'lardingiz? Fikringizni besholti gap bilan ifodalang.

 **277-mashq.** Berilgan sifatlarga qarama-qarshi ma'noli sifatlarni tanlab, namunadagidek yozing.

Namuna: *uzun – qisqa, ...*

Uzun, yaxshi, katta, achchiq, baland, keng, qalin, yangi.

Foydalanish uchun so'zlar: *kichik, yomon, past, chuchuk, eski, yupqa, tor.*



278-mashq. Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?



Ular qanday hayvonlar va qayerda yashaydi? Sifatlardan foydalanib, avval tulkingning, keyin quyoning tashqi ko'rinishini tasvirlab yozing. Ularning yashash tarzini ayting.


Foydalanish uchun so'zlar: *qamishzor, chakalakzor orasi, mayin, yungli, paxmoq dumli, ayyor, uzunquloq, kulrang, hurkak, ehtiyotkor.*



 Sifat nutqda qanday maqsadlar uchun qo'llanadi?

279-mashq. Har bir qatordagi so'zlardan gap tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozing. Sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing. Hosil bo'lgan hikoyaga sarlavha toping.

bordi, Aziza, xiyobonga, ko'rkam;
oq, ochilgan, sariq, gulzorda, qizil, gullar;

daraxtlarda, sayrayapti, qushlar, sayroqi;
Aziza, maysalar ustida, o'ynadi, ko'm-ko'k, yay-
rab;

 **280- mashq.** Quyidagi chizmalar o'rniga so'z toping.
Ularni birikma shaklida yozing.



281- mashq. O'qing. Berilgan sifatlarga mos otlar to-
pib yozing.

shirin

katta

282- mashq. Matnni o'qing, ot va sifatlarni aniqlang.
Ularni birgalikda ko'chirib yozing.

QORLI TOG'

Yakshanba kuni Chimyonga bordik. Sovuq
aytarli qattiq emas. Qalin qor yog'gan. Tog'
cho'qqisini pag'a-pag'a bulutlar qoplagan. Quyosh
bulutlar orasidan nur sochmoqda.

Tog' etagidagi tepalikda chana uchayotgan bo-
lalarni va katta yoshdagi kishilarni ko'rdik.

Ukam bilan men maza qilib chana uchdik.
Akam chang'i bilan cho'qqidan pastga tushar
va yana cho'qqiga ko'tarilardi.

Tog' etagida dam oluvchilar uchun mehmon-
xonalar qurilgan. U yerda oshxona, choyxona-
lar ishlab turibdi.

 **283- mashq.** O'qing. Otlar va sifatlarni aniqlang.

Shirin so'z hammaga birday yoqadi. Shirin va ezgu so'zlar oqib turgan zilol suvga o'xshaydi.
(Yusuf Xos Hojibdan)

Matnni ko'chirib yozing. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.

284- mashq. O'qing. Sifatlarga mos zid ma'noli so'zlar toping va yozing.

shirin – ... , arzon – ... , toza – ... , oq – ... ,
uzun – ... , baland –

Berilgan so'zlarni qatnashtirib, 2 ta gap tuzing. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.

285- mashq. Gaplarni o'qing. Sifatlarni toping. Sifatlar gapda qaysi bo'lak bo'lib kelayotganini aniqlang.

1. Kerakli toshning og'irligi yo'q. (*Maqol*) 2. Yoqimli shabada esmoqda. 3. Shahrimizda ko'plab chiroyli binolar qurilmoqda. 4. Dadam sayroqi qushlarni yoqtiradilar.

Gaplarni ko'chirib yozing. Sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.

Bilimingizni tekshiring.


1. Qanday so'zlar sifat deyiladi?
2. Sifatlar gapda qaysi so'z turkumi bilan bog'lanib keladi?
3. Sifat yasovchi qo'shimchalarni ayting.
4. Yaqin ma'noli va qarama-qarshi ma'noli sifatlarga misollar keltiring.



SON

286- mashq. O'qing, narsa-buyumlarning sanog'ini bildirgan so'zlarni aniqlang va ko'chirib yozing.

1. Bir tup gul yuz g'uncha ochadi. (*Oybek*)
2. Tovuqlarga har kun uch mahal suv berardim, don-dun berardim.
3. Yoz chillasi qirq kun – yigirma beshinchi iyundan beshinchi avgustgacha.
4. „Uch og'a-ini botirlar“ ertagidagi otaning o'g'itlarini esda tuting.

 Shaxs va narsalarning sanog'ini bildirgan so'zlar **son** deyiladi. Sonlar *necha?*, *nechta?*, *qancha?* so'roqlariga javob bo'ladi: *nechta?* (daftar) – *o'nta daftar*, *necha?* (kun) – *besh kun*.

287- mashq. O'qing, sonlarni aniqlang. Sonlar qaysi otlar bilan bog'lanib kelganini aniqlang va ularni yonma-yon yozing.

1. Bir yigitga yetmish hunar oz.
2. Bir mayizni qirq kishi bo'lib yer.
3. Bir kishi ariq qazir,
Ming kishi suv ichar.
4. Bir qushim bor ikki qanotli: bir qanoti oq, ikkinchi qanoti qora. (Topishmoq. *Kecha va kunduz*)



288- mashq. O'qing.

O'rtoqlarim kelishar:
Nadim, Habib, Marhabo.
Yetsa kerak uchta non,
To'rt piyola murabbo.

Anvar Obidjon

O'n arava kelmoqda
Arpa-bug'doy ortilgan.
Uch arava oppoq un
Tegirmonda tortilgan.

Ilyos Muslim

Sonlarni o'zi bog'langan ot bilan birgalikda namunadagidek yozing.

Namuna: *uchta non, ...*

289- mashq. O'qing. Narsalarning sanog'ini, tartibini bildirgan sonlarni aniqlab, namunadagidek ikki qatorga alohida-alohida yozing.

Oltita qalam, o'ninchi bino, ikkinchi hosil, ming bir kecha, beshinchi yil, to'rt qator, yigirma beshinchi sahifa, ellik yil, yuzta mashina.

Namuna: sanoq sonlar – *uch kishi, ...*
tartib sonlar – *ikkinchi kun, ...*

○ Sonlar narsalarning joylashish tartibini ham bildirib, *nechanchi?* so'rog'iga javob bo'ladi: *nechanchi* (xona) – *yettinchi xona*, *nechanchi?* (qavat) – *to'rtinchi qavat*. *To'rtinchi*, *yettinchi* sonlari **tartib sonlardir**.

◆ Sanoq sonlarga **-inchi (-nchi)** qo'shimchasini qo'shish bilan tartib son hosil qilinadi:
oltmish – oltmishinchi, *yetti – yettinchi*.

290- mashq. Nuqtalar o'rniga sanoqni yoki tartibni bildirgan sonlarni qo'yib o'qing va yozing.

1. Yigit kishiga ... hunar oz. 2. Akam ... sinfda o'qiydi. 3. Bir yil ... oy. 4. ... poyezd ...

yo'lga kelib to'xtadi. 5. ... terim ham unumli bo'ldi. 6. Bizning oilamiz ... jondan iborat.

Foydalanish uchun so'zlar: *beshinch*, *yetmish*, *oltinchi*, *o'n ikki*, *to'rtinchi*, *ikkinchi*, *to'rt*.

Sonlarning tagiga to'liqinli chiziq chizing.

 **291- mashq.** Son-topishmoqning javobini ayting.

Uchta echki, to'rtta qo'y,
Qani, Erkin, sanab ko'r:
Nechta quloq, nechta shox
Bor ekan-a, aytib boq.


Obloqul Normatov

Sonlarni otlar bilan birga yonma-yon yozing. 

292- mashq. O'qing. Sonlarning yozilishiga e'tibor bering.

1. May oyi 31 kun. 2. Men 3-sinfda o'qiyman.
3. 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni. 4. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan.

Sanoq va tartib sonlarni so'z bilan yozib, gaplarni ko'chiring.


 Sonlar aytiladi va yoziladi. Sonlar ikki xil yoziladi.

Harflar bilan: *uch soat*, *besh kishi*.


Raqam bilan: *3 soat*, *5 kishi*.

Tartib sonlar raqam bilan yozilganda **-inchi (-nchi)** qo'shimchasi o'rnida chiziqcha (-) ishlatiladi: *to'qqizinchi dekabr – 9- dekabr*, *qirqinchi xonadon – 40- xonadon*.

293- mashq. Umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan sanalar nomlarini va qaysi kun bayram qilinishini ayting va yozing.

 **294- mashq.** Raqam bilan berilgan sanoq sonlarni tartib sonlarga aylantirib, soʻz bilan yozing.

6- qavat, 4- uy, 20 bet, 2 koʻz, 6 qator, 25 kun, 5 barmoq, 3 qadam, 8- sinf.

Tartib sonlardan qatnashtirib, 2–3 ta gap tuzing va yozing. Sonlarning tagiga toʻlqinli chiziq chizing. 

295- mashq. Chiziqlar oʻrniga mos sonlarni qoʻyib, birikma hosil qiling. Ular ishtirokida matn tuzing.

___ maktab, ___ qavat, ___ deraza, ___ eshik,
___ stol, ___ stul, ___ doska.


296- mashq. Matnni oʻqing. Sonlarni aniqlang.

Kenguru – yer yuzidagi eng qadimiy va eng gʻalati hayvonlarning bir turi hisoblanadi. Katta yoshdagi kengurularning boʻyi ikki metrga qadar boʻlishi mumkin.

Kenguruning bolasi mittigina, pushti rangli, yungsiz holda boʻlib, ona kenguru yangi tugʻilgan zaifgina bolasini shu zahotiyiq xaltachasiga joylaydi. Mittivoy olti oylik boʻlgach, kuchuk bolasidek holatga keladi. Ancha serharakat boʻlib qoladi. Uning oyoqlari uzun boʻlib, oʻn-oʻn uch metrgacha sakray olishiga yordam beradi.

„Moʻjiza kitobi“dan


Sonlarni otlar bilan birga bir qator ustun shaklida koʻchiring, yoniga shu sonlarni raqam bilan koʻrsating.

 **297- mashq.** O'qing. Sonlarni ko'chirib yozing.

Hayvonotlar bog'ida
Beda kemtir quyonlar.
Qirg'ovullar sayr qilib
Xotirjam yurar donlab.

Ellikta erur boshi,
Bir yuz qirqta oyog'i.
Qancha quyon, qirg'ovul,
Toping, o'g'lim, bu yog'in.

Tursunboy Adashboyev

 **298- mashq.** Maqollarni o'qing. Chiziqlar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni to'ldirib yozing.

1. Sanamay ___ dema. 2. ___ o'lchab ___ kes. 3. Daraxt ___ yerda ko'karadi. 4. ___ kunlik janjal, ___ kunlik rizqni olar.

299- mashq. Matnni o'qing. Ot, sifat va sonlarni aniqlab, alohida yozing. Matnga reja tuzing.


Bir g'oz suvda suzib yurib, o'ziga o'zi maqtandi.

–Olamda men kabi iqtidorli bo'lmasa kerak. Menda uch hunar bor: yugurish, suzish, uchish. Shuning uchun yer, suv, havo – uch makon mening izmimda. Bir o'zimda uch qobiliyat mujassam!

G'ozning bu so'zlarini eshitib turgan qurbaqa:

–Birodar, buncha maqtanmasang ham bo'lar edi. Sen aytayotgan qobiliyat uch jonivorning: kiyikning, baliqning, lochinning ishidir. Yerda kiyikday yugura olmaysan, suvda baliqdek suza olmaysan, havoda lochindek ucholmaysan, chalachulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing yaxshi edi, – dedi.

(Abdulla Avloniy)

 **300- mashq.** Tarkibida son ishtirok etgan 2 ta topishmoq toping va yozing.

Bilimingizni tekshiring.

1. Sonlar shaxs-narsalarning nimasini bildiradi?
2. Sonlar qaysi so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Sonlar yozuvda qanday ifodalanadi? Misollar keltiring.
4. Tartib sonlar sanoq sonlarga qaysi qo'shimchani qo'shish bilan hosil qilinadi?
5. Yozuvda tartib sonlarni hosil qiluvchi qo'shimcha o'rnida nimani ishlatish mumkin?
6. Sonlar gapda qanday bo'lak vazifasida keladi?



FE'L

301- mashq. O'qing.

Shifokor bemorni (*nima qildi?*) **davoladi.**

Qor tinmay (*nima qilyapti?*) **yog'yapti.**

Qushlar don (*nima qiladi?*) **izlaydi.**

Ajratilgan so'zlar nimani bildiriyapti? Ular qaysi so'roqlarga javob bo'lyapti?



Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar **fe'l** deyiladi. Fe'llar *nima qildi?*, *nima qilyapti?*, *nima qiladi?*, *nima qilmoqchi?* so'roqlariga javob bo'ladi.

302- mashq. Rasmni kuzating va matnni o'qing.

QURILISHDA




Hozir quruvchilar uylarni tez va soz qurish-yapti. Ishchilar zavodda uylarning devorini, rom va eshiklarini tayyorlaydilar. Qurilish materiallari maxsus mashinalarda tashiladi. Ko'tarma kranlar ularni quruvchilarga uzatadi, quruvchilar esa uy devorlarini bir-biriga ulaydilar.

Ko'chiring. Fe'llarni so'roqlar yordamida toping, tagiga ikki chiziq chizing. Ular nimani ifodalaydi?

? Fe'l gapda qanday vazifani bajaradi?

 **303- mashq.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.

Inson ajoyib texnika **yaratdi**. Qudratli texnika uni koinotga **ko'tardi**. Odam texnika tufayli dengiz tubiga ham **tushdi**. Texnika kishilar yumushini **yengillashtirdi**.

Qaysi so'zlar shaxs va narsaning harakatini bildiriyapti? Matni yozing. Fe'lning tagiga ikki chiziq chizing. 

304- mashq. O'qing. Fe'llarga so'roq bering.


1. Shamol yaproqlarni (...) silkitdi. 2. Tikuvchi kiyim (...) tikyapti. 3. Mexanizator paxta (...) teradi. 4. Ahmad rubob (...) chalyapti. 5. Qushlar in (...) quradi. 6. Yomg'irdan so'ng osmonda kamalak (...) ko'rindi.

Qavs ichiga fe'llarga beriladigan so'roqlarni qo'yib ko'chiring.

305- mashq. So'roqlarga mos fe'l tanlab, gaplarni tugating.

Hamon qor (*nima qilyapti?*) Qushlar chirqillab don (*nima qiladi?*) Buvim peshayvonga don (*nima qildi?*) Musicha, chumchuqlar peshayvondagi donlarni (*nima qilyapti?*) Baroq mushuk sekin (*nima qildi?*) Qushlar gur etib (*nima qildi?*)


Foydalanish uchun so'zlar: *izlaydi, yog'yapti, uchib ketdi, yeyapti, sepdi, yaqinlashdi.*

 **306- mashq.** Topishmoqlarning javobini ayting. Fe'llarni aniqlang, ularga og'zaki so'roq bering.

1. Qoravoy otdan tushdi,
Bolalari yugurishdi.



2. Suvda cho'kmaydi,
O'tda yonmaydi.

Topishmoqlarni ko'chirib yozing. Fe'llarning tagiga ikki chiziq chizing. Har bir fe'lga yaqin ma'noli so'zlar topib yozing. 

307- mashq. She'ni ifodali o'qing.

BAHOR KELDI-YO

Kuldi lolaqizg'aldoq,
Bahor keldi-yo.
Yashnab ketdi hamma yoq,
Qirlar kuldi-yo.
Gullar, mening gullarim,
Gulga to'lar yo'llarim.
Ariq kuylar shildirab,
O'ynar yaproqlar.
Qushlar sayrar chuldirab,
Tinglar irmoqlar.
Qushlar, keling, qushlarjon,
Mehrim sizga bir jahon.



Safo Ochil

She'rdagi fe'llarni ko'chirib yozing. Quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. She'rda qaysi fasl tasvirlangan?
2. Bu faslda tabiat o'zgarishlarini kuzatganmisiz?
3. Bahor faslida o'lkamizga qaysi qushlar uchib keladi?

308- mashq. Gapning mazmuniga mos so'zlar tanlab, matni ko'chiring.

Baxtiyorning otasi Safar aka cho'lda baxtini topgan insondir. Qo'riq yerga paxta ..., bog'rog' bunyod Uning mehnatidan el-yurt

Safar aka oilasini cho'lga olib ketish uchun mashinada Baxtiyor otasi oldiga yugurib


Otasi uni

Foydalanish uchun so'zlar: *qildi, ekdi, keldi, erkaladi, bordi, bahra oladi.*

 **309- mashq.** O'qing. Mazmunini so'zlang.

HASHAR

Bahor kelishi bilan o'lkamizda obodonlashtirish ishlari boshlanadi. Ko'cha-ko'ylar tozalanadi, ariqlar qaziladi. Daraxt ko'chatlari ekiladi. Bu ishlarda ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, o'quvchilar faol qatnashadilar. Obodonchilik yo'lidagi bunday hasharni xalqimiz xayrli ish deb biladi.

Fe'llarni o'zi bog'langan so'zlar bilan birga ko'chiring. 

310- mashq. O'qing. Berilgan fe'llarga yaqin ma'noli fe'llar tanlang va ularni birgalikda yozing.

Namuna: *sevinmoq – quvonmoq.*

Sevinmoq, sog'aymoq, tugatmoq, asramoq, yugurmoq, yig'moq.

Foydalanish uchun so'zlar: *tuzalmoq, quvonmoq, bitirmoq, chopmoq, saqlamoq, to'plamoq.*


311- mashq. O'qing. Qavs ichida berilgan so'zlardan mosini qatnashtirib, gap tuzing va yozing.

1. Chegarachilar tinchligimizni (qo'riqlaydilar, saqlaydilar, asraydilar).

2. Men uy ishlarida oyimga (qarashaman, yordamlashaman, ko'maklashaman).

3. Jahon xalqlari tinchlikni (xohlaydi, istaydi, tilaydi).

4. Poyezd soat 10.00 da (ketadi, jo'naydi).

 **312- mashq.** So'roqlarga mos fe'llar tanlab, gaplarni o'qing, so'ngra ko'chiring.

KECHA VA BUGUN

Sobir kecha (*nima qildi?*)... . U bugun (*nima qilyapti?*)... . Sobir bilan Malika kecha (*nima qildilar?*)... . Sobir bilan Malika bugun (*nima qilyaptilar?*)


313- mashq. Berilgan soʻzlardan gaplar tuzing, tuzgan gaplaringizni yozing. Feʼllarga soʻroq bering.

keldi, bahor, oʻlkamizga;
olamni, quyosh, isitdi;
eridi, qor, oppoq, yerdagi;
maysa bilan, koʻm-koʻk, qoplendi, qir-adirlar.

314- mashq. Gap mazmuniga mos feʼllarni qoʻyib oʻqing, soʻngra yozing.

CHUMOLILARNING FOYDASI

Odatda, chumolilar toʻp-toʻp boʻlib (turadi, yashaydi). Shuning uchun ular yozda qish uchun koʻp ovqat (gʻamlaydi, tayyorlaydi). Chumoli mayda qoʻngʻiz va kapalak qurtlarini yeydi. Ular oʻrmon va bogʻlarni turli zararkunandalardan (qoʻriqlaydi, saqlaydi).

 **315- mashq.** *Nima qildi?, nima qilyapti?* soʻroqlariga javob boʻlgan feʼllar ishtirokida gaplar tuzing va yozing.

316- mashq. *Yiqilmoq, qulamoq, agʻanamoq, yumalamoq* feʼllarining maʼnosida farq bormi? Shu feʼllar ishtirokida ikkita gap tuzing.

317- mashq. Nuqtalar oʻrniga mos feʼl tanlab, gaplarni toʻldiring. Qarama-qarshi maʼnoli feʼllarni juftlab koʻchiring.

1. Qishda kun qisqaradi, yozda... .
2. Metall issiqdan kengayadi, sovuqdan... .
3. Soy suvi kunduzi ko'payadi, tunda... .
4. Issiqda issiqxonaning usti ochiladi, kun soviganda... .



318- mashq. Ko'chiring. Fe'llarni topib, tagiga chizing.

O'tgan yili bahorda
Bir gul ko'chat o'tqazdim.
Yaproq yozdi, gul ochdi,
Husn qo'shdi bog'imga.
Tong shamoli keltirdi
Atrini dimog'imga.

Isroil Sulaymon



319- mashq. Qavs ichidagi qaysi fe'l jonivorlar harakatiga mos kelishini aniqlab, gaplarni o'qing.


1. Musicha tarnovga (qo'ndi, o'tirdi). 2. Tovuqlar (donlayapti, ovqatlanyapti). 3. To'rtko'z uy-chasidan (qarayapti, mo'ralayapti). 4. Mushuk quyosh nurida (yayrayapti, rohatlanyapti).

320- mashq. Fe'llarni o'qing, bu so'zlar qaysi shaxs va narsalar harakatini bildirishini ayting.

- ... – yoritadi, isitadi.
- ... – sakrayapti, ma'rayapti.
- ... – sayrayapti, uchyapti, yayrayapti.
- ... – yuguradi, kishnaydi.

Foydalanish uchun so'zlar: *ot, to'rg'ay, echki, quyosh.*

Nuqtalar o'rniga fe'llarga mos otlarni qo'yib, gaplar tuzing va tuzgan gaplaringizni yozing.

 **321- mashq.** Nuqtalar o'rniga berilgan otlarga mos fe'llar tanlab, gaplar tuzing.

Kech Qushlar Poda Bepoyon osmonda yulduzlar Yomg'ir Kunlar O'tlar

Foydalanish uchun so'zlar: *tinchidi, isidi, ko'rindi, ko'kardi, qaytdi, yog'di, kirdi.*

Tuzgan gaplaringizni yozing. Fe'llarning tagiga chizing.

322- mashq. Rasmni kuzating. „Ko'chat ekish“ mavzusida matn tuzing va yozing.




323- mashq. Matnni o'qing. Unda nima tasvirlangan?

Qishloq menga yoqib qoldi. Atrofi tog'. Tog'lar ko'm-ko'k, jonli gilam bilan to'shalganday. Musaffo havosi, oynadek tip-tiniq, muzdek suvlari kishi bahrini ochadi. Qishloqning shamoli esa yoqimli. U sochlaringni, yuzlaringni silaydi.

Sobit G'afurov

Matndagi ot va fe'llarni alohida-alohida ko'chiring.

 **324- mashq.** Ifodali o'qing. Yoddan yozishga tayyorlaning.

Binafshalar ochildi,
Chakkangga taq, chakkangga!
Atir hidi sochildi,
Chakkangga taq, chakkangga!

Lazzat olib hididan
Bolarilar uchadi,
Ipak qanot kapalak
Barglarini quchadi.

Zafar Diyor

She'ni yoddan yozing. Fe'llarning tagiga chizing. Ularga so'roq bering.



325- mashq. Bular qachon bo'lishini ayting.

Kunlar isiydi. O'tlar ko'karadi. Daraxtlar kurtak chiqaradi. Lolalar, binafshalar ochiladi. Janubdan qushlar uchib keladi. Ariqlarda suvlar to'lib oqadi.

Hikoyadagi fe'llarni *nima qildi?* so'rog'iga mos holda o'zgartiring. Uning mazmunida qaysi fasl kelgani haqida xabar berilgan bo'lsin.

Hikoyani shunday boshlang:


Kunlar isidi. ...

326- mashq. O'qing. Har bir qatordagi so'zlarni bir-biriga bog'lab, gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan hikoya hosil bo'lsin.

dalada, gullar, biz, terdik;
bog'dan bog'ga, o'tib ketdi, Nafisa;
u, qolibdi, adashib;
bilmabmiz, adashganini, Nafisaning, biz;
Tohir, qidirdi, Nafisani;

uni, topdi, bog'dan, qo'shni;
terib, ekan, u, yurgan, gul.

Tuzgan hikoyangizga sarlavha topib yozing.

 **327- mashq.** *Yordamlashdi, aytdi* fe'llariga yaqin ma'noli so'zlar toping. Ular ishtirokida to'rtta gap tuzing va yozing.

328- mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

NAZOKAT VA GO'ZALLIK TIMSOLI


Mehr-oqibat **chashmasi**, nazokat va **go'zallik** timsoli, olamni yashnatuvchi va yaratuvchi **ulug'** zot – ayollarni sharaflash uchun 8- mart bayram etib **belgilangan**.


Shu kuni barcha ayollarga ta'zim va hurmat bajo keltirib, ularga gullar **tortiq** qilinadi. Ayol suyukli ona, oila tayanchi, ustoz va murabbiydir.

Matndagi ot, sifat, fe'llarni topib yozing. Quyidagi savollarga yozma javob bering:

1. Bahorda qanday bayramlar nishonlanadi?
2. Siz 8- mart – Xotin-qizlar bayrami munosabati bilan kimlarni tabrikladingiz?
3. Onangizga qanday sovg'a tayyorladingiz?

329- mashq. „Mening onam“ mavzusida 5–6 gapdan iborat matn yozing.

 **330- mashq.** Rasmni diqqat bilan kuzating, qaysi fasl tasvirlangan? Bolalar nima qilyaptilar? Hikoyaning boshlanishini o'qing. Qolgan qismini o'zingiz davom ettiring.



Bahor fasli. Bolalar dalaga chiqdilar. Ular chuchmoma va lola terгани har tarafga tarqaldilar...

Tuzgan hikoyangizdagi fe'llarni aniqlang, ularga so'roq bering.



BO'LISHLI VA BO'LISHSIZ FE'LLAR

331- mashq. O'qing. Fe'llarni aniqlang.

MEHRIBON O'RTOQLAR

Bugun hamma maktabga keldi. Biroq Anvar kelmadi. Anvarning sinfdoshlari darsdan keyin uning uyiga borishdi. Onasi Anvarning kasalligini aytdi. O'rtoqlari Anvarni kirib ko'rishdi. Darsda o'tilgan mavzular to'g'risida suhbatlashdilar.

Keldi – kelmadi, bordi – bormadi, aytdi – aytmadi, ko'rishdi – ko'rishmadi, suhbatlashdi – suhbatlashmadi, gapirdi – gapirmadi fe'llarini o'qing, ular bir-biridan nimasi bilan farq qilayotganini ayting.

Harakatning bajarilishidagi farqni hisobga olgan holda ularni ikki ustunga namunadagidek alohida-alohida yozing.

Namuna: Harakat bajarildi:

keldi

Harakat bajarilmadi:

kelmadi



Keldi, bordi, aytdi kabi fe'llar harakatning bajarilganligini bildiradi. Bunday fe'llar **bo'lishli fe'llar** deyiladi.


Kelmadi, bormadi, aytmadi kabi fe'llar esa harakatning bajarilmaganligini bildiradi. Bunday fe'llar **bo'lishsiz fe'llar** deyiladi.

Bo'lishli fe'lga **-ma** qo'shimchasini qo'shish bilan bo'lishsiz fe'l hosil bo'ladi.

332- mashq. O'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang.

Ozoda uchinchi sinfda o'qiydi. U darsdan sira kech qolmaydi. Ozoda o'quv qurollarini yaxshi saqlaydi. U topshirilgan vazifalarni mustaqil bajaradi. Ozoda o'rtoqlaridan yordamini ayamaydi.

Ko'chiring. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning tagiga ikki chiziq chizing. Ularning farqini ayting. Bo'lishsiz fe'llar ustiga „b-siz“ (bo'lishsiz) deb yozing.

 **333- mashq.** Ko'chiring. Bo'lishli fe'lni bo'lishsiz fe'lga aylantirib yozing. Bo'lishsiz fe'lni hosil qilgan qo'shimchani tagiga chizing.

yozdi – yozmadi

o'qidi –

aytdi –

uxlayapti –

chiqyapti –

arralaydi –

saqlaydi –

ishlaydi –

ichadi –



334- mashq. Topishmoqlarni o'qib, fe'llarni aniqlang, ularning bo'lishli yoki bo'lishsizligini ayting.

1. Yonsa tutun chiqmaydi,
Hech yerga gard yuqmaydi.
Bas, gugurt chaqsang faqat,
Qaynar choy, pishar ovqat.

2. Ikki aka-uka yashaydi,
Bir-birini ko'rmaydi.

Topishmoqlarning javobini ayting. Ko'chiring. Fe'llarning tagiga ikki chiziq chizing.

335- mashq. Gapning mazmuniga mos so'zlar qo'yib, she'rni o'qing.

Ertal bilan	Tanish bo'lsin,
Maktab tomon	Xoh notanish,
Quvnab-quvnab	Salomlashmay
...
Ehhe, yo'lda	Aks holda
Qancha-qancha	Men o'zimni
Odamlarga	Shod-xurram his
... .. !

Shodi Sattor

Foydalanish uchun so'zlar: *duch kelaman, etolmayman, yo'l olaman, o'tolmayman.*

Qo'ygan so'zlaringiz mazmunan nimani bildiradi? Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni ayting. *Yo'l olaman, duch kelaman, salomlashmay o'tolmayman* so'zlarini boshqa so'z bilan almashtirish mumkinmi?

 **336- mashq.** O'qing. Fe'llarni aniqlang, ularga og'zaki so'roq bering.

Erta bilan ko'chalar gavjum. Ishchilar korxonaga, xizmatchilar idoraga shoshiladilar. O'quvchilar esa maktabga boryaptilar. Ular yo'lkadan ketishyapti. O'quvchilar ko'cha harakati qoidasini yaxshi biladilar.

Maktab ko'chani narigi tomonida joylashgan. Svetoforning yashil chirog'i yondi, yo'l ochildi. Hasanjon ehtiyotlik bilan piyodalar o'tadigan joydan o'tdi.

Fe'llarni ko'chiring, yoniga so'rog'ini ham yozing.

Namuna: *shoshiladilar* (nima qiladilar?)



337- mashq. Matni ko'chiring. Fe'llarni aniqlang.

Bugun havo yaxshi isidi. O'rtoqlarim keldi. Quyosh juda qizdirdi. Men cho'milishga borish uchun tayyorlandim. Kunning ikkinchi yarmida cho'milishga bordik.

338- mashq. Nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos fe'llarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Chegarachi Vatanimizni 2. Kosmonavt raketada 3. Nafisa onasiga 4. Konchi yerdan ko'mir 5. Mushuk sichqonni

Foydalanish uchun so'zlar: *uchdi, qo'riqlaydi, yordamlashyapti, poyladi, qaziyapti.*

Fe'llarning tagiga chizing.



339- mashq. She'ni ifodali o'qing.

Qushcha sayrar o'z tilida,
Qizcha boqadi hayron.

Qizcha kuylar o'z tilida,
Qushcha boqadi hayron.

To'lib-toshib sayrar qushcha
Maqtab gulni, bahorni.
Maftun bo'lib kuylar qizcha
Maqtab gulgun diyorni.

Samandar Vohidov

Quyidagi savollarga javob bering va javobingizni yozing.

1. Qushcha nima haqida sayraydi?
2. Qizcha nima haqida kuylaydi?



FE'L YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

340- mashq. O'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning asosdoshlarini yonma-yon yozing. Asos va qo'shimchalarni tegishlicha belgilang.

1. **Ko'z** qo'rqqoq, qo'l botir. (*Maqol*)
2. **So'z** ko'rki maqol. (*Maqol*)
3. Askardek biyron **so'zla**, So'zlaganda mazmuni **ko'zla**. (*Quddus Muhammadiy*)
4. **Qars** ikki qo'ldan chiqadi. (*Maqol*)
5. Tun qorong'isida dahshat bilan bir narsa **qarsilladi**.
6. Qarg'a „**qag**“ dedi, mushuk „**miyov**“ dedi.
7. Qarg'a **qag'illadi**, mushuk **miyovladi**. (*Ertakdan*)
8. Radiodan sho'x **kuy** taralmoqda.
9. Vatan madhini zavq bilan **kuyladik**.



So'z asosiga **-la, -illa (-ulla)** yasovchi qo'shimchalarini qo'shish bilan fe'l hosil qilinadi.

ko'z – ko'zla, qars – qarsilla

so'z – so'zla, taq – taqilla


341- mashq. O'qing. **-la, -illa** qo'shimchalari bilan yasalgan fe'llarni aniqlang.

Yoqimtoy kompozitor
Bo'lsammi deb o'ylayman.
O'zim yozib termasin,
O'zim kuyin kuylayman.

G'afur G'ulom

Ovqat yesa og'zini chapillatar,
Goh o'tirgan partasini taqillatar.
Ko'chadagi kuchuklarni akillatar,
Birov uyin so'rasangiz, laqillatar.
– Qaysi bola?
– Qaysar bola.

Po'lat Mo'min

 **342- mashq.** So'z yasovchi **-la, -illa (-ulla)** qo'shimchalaridan mosini qo'yib, fe'l hosil qiling. Qavs ichidagi ikkinchi so'zni tushirib qoldiring.

Toza, ta'rif, taq (tuq), shivir (shivir), tuz, g'uv (g'uv), tabrik, vaq (vuq), qaychi, so'z, g'ing (g'ing), dasta, pichir (pichir).

Yasalgan fe'llarni namunadagidek yozing va yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

-la

toza[^]la

-illa

taq[^]illa




343- mashq. Nuqtalar o'rniga fe'l yasovchi **-la, -illa** qo'shimchalaridan mosini qo'yib o'qing.


1. Asalarilar bog', dala kezib tinmay ish..ydi.
2. Chumchuqlar oftobda isinib chirq..ydi.
3. Bog'-

bon daraxtning ortiqcha butog'ini arra..ydi.
4. Tog' bag'rida shamol viz..ydi. 5. Mansur kuchugini bo'ynidan quchib erka..ydi.

Ko'chiring, fe'llarning tagiga chizing. Har bir gapning asosini chizmada ko'rsating.

344- mashq. Rasmga qarab, gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan „Qushning jasorati“ hikoyasi hosil bo'lsin. Hikoyani yozing, fe'llarning tagiga chizing.



 **345- mashq.** Nuqtalar o'rniga gap mazmuniga mos fe'llarni tanlab, matnni o'qing.

Men kichik chegarachi
Zimziyo tevaragim.
Postda hushyor ...,
Har sharpani

Hamma odam uxlasin,
Mayli olam ...,
Yurt tinchini ...,
Degan so'zim

Qambar Ota

Foydalanish uchun so'zlar: *kezaman, sezaman, uxlasin, saqlayman, oqlayman.*



346- mashq. O'qing. So'zlarning asoslarini aniqlang.

Ish, ishchi, ishchan, ishladi; arra, arrala; soz, sozlaydi; gul, gulladi, gulli, gulsiz; randa, randalayapti; qish, qishlaydi; oq, oqladi.

Har bir soʻzga soʻroq bering. Ular nimani bildiradi?
Sifatlarni birinchi ustunga, otlarni ikkinchi ustunga va fe'llarni uchinchi ustunga koʻchiring. Asos va soʻz yasovchi qoʻshimchalarni namunadagidek belgilang.

Namuna:

Sifatlar:

ishchan
...

Otlar:

ishchi
...


Fe'llar:

ishla
...

347- mashq. Oʻqing. Aralash holda berilgan gaplarni oʻz oʻrniga qoʻyib, hikoya tuzing.

U bayroqchasini va pufaklarini olib, koʻchaga chiqdi. Shu kuni Muxlisa xursand boʻlib yurdi. Hamma yoq chiroyli. Kishilar shod, xursand. Muxlisa „Uzoqdagi doʻstimga bor!“ – deb pufaklaridan birini uchirib yubordi. Yangi koʻylagini kiydi. Muxlisa erta uygʻondi. Otasi unga koʻk, qizil pufak berdi. Bayramga Muxlisa ham chiqadigan boʻldi.

Tuzgan hikoyangizga sarlavha qoʻyib, qayta soʻzlab bering va koʻchirib yozing.

 **348- mashq.** 3-sinf „Oʻqish kitobi“dan fe'l ishtirok etgan 2 ta gap topib yozing.



349- mashq. Oʻqing.

BIZNING OILA

Oilada besh kishi turamiz. Otam, onam, ukam, singlim va men. Otam – zavodda muhandis. Onam – maktabda oʻqituvchi. Men 3- sinfda


o'qiyman. Qodirjon bog'chaga boradi. Men darsdan keyin uy ishlariga yordamlashaman. Gulnora gullarga suv quyadi. Onam xursand bo'ladilar.

Matndan *nima qildi?*, *nima qiladi?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni toping. Ularni tekshirib, matni qayta o'qing. Gapda fe'llar qanday ahamiyatga ega?

350- mashq. Rasmni kuzating. Unga sarlavha toping va shu rasm va berilgan savollar asosida „Bizning oila“ mavzusida insho yozing.



1. Oilada necha kishi turasiz?
2. Oilangizdagilar nima ish qiladilar?
3. Siz uy ishlariga qanday yordam berasiz?

 **351- mashq.** 3-sinf „O'qish“ kitobidan 2 ta gap topib yozing. Yozgan gapingizdagi ot, sifat, fe'llarni aniqlang.



YIL DAVOMIDA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

352- mashq. O‘qing. Berilgan fe‘llarga yaqin ma‘noli so‘zlar toping.

Aytdi, kuldi, ekdi.

Shu so‘zlarni qatnashtirib, 3 ta gap yozing.
Gapda fe‘llar qaysi bo‘lak bo‘lib kelayotganini aniqlang.

353- mashq. She‘rni o‘qing. Matn nima haqida ekanligini ayting. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga yaqin ma‘noli so‘zlar toping.

Saxiy quyosh nuridan
Badanlar toblanadi.
Soyapar bolalar-chi,
Tez-tez **betoblanadi**.

Ilyos Muslim



354- mashq. Boshqotirmanini yeching, maqolni o‘qing.

h u r m t q l s n g h r m t k r s n

Maqolni ko‘chirib yozing, fe‘llarning tagiga chizing. 

355- mashq. Matnini o‘qing. Har bir gapning boshi va oxirini aniqlang. Gaplarni qanday aniqladingiz?


buvi nabirasi bilan yashaydi nabira yoshligida buvisi unga ovqat tayyorladi, ko‘ylaklar tikib berdi, ertaklar aytdi nabira katta bo‘ldi buvi esa qaridi endi nabira buvisi uchun ovqat pishiradi, non yopadi

Ko'chiring. Har bir gapni bosh harf bilan boshlang va oxiriga nuqta qo'ying.

356- mashq. So'zlarni o'qing. Avval unli va jarangli undoshdan, keyin unli va jarangsiz undoshdan tuzilgan so'zlarni yozing.

Soat, ro'mol, ipak, zavod, sochiq, gilam, jadval, maydon.

Jadval, maydon so'zlarini tovush tomondan tahlil qiling.

 **357- mashq.** O'qing. She'riy parchadagi so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yozing. Har bir so'zdagi jarangli va jarangsiz tovushlarni ajrating.

Hunaringga balli, ey Solijon!
Taxta-yog'ochga kiritibsan jon.

Quddus Muhammadiy 

358- mashq. O'qing. Har bir gap qanday mazmun bildirayotganini aniqlang. Jadvalni to'ldiring.

Gaplar	Mazmuni
1. Zuhra test savollariga to'g'ri javob berdi. 2. Akang futbol musobaqasida qatnashdimi? 3. Bolalar topshiriqni o'z vaqtida bajaring.	

359- mashq. O'qing va ko'chiring. Faqat unli va jarangli tovushlardan tuzilgan so'zlarni topib, tagiga chizing.

Amir Temur elim deb, yurtim deb jonini fido qilgan. U og'ir-vazmin, mulohazali, buyuk shaxs bo'lgan.

(Bo'riboy Ahmedovdan)

 **360- mashq.** O'qing, so'zlarni namunada ko'rsatilgan-
dek ikkiga ajratib yozing.

Yaylov, e'tiqod, taajjub, oila, mudofaa, ashula,
boychechak, so'nggi, iste'mol, metallar, test.

Bo'g'inga ajratish	Bo'g'in ko'chirish
yay-lov	yay-lov

361- mashq. O'qing. Gaplarni davom ettirib yozing.

Yaxshi so'z jon ozig'i,

Yaxshi topib so'zlar,

362- mashq. She'ni ifodali o'qing. Ma'nosi yaqin so'z-
larni aniqlang. Ularni chiziqcha orqali yonma-yon yozing.
Ajratilgan so'zlarga qarama-qarshi ma'noli juftini toping.
Bu so'zlar qaysi so'z turkumiga kiradi?

– Ma'nosi bir so'z nima?

– Soya bilan ko'lanka.

Bilasizmi, aslida,

Olis joyni der uzoq.

Baland yerni tepalik,

Quyosh – oftob, ko'cha – yo'l,

Ensiz – qisqa, enli – **keng**,

Oymomo – shamsiqamar,

Bir mazmunni anglatar.

Tursunboy Adashboyev

 **363- mashq.** Chizmaga mos gaplar tuzib yozing.

1. _____ ~~~~~ = = = = .

2. ~~~~~ _____ ~~~~~ = = = = .

364- mashq. O'qing. Matnning mazmunini so'zlab bering.

CHO'L YASHNADI

Cho'l jazirama issiq. Suv yo'q. Zahmatkash insonlar cho'lni yashnatish uchun keldilar. Ular kanal qazidilar. Kanalga suv keldi. Cho'lda hayot boshlandi. Dehqonlar mevali daraxtlar o'tqazdilar. Paxta, don va poliz ekinlarini ekdilar.

Daraxtlar o'tqazdilar, ekinlarni ekdilar. Ularning ma'nosida qanday farq bor?

Beshinchi gapning chizmasini chizing.

365- mashq. O'qing.

NA'MATAK

Na'matak tog' etaklarida o'sadi. U bahorda gullaydi. Guli to'kilgach, uning tagida ko'zacha paydo bo'ladi. Ko'zacha kattalashadi, keyin qizaradi. Urug' bo'lib yetiladi. Odamlar uni terib oladilar. Urug' quritiladi va idishlarda saqlanadi. Na'matak shifobaxsh o'simlik.

Na'matak qayerda o'sadi? Siz uni ko'rganmisiz?

Matnda ifoda maqsadiga ko'ra qanday gaplar bor? Ularni o'z ohangi bilan o'qing. Shu matn bo'yicha diktant yozishga tayyorlaning.



366- mashq. O'qing. Darak, so'roq gaplarni aniqlang.

–Tunda porlab nur sochgan
Ayting, yulduzmi, oymi
Yo tandirdan uzilgan
Bo'rsillagan shirmoymi

Tushuntiradi onam:

– Oy yulduzning kattasi.

Nurilla Ostonov



Ko'chiring. Tinish belgilarini qo'ying.

367- mashq. Hikoyani o'qib, mazmunini so'zlab bering.

ONA CHUMCHUQ

Chumchuq bolalari ochiq yerda o'ynab yuribdi. Ona chumchuq ularni dushmanlardan qo'riqlayapti. Uzoqdan qirg'iy uchib kelyapti. Ona chumchuq uni darrov ko'rdi. U g'alati tovushda qattiq chirqilladi. Hushyor chumchuq bolalari shoxlar orasiga yashirindi.

Qirg'iy ona chumchuq tomon otildi. Ona chumchuq ham o'zini shoxlar orasiga oldi. Qirg'iyning jahli chiqdi. Keyin uzoqqa uchib ketdi. Ona chumchuq yana shoxga qo'ndi. U shodlanib chirilladi. Chumchuq bolalari yalanglikda sakrab o'ynashdi.

Har bir bo'limni alohida-alohida o'qing, ularga sarlavha topib, reja tuzing. Reja tuzishda quyidagi savollardan foydalaning.

Chumchuq bolalari qayerda o'ynab yurardi? Ona chumchuq nima uchun qattiq chirilladi? Chumchuq bolalari nima qildi? Qirg'iy nima qildi? Ona chumchuq nega shodlanib chirilladi?



368- mashq. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aks ettiruvchi jadval tayyorlang.




369- mashq. O'qing. Gaplardagi bir xil asosli so'zlarni aniqlang. Ularning asosini toping. Bular nima uchun asosdosh so'zlar deyiladi?

1. Kanal suvga to'ldi. 2. Chanqoq yerlarga suv chiqdi. 3. Suvchi g'ozani tunda sug'oradi. 4. Suv-siz yerda giyoh unmaydi.

Har bir gapning ega va kesimini ko'chirib yozing.

370- mashq. Navbatchidan, mazali, shaharning so'zlarini so'z tarkibi yuzasidan tahlil qiling.

Namuna: shaxmatchiga – shaxmat asos, -chi so'z yasovchi qo'shimcha, -ga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimcha.

 **371- mashq.** Ko'chiring. So'zlarni namunadagidek qismlarga bo'ling. Qismlarning nomini ayting.

Jangchiga, bog'la, lolazordan, maktabning, manzarali, jizilla, tuzsiz, sholikor, sovg'ani.

Namuna: xizmatchi, xizmatchining, ...



372- mashq. O'qing. Shaxsni bildirgan otlarni aniqlang va ko'chirib yozing. Ularning qanday so'roqqa javob bo'layotganini ayting.


Jamshidning otasi Asakadagi avtomobil zavodida ishlaydi. Zavodda ishchilar har xil ishlarni bajaradilar. Chilangar mashina qismlarini yig'adi. Bo'yoqchi tayyor mashinalarni bo'yaydi. Nazoratchi mashina sifatini tekshiradi. Zavod aholiga sifatli mashinalarni yetkazib bermoqda.

Respublikamizda qanday turdagi mashinalar ishlab chiqarilmoqda? Misollar ayting va yozing.

373- mashq. So'zlarni o'qing. Tarkibida ot yasovchi qo'shimcha bo'lgan so'zlarni yozing.

Suvchi, tomchi, tennischi, ninachi, sinfdosh, bardosh, bo'taloq, o'tloq.

Shu so'zlardan qatnashtirib, ikkita gap yozing.

 **374- mashq.** She'ni ifodali o'qing. *Kim?, nima?* so'rog'iga javob bo'lgan otlarni aniqlang.

Latifjonning o'ylagani
Ertangi dars, topshiriq.
– Yur, – deb futbol o'ynagani, –
Olim keldi shoshilib.
– Yo'q, – der Latif, – ayt-chi, Olim,
Dars kelarmi o'yingga?
Tayyorlaylik darsni oldin,
Ulguramiz o'yinga.

Sulton Jabbor 

Qaysi otlar bosh harf bilan yozilgan? Ularni ko'chiring.

375- mashq. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalar qo'yib, matnni o'qing. Matnga sarlavha qo'ying va ko'chiring.


Bir kishi Luqmoni hakim.. so'radi: „Odob.. kimdan o'rgandingiz?“ Luqmoni hakim: „Odob.. odobsiz.. o'rgandim“, – deb javob qildilar. U kishi yana so'radi: „Odob.. odobsiz.. qanday o'rgandingiz?“ „Doim kishilar.. qilgan ishlari.. va aytgan so'zlari.. diqqat bilan kuzatdim. Kimdan yomon so'z eshitsam, uni so'zlamadim. Bir yomon ish.. ko'rsam, uni qilmadim,“ – deb javob berdilar.

Munavvarqori Abdurashidxonovdan

Matnda ifoda maqsadiga ko'ra qanday gaplar qo'lingan?

376- mashq. Quyida berilgan darak gaplardan so'roq, his-hayajon gaplar hosil qilib yozing.


1. Uyimizga mehmon keldi. 2. Terim boshlandi.

 **377- mashq.** So'z yasovchi qo'shimchalar yordamida shaxs nomini bildirgan so'zlar yasang.

san'at..	sholi..	boshqaruv..
suvoq..	futbol..	tadbir..

Qaysi so'z turkumiga oid so'z hosil qilindi?



 **378- mashq.** O'qing. So'zlarga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shib, ot, sifat, fe'llar hosil qiling.

Gul, fikr, yo'l, qadr.

Shu so'zlardan qatnashtirib, 3 ta gap tuzing.


379- mashq. O'qing. Otlarni aniqlang.

Qishlog'imizda katta tokzor bor. Bog'bonlar tokni yil bo'yi parvarish qiladilar. Kuzda toklardan mo'l hosil yig'ib olinadi. Hosilni yig'ishda o'quvchilar qatnashadilar. Shirin-shakar uzumlar uzoq o'lkalarga, shaharlarga yuboriladi.

Kishilarni bildirgan yana qaysi otlarni bilasiz? Misollar keltiring. Otlarni quyidagi tartibda ko'chiring.

Birlikdagi otlar: ...


Ko'plikdagi otlar: ...

 **380- mashq.** She'ni ifodali o'qing. Birlik va ko'plik shaklidagi otlarni aniqlang.

– Ayt-chi, buncha jilmayib,
Kulayapsan, quyoshjon?

– Ola bulutlar yo‘qdir,
Qara, tip-tiniq osmon.
– Ey qush, nega sayraysan,
Tinim bilmay tonggi payt?
– Ona yurt go‘zalligin
Kuylamay bo‘larmi, ayt.

Rauf Tolib

Birlikdagi otlarni ko‘plik shakliga aylantirib yozing. 

381- mashq. O‘qing. Ertakni davom ettiring va ko‘chiring.

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda bir ovchi yashagan ekan. U ov qilgani o‘rmonga boribdi. Qarasa, tuzog‘iga bir kiyik ilinibdi. U oddiy emas, sehrlı kiyik ekan...

382- mashq. Nuqtalar o‘rniga shaxs va narsa nomlarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Olmaxonning nima uchun achchiqlanganini ayting.

... o‘ziga yangi uy qurdi. U ... mehmon chaqirishga yubordi. Olmaxon ... , ... va ... uyg‘otib, bu xabarni ularga yetkazdi. Quyon mehmonlarni ... , ... va ... bilan mehmon qildi. Olmaxon achchiqlandi. Ayiq buni sezib qoldi. Ayiq o‘rmondan keltirgan bujur yong‘oqlarini olmaxon tomon yumalatib yubordi. Ziyofat uzoq davom etdi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *quyon, olmaxonni, ayiqni, tipratikanni, toshbaqani, karam, qulupnay, sabzi.*



383- mashq. O‘qing.

Yulduz, parta, baliq, daraxt, piyola.

Bu otlarni ko'plikdagi otlarga aylantirib yozing. Yozganlaringizni o'qing. Ko'plik qo'shimchasining aytilishi bilan yozilishidagi farqni tushuntiring.



384- mashq. O'qing, otlarni aniqlang, ularni sifatlar bilan birgalikda ko'chiring.

1. Toza havо, tiniq suv bizning yaqin do'stimiz.
2. Uzoqdan bolalarning quvnoq ovozi eshitildi.
3. Go'zal Vatanimiz topsin sharaf-shon.
4. Shabadada daraxtning yashil yaproqlari tebrandi.

385- mashq. -li, -la qo'shimchalari yordamida otlardan sifat va fe'llar hosil qilib yozing.

yuk –...,	shox –...,
six –...,	qop –...,

 **386- mashq.** O'qing. Berilgan gaplarga sifatga oid so'zlar qo'shib, gapni qayta tuzing.

1. Yoz keldi.
2. Mevalar pishdi.
3. Bolalar ta'tilga chiqdilar.



387- mashq. Matnni o'qing. Sonlarni aniqlang.

Siz chigirtkalar to'dasini ko'rganmisiz? Ular to'da bo'lib, bir yerdan ikkinchi yerga uchganlarida bo'yiga to'qson, eniga esa sakson kilometrcha kenglikdagi osmonni egallaydi. Ekin maydonlariga tushib qolsalar, besh million kishiga yetadigan donni yeb bitiradi.


Uning mushaklari juda rivojlangan. Shu mushaklar odamda bo'lsa, u olti tonna yukni ko'tara olardi.

„G'uncha“dan

Sonlarni ot bilan birga yonma-yon yozing, keyin sonlarni raqam bilan ham yozib chiqing.

388- mashq. Ko'chiring. Sonlarni harflar bilan yozing.

Qadim zamonda bir kishi bo'lgan ekan. Uning 3 ta o'g'li bor ekan. Uchovi ham o'qigan, oq-qorani tanigan ekan. To'ng'ichi 20 yoshda, o'rtanchasi 18 yoshda, kenjasi 16 yoshda ekan.

 **389- mashq.** Berilgan otlarga mos sonlarni qo'yib yozing.

... qavat, ... avtobus, ... uy, ... bekat, ... qator, ... sinf, ... o'quvchi, ... kishi.

Yozgan birikmalingizni qatnashtirib, uchta gap tuzing va yozing.



390- mashq. O'qing. Fe'llarni aniqlang.

EKSKAVATOR

Dasht qo'yniga kirdi-yu, | **Tashna** yer bag'ridan u
ilk bora na'ra soldi. | Siqimlab tuproq oldi.

Erkin Vohidov

Ko'chiring. Fe'llarning tagiga chizing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga yaqin ma'noli so'zlar toping.


Matndagi *qo'yin*, *bag'ir* so'zlarini qiyoslang. Shoir ularni qanday ma'noda ishlatganiga e'tibor bering.

391- mashq. Nuqtalar o'rniga gapning mazmuniga mos fe'lni qo'yib o'qing.

G'ayrat bahorda qirga Qirda u lola
Yozda polizga Qovun-tarvuzlarni mashinaga
.... Kuzda ishkomdan uzum

Foydalanish uchun soʻzlar: *teradi, ortishadi, uzadi, chiqadi, boradi.*

Koʻchiring. Otlarni aniqlang, soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalarni belgilang.

 **392- mashq.** Matnni oʻqing, unga sarlavha toping. Matndagi ot, sifat, feʼllarni koʻchirib yozing.

Haydovchi ertasi kuni Hasanga qop-qora, chiroyli kiyik keltirib berdi. Hasan kiyikka Yulduz deb nom qoʻydi.

Yulduz hovlida yurishga, bolalarning qoʻlidan ovqat yeyishga koʻnika boshladi. Hatto Hasanning orqasidan ergashadigan ham boʻlib qoldi. Hasan juda quvondi.

Yoqubjon Shukurovdan



393- mashq. Oʻqing.

IBRAT

Odamzod uzoq umr koʻradi. Elim deb, yurtim deb barakali mehnat qiladi.

Baʼzilar Vatan uchun jonini fido etadi. Baʼzilar halol ishlab, faxriylar safidan munosib oʻrin oladi.

Vatan ozodligi uchun jonini fido etgan ajdodlar yodi avlodlar xotirasida abadiy saqlanadi. Vatan ravnaqi, farovon hayot uchun fidokorona mehnat qilgan faxriylar eʼzozlanadi, hurmat bilan qadrlanadi.

Ajdodlar jasorati biz uchun oʻrnakdir!

Quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. Shahringiz yoki qishlogʻingizdagi Xotira xiyobonini borib koʻrganmisiz?

2. Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun qurbon bo'lganlardan kimlarni bilasiz?

3. Mehnat faxriysi bo'lgan kimingiz bor?

4. 9-may – Xotira va qadrlash kuni qayerlarda bo'ldingiz va kimlarni ziyorat qildingiz?


 **394- mashq.** O'qing, gapdagi so'zlarning bog'lanishini aniqlang.

1. Botir „Kelajak ovozi“ tanloviga qatnashdi.

2. Kecha Toshkentda tadbirkorlarning yig'ilishi bo'ldi.

395- mashq. Rasmni diqqat bilan kuzating. Rasm asosida hikoya tuzing va yozing.



 **396- mashq.** Topishmoqlarni o'qing. Fe'llarni toping. Topishmoqlarni javobi bilan yozing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar tagiga ikki chiziq chizing.

Yomg'irdan so'ng chiqadi,
Cho'tir qalpoq kiyadi.
Quyoshni yoqtirmaydi,
Shamolni chaqirmaydi.



Mehnat qilib tolmaydi,
Sira orom olmaydi.



 **397- mashq.** Hikoyani o'qib, mazmunini so'zlab bering.

HAYVONOT BOG'IDA

Bir kuni hayvonot bog'ida qiziq voqea yuz berdi. Allaqayerdan bir zag'izg'on uchib keldi. U to'tining qafasi yonida bezovtalanib qag'illadi. Bo'g'ma ilon inidan chiqib ketgan ekan. U sudralib, to'ti turgan qafasga chiqib olgan, bechora to'ti esa, o'zini har tarafga urardi. Hayvonot bog'idagi xizmatchilar bundan xabardor bo'ldilar. Ular ilonni tezda tutdilar va o'z qafasiga soldilar. Shunday qilib, to'ti o'limdan qutqarildi.

Berilgan rejadan foydalanib, hikoyani qismlarga bo'ling. Har qaysi qismni yangi qatordan boshlab yozing.

Reja:

1. Zag'izg'onning bezovtalanishi.
2. Bo'g'ma ilon hamlasi.
3. To'ti o'limdan qutqarildi.

 **398- mashq.** Juftlab berilgan so'zlarni o'qing. Ma'nolarini bilib oling.

Shox – sho'x, cho'p – chop, chigit – chirit, tol – tor, un – o'n, to'r – tur.

Ko'chiring. Har bir so'z qaysi so'z turkumiga kirishini qavs ichida yozing.

399- mashq. O'qing. Har bir gapning boshlanishi va oxirini aniqlang, gaplarni to'xtam bilan ajratib, qayta o'qing.

men **yozni** qishloqda **tog'amnikida** o'tkazaman tongda O'skanboy bilan qo'y-qo'zilarni **yaylovga**

olib chiqamiz issiq kunlari ko'lga borib cho'milamiz tanamizni quyoshda **chiniqtiramiz** baliq ovlaymiz tog'am meni ham ovga olib boradilar qishloqning havosi toza men qishloqni **sevaman**

Har bir gapning tinish belgisini qo'yib ko'chiring. Ajratilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bering.

400- mashq. Berilgan ot, fe'l va sifatlardan gaplar tuzing.

Otlar: shamol, daraxtlar, kunlar, gullar, hidlar.

Fe'llar: ochildi, boshlanadi, tarqaldi, esdi, gulladi.

Sifatlar: mevali, mayin, oq, qizil, issiq, yoqimli.

Tuzgan gaplaringizni yozing. Ega yoki kesim bilan bog'langan ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlang. Bog'lanishini chizma orqali ko'rsating.

 **401- mashq.** Berilgan mavzu va rejadan foydalanib, kuzatishingiz asosida insho yozishga tayyorlaning.


BAHORDA

Reja:

1. Kunlar isiy boshladi.
2. Tabiat jonlandi.
3. Bahorgi ishlar.



 **402- mashq.** Chizmaga mos gaplar tuzib yozing.



403- mashq. O'qing. Gapning chegarasini aniqlang. To'xtam bilan ularni ajrating.

OLCHA

bahor keldi olcha daraxti gulladi gullari to'kildi ko'm-ko'k g'o'ralar tezda qizardi olchalar yetilib pishdi olchadan to'yib-to'yib yedik onam olchadan murabbo pishirdi

Gapning bosh bo'laklari va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlang.



404- mashq. She'ni o'qing. Bo'lishsiz fe'llarni aniqlang.

OLMA

Men sizlarning
Olmangiz,
Xomligimda
Olmangiz.

Nortojiga
O'xshab so'ng,
Voy qornim, deb
Qolmangiz!

Erkin Vohidov

She'rdagi ot, sifat va fe'llarni topib, daftaringizga yozing.



405- mashq. O'qing. Mazmunini so'zlab bering.

AQL VA BOYLIK

Bir chol to'rt o'g'li bilan yashardi. Bir kuni chol:

– O'g'illarim, men qarib qoldim. Orangizda bi-rortangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak. Har qaysingiz menga aqli va davlatmand ekanligingizni ko'rsating, – debdi.

Katta o'g'il zumrad ko'zli oltin uzugini, ikkinchi o'g'il zarbof choponini, uchinchi o'g'il kumush va javohirlar qadalgan kamarini ko'rsatibdi. Chol kenja o'g'liga:

– Sen nega indamaysan? – debdi.

– Menda zumrad koʻzli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yoʻq. Lekin mehnatkash qoʻlim, botir yuragim, aqlli boshim bor, – debdi kenja oʻgʻil.


Kenja oʻgʻlining javobi cholga yoqibdi. Bor-yoʻgʻini kenja oʻgʻliga meros qilib qoldiribdi.

Ajratilgan gaplarni koʻchiring. Shu gaplardagi har bir gap boʻlagi qaysi soʻz turkumiga kirishini ayting.

406- mashq. Berilgan soʻzlarga maʼnodosh (yaqin maʼnoli) soʻzlar toping. Maʼnodosh otlarni alohida, maʼnodosh sifatlarni alohida yonma-yon yozing.

Toza, tiniq, doʻst, quvnoq, ovoz, goʻzal, shabada, yaproq, katta, quyosh.

 **407- mashq.** Oʻqing. Gapning mazmuniga qarab, oxiriga tegishli tinish belgisini qoʻyib koʻchiring.

istiqlol bergan neʼmatni qadrlaylik u matematika-dan qanday baho oldi ey maysalar, maysalar, sizdan olam yasanar 

Bu gaplarning turini ayting.

408- mashq. Oʻqing. Feʼllarni aniqlang. Qavs ichidagi nuqtalar oʻrniga feʼllarning soʻroqlarini qoʻying.


1. Ikrom kompyuterda ishlashni (...) oʻrgandi.
2. Tikuvchi fabrikada koʻylak (...) tikyapti.
3. Maysalar ustiga shudring (...) tushdi.
4. Bulut orasidan quyosh (...) koʻrindi.

Gaplarni soʻroqlari bilan koʻchiring. Feʼllarning tagiga chizing.

409- mashq. Nuqtalar o'rniga so'roqlarga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni yozing.

1. Chavandoz (nimaga?) mindi. 2. Haydovchi (nimani?) yurgizdi. 3. Ot (qayerdan?) yelib ketdi.

O'zaro bog'lovchi qo'shimchalarga ega bo'lgan otlarni tarkibiy qismlarga ajrating va tegishlicha belgilang.

 **410- mashq.** Berilgan gaplarga mos so'zlar qo'shib, gapni qayta tuzing va yozing.

1. Tanlov boshlandi. 2. O'quvchilar keldilar.



411- mashq. Qavs ichidagi so'roqlarga mos so'zlar qo'yib o'qing.

YOZDA

Yozda (*nima?*) yerni qizdiradi. (*Nima?*) juda isiydi. Bog'larda (*qanday?*) mevalar pishadi. (*Qanday?*) shamol esadi. Har tomondan (*qanday?*) hidlar keladi.


Foydalanish uchun so'zlar: *shirin, havo, mayin, quyosh, yoqimli.*

Ko'chiring. Qo'ygan so'zlaringiz qaysi so'z turkumiga kiradi? Ular gapda qaysi bo'lak vazifasida kelyapti?

412- mashq. Qavs ichidagi so'roqlarga mos so'zlarni topib, gaplarni to'ldiring. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlang.

(*Qanday?*) yoz boshlandi. (*Qayerda?*) o'qishlar tugadi. Bolalar (*nimaga?*) chiqadilar. Ular (*qayerdan?*) (*nimalar?*) to'playdilar. To'plagan kolleksiyalarini (*qachon?*) (*qayerga?*) keltiradilar.

Foydalanish uchun soʻzlar: *issiq, sayohatga, maktabda, kolleksiyalar, togʻdan, maktabga, sentabrda.*

 **413- mashq.** Yozgi taʼtilni qanday oʻtkazishingiz haqida kichik matn tuzing va yozing.

414- mashq. Sheʼrni oʻqing.

Joʻja dedi: – Ey, oʻrtoqjon,
Mushuk yotar, qoch, oʻrtoqjon.
Oʻrdak qochdi alpon-talpon,
Quvib qoldi mushuk polvon.
Oʻrdak oʻzin suvga otdi,
Koʻl boʻyida mushuk qotdi.

Poʻlat Moʻmin

Sheʼriy matnni hikoyaga aylantirib yozing.

415- mashq. Oʻqing. Berilgan gapdagi soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini jadvalda koʻrsating.

Biz yozda oromgohda dam olamiz.

 **416- mashq.** Quyidagi soʻzlarga qarama-qarshi soʻzlar toping.

Issiq – ... , shoʻx – ... , yolgʻon – ... , tez – ... ,
koʻp – ...

Shu soʻzlarni qatnashtirib, 2 ta gap tuzing. Tuzilgan gaplaringizdagi bosh boʻlaklarni aniqlang.

 **417- mashq.** Tez va toʻgʻri oʻqing. Gapning bosh boʻlaklarini aniqlang.

Olti juft oq chinni choynakka toʻrt juft koʻk qopqoqni, toʻrt juft koʻk chinni choynakka olti juft oq qopqoqni yopib boʻladimi?

418- mashq. Chizmaga mos gaplar tuzing va yozing.

1. ~~~~~ _____ ~~~~~ ===== .
2. _____ ~~~~~ ~~~~~ ===== .

 **419- mashq.** Berilgan soʻzlarni oʻz oʻrniga qoʻyib gaplar hosil qiling.

1. yakunlamoqdalar, oʻquv yilini, oʻquvchilar
2. muvaffaqiyatli, Karima, tugatdi, sinfni, uchinchi
3. suzishni, yozgi taʼtilda, Sobir, oʻrganmoqchi.

Yozgi taʼtil rejalaringiz haqida 3–4 ta gap tuzib yozing.



420- mashq. Matni oʻqing, sarlavha toping.

Derazadan koʻchaga moʻralab oʻtirgan Erkinjon maktabdan qaytayotgan oʻrtoqlarini koʻrdi. Nima uchundir xoʻrsinib qoʻydi. Shu payt eshik taqillab qoldi. Erkinjon borib ochdi. Qarshisida sochlariga oq oralagan, qotmadan kelgan kishi turardi.

– Men shifokorman, Erkinjon shu yerda turadimi? – deb soʻradi u.

Shifokor Erkinni diqqat bilan tekshirdi. Dori qogʻozni toʻldirib, Erkinjonga berdi.


Halima opa ishdan barvaqt qaytdi. U eshikdan kira solib oʻgʻlidan hol-ahvol soʻradi. Erkinjon shifokor bergan qogʻozni onasiga koʻrsatdi. Halima opa qogʻozni olib oʻqidi. Erkinjon birdan qizarib ketdi.

Hikoyani davom ettiring. Siz mugʻambirlik, yalqovlik kasali haqida eshitganmisiz? Oxirgi ikki gapning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarini aniqlang.

421- mashq. Berilgan otlarga mos sifatlar, fe'llar topib yozing.

Namuna: *katta daraxt, daraxt ko'kardi.*

Bino, ko'cha, quyon, suv, chaqmoq.

 **422- mashq.** Quyidagi fe'llarga yaqin ma'noli fe'llar topib yozing.

Xohlamoq, achinmoq, sog'aymoq, charchamoq.

Shu so'zlar kesim bo'lib kelgan gaplar tuzing. 

423- mashq. Ko'chiring. Gaplarning qanday bo'laklardan tuzilganligini ayting.

TA'TILDA

Yaqinda maktabimizda o'qish tugaydi. Yozgi ta'til boshlanadi. O'rtoqlarim oromgohlarga jo'naydilar. Men qishloqqa – buvimnikiga boraman. Akam „Geolog“ oromgohiga boradi. Hamma yaxshi dam oladi.

Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki chiziq, ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga to'liqinli chiziq chizing.

 **424- mashq.** Rasmga qarab hikoya tuzing. Ulardagi gap bo'laklarini aniqlang.



LUG'AT

A

albom
arra
avgust
avtobus

B

baho
barmoq
behi
binafsha
bodring
bulut

D

daraxt
dars
davlat
dekabr
dohiy

E

ehtirom
elat
ermon
e'tibor

F

farzand
fil
fonarcha

G

gazeta
gulsapsar
gulxan
go'sht

H

handalak
harf
havas
havo
hayvonot
haqida
hovli
hurmat

J

jahon
jangovar
javob
juft

K

kaft
kanal
kapalak
karam
kitob
konki
ko'prik

L

lavlagi
loviya

M

matros
mashina
mebel
mehnat
mehribon
metro
mukofot
mumkin
minnatdor
mushuk

N

navbatchi
noyabr
no'xat

O

ohak
oktabr
olxo'ri

P

palto
partiya
payvand
paxta
piyola
pichoq
pomidor
poyezd

Q

qulupnay
qo'ng'iroq
quruvchi

R

raketa
rasm
ro'yxat

S

sabzavot
sabzi
Samarqand
samolyot
savol
sentabr
sigir
sinf
soat
suhbat
supurgi

T

tabiat
tamom
taom
telefon

terimchi
texnika
tomoshabin
tovush
traktor
tramvay
tutun
toshbaqa
Toshkent

U

uzum
uzun
uchuvchi

V

vaqt
varaq
vazifa

X

xabar
xato

xayrlashmoq
xirmon
xodim
xursand
xo'jalik
xo'roz

Y

yelpig'ich
yetti
yomg'ir
yong'oq

Z

Zafar
zamon
zarg'aldoq
zavq

O'

o'quvchi
o'rdak
o'roq
o'zak

G'

g'alla
g'arq
g'ildirak
g'ubor

Sh

shabada
shaftoli
shahar
shamol
shkaf

Ch

chaman
chinni
chiroyli
chumchuq

MUNDARIJA

TAKRORLASH	3
Nutq. Gap. Soʻz	3
Tovushlar va harflar. Boʻgʻin. Alifbo	10
Tutuq (') belgisi	15
Sh, ch, ng harflar birikmasi	19
Jarangli va jarangsiz undoshlar	21
Talaffuzda tushib qoladigan undoshlar	24
Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar	25
GAP	28
Gapning maqsadiga koʻra turlari	28
Darak gap	30
Soʻroq gap	32
Buyruq gap	36
His-hayajon gap	38
Gap boʻlaklari	41
Bosh boʻlaklar	42
Ikkinchi darajali boʻlaklar	50
Gapda soʻzlarning bogʻlanishi	53
SOʻZ TARKIBI	57
Asos va asosdosh soʻzlar	57
Soʻz yasovchi qoʻshimchalar	61
Soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar	65
SOʻZ TURKUMLARI	72
Ot	75
Otlarda birlik va koʻplik	82
Ot yasovchi qoʻshimchalar	88
Sifat	93
Sifat yasovchi qoʻshimchalar	97
Son	103
Feʼl	108
Boʻlishli va boʻlishsiz feʼllar	118
Feʼl yasovchi qoʻshimchalar	122
YIL DAVOMIDA OʻTILGANLARNI TAKRORLASH	127
LUGʻAT	148

Fuzailov S.
81.20'zb Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining
O-58 3-sinfi uchun darslik / S. Fuzailov, M. Xudoyberganova, Sh. Yo'ldosheva. — 15- nashri. — T.: „O'qituvchi“ NMIU, 2019. — 152 bet.
ISBN 978-9943-22-348-6

UO'K: 811.512.133(075.2)
KBK 81.2 O'zb

SIDDIQ FUZAILOV,
MATLUBA XUDOYBERGANOVA,
SHAROFAT YO'LDOSHEVA

ONA TILI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik

15- nashri

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2019

Muharrirlar: *M. Nishonboyeva, Z. Inyaminova*
Badiiy muharrir *Q. Shamuradov*
Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*
Kompyuterda sahifalovchi *M. Mirpo'latova*
Musahhah *E. Najimova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 012. 20.07.2018. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 19.03.2019. Bichimi 70x90^{1/16}. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozi. Helvetika garniturası. Kegli 12, 14 shponli. Shartli b. t. 11,11. Hisob-nashriyot t. 7,22.
Adadi 493 397 nusxa. Buyurtma №

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent–206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1-uy. Shartnoma № 233-18

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chellari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.